




Certificate



Ilmiy-texnikaviy jurnal

2002 yildan
nashr etiladiyiliga 4 marta
chop etiladi

Bosh muharrir:

D.Vaxabov

Bosh muharrir o‘rinbosari:

A.E.Gulamov

Mas‘ul kotib:

K.R.Avazov

Tahririyat hay‘ati:

H.Alimova

A.P.Parpiyev

Q.Jumaniyazov

X.H.Kamilova

B.M.Mardonov

A.Z.Mamatov

I.A.Nabieva

A.K.Usmankulov

A.D.Daminov

O.A.Axunbabayev

A.S.Rafikov

D.M.Muhamedova

S.Sh.Tashpulatov

P.N.Rudovskiy (Rossiya)

R.O.Jilisbaeva (Qozog‘iston)

F.U.Nigmatova

M.M.Muqimov

I.G.Shin

HuWeilin (Xitoy)

Wang Hua (Xitoy)

Sh.R.Umarov

N.R.Xanxadjaeva

A.F.Plexanov (Rossiya)

I.V.Chernunova (Rossiya)

V.V.Kostileva (Rossiya)

Y.I.Bitus (Rossiya)

Li Minxi (Korea)

A.V.Safonov (Russia)

Dayva Sajek (Litva)

T.J.Qodirov

Sh.Sh.Xakimov

X.A.Babaxanova

R.A.Isayev

S.X.Bojjonov

Tahririyat manzili:

100100, Toshkent sh., Shohjahon ko‘chasi, 5

Tel: (71) 253-06-06, (71) 253-19-59.

www.tju.uzsci.uz

e-mail:

textilejournalofuzbekistan@bk.ru

Ushbu jumalda chop etilgan materiallar tahririyatning yozma ruxsatisiz to‘liq yoki qisman qayta chop etilishi mumkin emas. Tahririyatning fikri mualliflar fikri bilan har doim ham mos tushmasligi mumkin. Jurnalda yoritilgan materiallarning haqqoniyligi uchun maqolalarining mualliflari va reklama beruvchilar mas‘uldirlar.

MUNDARIJA

TO‘QIMACHILIK XOMASHYOLARI TEXNOLOGIYALARI

- R.SH.Sulaymonov, M.M.Ochilov, SH.F. Eshquvvatov, N.Xashimova**
Quvursimon konstruksiyali val bilan takomillashtirilgan 5 lp linterni ishlab chiqarishdagi sinov natijalari 4
- R.I.Ro‘zmetov, M.A.Gapparova, T.O.To‘ychiev**
Paxta tolasi harorati o‘zgarishini issiqlik agenti tezligiga bog‘ligining tadqiqoti 11
- R.SH.Sulaymonov, M.M.Ochilov, SH.F.Eshquvvatov, N.Xashimova**
Arrali silindr tebranishini arralar samaradorligiga va ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatiga ta‘sirini o‘rganish 18
- D.A.Xalmatov, D.R.Hushnazarova**
Elektropnevmatik tizimlarni sinergetik boshqarish 25
- Z.E. Iskandarov, T.H.Avezov, J.B.Jurayev**
Tandalash mashinasini avtomatik boshqarish sistemasining tizimli tahlili 33
- X.A. Tursunxodjayeva**
Doimiy tok elektrodvigatelining aylanish tezligi misolida noaniq rostlagichlarni qo‘llashdagi o‘ziga xos xususiyatlari 40

TO‘QIMACHILIK MATERIALLARI TEXNOLOGIYALARI

- K.B Murodxo‘jayeva, N.R Sodiqova, P.S Siddiqov**
Yangi tarkibli maxsus to‘qimalarni fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganish 47
- T.K.Allamuratova, K.M.Xolikov, N.M.Musayev, M.M.Mukimov**
Homashyo turi o‘zgarishini ikki qatlamli trikotajning fizik-mexanik xususiyatlariga ta‘sirini tadqiqi 57
- T.K.Allamuratova, M.M.Mirsadikov, G.X.Gulyayeva, M.M.Mukimov**
Trikotaj mashinalarida ikki qatlamli bir tomonlama tukli trikotaj ishlab chiqarish usuli 67
- A.E.Gulamov, U.B.Umirov, N.B.Esanova, B.U.Nasirillayev, D.S.Sodiqov**
Yuqori namlikda intensiv usulda yetishtirilgan pillalarning xususiyatlari 72
- G.Raxmatova, Sh.X.Samiyeva, G.A.Ixtiyarova**
Jun tolalari asosida yangi kombinatsiyalangan matolar ishlab chiqarish jarayonini tadqiq qilish 81
- A.B.Joldasova, A.D.Daminov, S.S.Raximxodjayev**
Koylakbop to‘qimalarning tuzilishi va parametrlari 87

QOG‘OZ VA MATBAA TEXNOLOGIYALARI

- X.A.Babaxanova, M.E.Xasanova, A.A. Saodatov, D.Ch.Ravshanov**
Folga yordamida tisneniye qilingan tasvirning sifatini baholash 95
- X.A.Babaxanova, D.I.Abdiraxmanova, Z.K.Galimova**
Muqobil xomashyodan tayyorlangan bosma bo‘yoq 101

CHARM VA POYABZAL SANOATI TEXNOLOGIYALARI


- T.J.Qodirov, Sh.O.Boymanov**
Qunduz terilarini interpolixromalyumokaliy kompleks asosida oshlash, va uning mexanokimyoviy xossalari 108

TIKUVCHILIK SANOATI TEXNOLOGIYASI VA DIZAYNI

- X.Isayeva, D.O.Abdusamatova, F.U.Nigmatova, A.S.Rafikov**
Tiklangan ikkilamchi sellulozali matolarni qishloq xo‘jaligi xodimlarining ishchi kiyimlarida qo‘llash imkoniyatlari 114



Certificate



Научно-технический журнал

Издается
с 2002 года4 раза
в год

Главный редактор
Д.Вахабов
Заместитель главного редактора
А.Э.Гуламов

Ответственный секретарь:
К.Р.Авазов

Редакционная коллегия:

Х.Алимова
А.П.Парпиев
К.Жуманиязов
Х.Х.Камилова
Б.М.Мардонов
А.З.Маматов
И.А.Набиева
А.К.Усманкулов
А.Д.Даминов
О.А.Ахунбабаев
А.С.Рафиков
Д.М.Мухамедова
С.Ш.Ташпулатов
П.Н.Рудовский (Россия)
Р.О.Жилисбаева (Казахстан)
Ф.У.Нигматова
М.М.Мукимов
И.Г.Шин
Ху Вэнлин (Китай)
Ванг Хуа (Китай)
Ш.Р.Умаров
Н.Р.Ханхаджаева
А.Ф.Плеханов (Россия)
И.В.Черунова (Россия)
В.В.Костилова (Россия)
Е.И.Битус (Россия)
Ли Минхи (Корея)
А.В.Сафонов (Россия)
Дайва Сажек (Литва)
Т.Ж.Кодиров
Ш.Ш.Хакимов
Х.А.Бабаханова
Р.А.Исаев
С.Х.Бобожонов

Адрес редакции:
100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5.
Тел: (71)253-06-06, (71)253-19-59.
www.tju.uzsci.uz

e-mail:

textilejournalofuzbekistan@bk.ru

Материалы, опубликованные в
настоящем журнале, не могут быть
полностью или частично возведены без
письменного разрешения редакции.
Мнение редакции не всегда совпадает
с мнением авторов материалов.
За достоверность сведений,
представленных в журнале,
ответственность несут авторы статей
и рекламодатели.

ОГЛАВЛЕНИЕ

ТЕХНОЛОГИЯ ТЕКСТИЛЬНОГО СЫРЬЯ

- Р.Ш. Сулаймонов, М.М. Очилов, Ш.Ф. Эшқувватов, Н.Хашимова**
Результаты испытаний модернизированного линтера 5лп с валом трубчатой
конструкции на производстве 4
- Р.И.Рузметов, М.А.Гаппарова, Т.О.Туйчиев**
Изучение изменения зависимости температуры хлопкового волокна от
скорости теплового агента 11
- Р.Ш. Сулаймонов, М.М. Очилов, Ш.Ф. Эшқувватов, Н.Хашимова**
Исследование влияния вибрации пыльного цилиндра на эффективность пилы
и влияние на качество выпускаемой продукции 18
- D.A.Xalmatov, D.R.Hushnazarova**
Синергетическое управление электропневматическими системами 25
- З.Э.Искандаров, Т.Х.Авезов, Ж.Б.Жураев**
Системный анализ системы автоматического управления сновальной машины 33
- Х.А.Турсунходжаева**
Особенности применения нечетких регуляторов на примере управления
скоростью вращения электродвигателя постоянного тока 40

ТЕХНОЛОГИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ

- К.Б. Муродхўжаева, Н.Р.Содиқова, П.С.Сиддиқов**
Исследование физико-механических свойств специальных тканей
нового состава 47
- Т.К.Алламуратова, К.М.Холиқов, Н.М.Мусаев, М.М.Мукимов**
Исследование влияние вида сырья на физико-механические свойства
двухслойного трикотажа 57
- Т.К.Алламуратова, М.М. Мирсадиқов, Г.Х. Гуляева, М.М.Мукимов**
Способ выработки двухслойного одностороннего плюшевого
переплетения на трикотажных машинах 67
- А.Э.Гуламов, У.Б.Умиров, Н.Б.Эсанова, Б.У.Насириллаев, Д.С.Содиқов**
Характеристики коконов, интенсивно выращиваемых при повышенной
влажности 72
- Г.Рахматова, Ш.Х.Самиева, Г.А.Ихтиярова**
Исследование процесса разработки новых комбинированных тканей на
основе шерстяных волокон 81
- А.Б.Жолдасова, А.Д.Даминов, С.С.Рахимходжаев**
Параметры и проектирование сорочечной ткани 87

ТЕХНОЛОГИЯ БУМАГИ И ПЕЧАТИ

- Х.А.Бабаханова, М.Э.Хасанова, А.А. Саодатов, Д.Ч.Равшанов**
Оценка качества изображения, тисненого фольгой 95
- Х.А.Бабаханова, Д.И.Абдирахманова, З.К.Галимова**
Печатная краска из альтернативного сырья 101

ТЕХНОЛОГИЯ ОБУВНОЙ И КОЖЕВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ


- Т.Ж.Кодиров, Ш.О. Бойманов**
Дубление шкур нутрии на основе интерполихромаломокаликотомплекса
и её механо-химические свойства 108

ТЕХНОЛОГИЯ И ДИЗАЙН ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

- М.Х. Исаева, Д.О.Абдусаматова, Ф.У.Нигматова, А.С.Рафиков**
Возможности использования тканей из восстановленной вторичной
целлюлозы в специальной одежде работников сельского хозяйства 114



Certificate



Scientific – technical journal

founded
in 2002Publishing
4 times per year**Editor in chief:**

D.Vaxabov

Deputy editor in chief:

A.E.Gulamov

Executive secretary:

K.R.Avazov

Editorial board:

H.Alimova
A.P.Parpiyev
Q.Jumaniyazov
X.H.Kamilova
B.M.Mardonov
A.Z.Mamatov
I.A.Nabieva
A.K.Usmankulov
A.D.Daminov
O.A.Axunbabayev
A.S.Rafikov
D.M.Muhamedova
S.Sh.Tashpulatov
P.N.Rudovskiy (Rossiya)
R.O.Jilisbaeva (Qozog'iston)
F.U.Nigmatova
M.M.Muqimov
I.G.Shin
HuWeilin (Xitoy)
Wang Hua (Xitoy)
Sh.R.Umarov
N.R.Xanxadjaeva
A.F.Plexanov (Rossiya)
I.V.Chernova (Rossiya)
V.V.Kostileva (Rossiya)
Y.I.Bitus (Rossiya)
Li Minxi (Korea)
A.V.Safonov (Russia)
Dayva Sajek (Litva)
T.J.Qodirov
Sh.Sh.Xakimov
X.A.Babaxanova
R.A.Isayev
S.X.Bobojonov

Address:Street, 5 Shokhjakhon,
Tashkent, 100100**Phone:** (71) 253-06-06,
(71) 253-19-59.

www.tju.uzsci.uz

e-mail:textilejournalofuzbekistan@bk.ru

The materials published in this journal, cannot be full or in part reproduced without the written sanction of edition. The opinion of edition not always coincides with opinion of authors. For reliability of data submitted in journal, the responsibility is carried by articles authors and advertisers

CONTENTS**TECHNOLOGIES OF TEXTILE RAW MATERIALS**

- R.SH. Sulaymonov, M.M. Ochilov, SH.F. Eshquvvatov, N.Xashimova**
Production test results of improved 5lp linter with pipe construction shaft 4
- R.I.Ruzmetov, M.A.Gapparova, T.O.Tuychiev**
Study of the changes of cotton fiber temperature dependence on the speed of the heat agent 11
- SH. Sulaymonov, M.M. Ochilov, Sh.F. Eshquvvatov, N.Xashimova**
Study of the influence of saw cylinder vibration on saw efficiency and the impact on the quality of products 18
- D.A.Khalmatov, D.R.Khushnazarova**
Synergetic control of electropneumatic systems 25
- Z.E Iskandarov, T.H Avezov, J.B.Jurayev**
System analysis of the automatic control system of a warping machine 33
- Kh.A.Tursunkhodjayeva**
Application features of fuzzy controllers on example of dc motor speed control 40

THE TECHNOLOGIES OF TEXTILE MATERIALS

- K.B.Murodxo'jayeva, N.R.Sodiqova, P.S.Siddiqov**
Research of physical and mechanical properties of special fabrics with new composition 47
- T.K.Allamuratova, K.M.Xolikov, N.M.Musayev, M.M.Mukimov**
Research of the influence of the type of raw materials on the physical and mechanical properties of double-layer knitting fabrics 57
- T.K.Allamuratova, M.M. Mirsadikov, G.X.Gulyayeva, M.M.Mukimov**
Method for producing double-layer single-sided plush knitwear on knitting machines 67
- A.E.Gulamov, U.B.Umirov, N.B.Esanova, B.U.Nasirillayev, D.S.Sodiqov**
Characteristics of cocoons intensively grown in high humidity 72
- G.Raxmatova, Sh.H.Samiyeva, G.A.Ikhtiyarova**
Study of the development process of new combined fabrics on the basis wool fibers 81
- A.B.Joldasova, A.D.Daminov, S.S.Raximxodjayev**
Parameters and design of shirt fabric 87

PAPER TECHNOLOGY AND PRINTING

- X.A.Babaxanova, M.E.Xasanova, A.A. Saodatov, D.Ch.Ravshanov**
Evaluation of the quality of the image printed using foil 95
- X.A.Babaxanova, D.I.Abdiraxmanova, Z.K.Galimova**
Printing ink from alternative raw materials 101

TECHNOLOGIES OF THE SHOE AND LEATHER INDUSTRY

- T.J.Qodirov, Sh.O. Boymanov**
Tanning nutria skins based on interpolychromalumocalicomplex and its mechano-chemical properties 108

TECHNOLOGY AND DESIGN OF THE GARMENT INDUSTRY

- M.X. Isayeva, D.O.Abdusamatova, F.U.Nigmatova, A.S.Rafikov**
Possibilities of using fabrics from recovered secondary cellulose in special clothing for agricultural workers 114

QUVURSIMON KONSTRUKSIYALI VAL BILAN TAKOMILLASHTIRILGAN 5LP LINTERNI ISHLAB CHIQRISHDAGI SINOV NATIJALARI**R.SH.Sulaymonov¹, M.M.Ochilov², SH.F.Eshquvvatov³***"Cotton Industry Scientific Center" JSC¹, Tashkent Institute of Textile and Light Industry²
Gulistan State University³*

Annotatsiya. 5LP linterlar arrali silindri tebranishini kamaytirish orqali linterning ish unumdorligini oshirish, tola va chigit sifatini yaxshilash, elektr energiya va extiyot qismlar sarfini tejash maqsadida quvursimon konstruksiyali yengillashtirilgan val yaratildi. Valning sanoat-tajriba nusxasi ishlab chiqildi va Sirdaryo viloyati "Sardoba Universal Cluster" MCHJ korxonasidagi 5LP linterga o'rnatilib, linter takomillashtirildi. Takomillashtirilgan linterni samaradorligini o'rganish uchun taqqoslash-tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot ishlarida taklif etilgan arrali silindrga sarflangan tok kuchi silindrni yuklamasiz ishlashida o'rtacha 12 A ni tashkil etib, mavjud arrali silindrni yuklamasiz ishlashiga qaraganda tok kuchi 3 A ga tejaldi. Sulton seleksiyali I nav 2-sinfli chigitni linterlashda linterning ish unumdorligi chigit bo'yicha o'rtacha 662 kg/soatni, momiq bo'yicha o'rtacha 24,7 kg/soatni tashkil etib, mavjud valli arrali silindrga ega bo'lgan 5LP linterga qaraganda ish unumdorligi chigit bo'yicha o'rtacha 46 kg/soatga, momiq bo'yicha 3,4 kg/soatga yuqori ekanligi aniqlandi. Chigitni linterlashda linterdan keyingi chigitning tukdorligi o'rtacha 7,0 % ni, shikastlanishi o'rtacha 4,22 % ni tashkil etib, mavjud arrali silindrli 5LP rusumli linterdan keyingi chigit tukdorligiga qaraganda o'rtacha 0,4 (abs)% ga, shikastlanganligiga qaraganda 0,1 (abs)% ga kam bo'ldi. Bunda takomillashtirilgan linterdan keyingi momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi o'rtacha 0,58 (abs)% ga kamaydi.

Sulton seleksiyali III nav 2-sinfli chigitni quvursimon val bilan takomillashtirilgan 5LP linterda linterlashda linterning ish unumdorligi mavjud 5LP linterga qaraganda chigit bo'yicha o'rtacha 55 kg/soatga, momiq bo'yicha 3,8 kg/soatga oshdi, momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi o'rtacha 0,91 (abs)% ga yaxshilandi. Linterdan keyingi chigitning tukdorligi o'rtacha 11,3 % ga, shikastlanganligi o'rtacha 4,36 % ga teng bo'lib, chigit sifati mavjud valli 5LP rusumli linterdan ishlab chiqarilgan chigit sifatiga qaraganda o'rtacha 0,22 (abs)% ga yaxshilandi.

Sulton seleksiyali I va III navli 2-sinfli chigitni linterlashda arrali silindrlar 72 soat ishlatilib, kolosniklarga tegib ishlagan arra va kolosniklarning holati o'rganilganda, quvursimon valli arrali silindrda arra tishlarining yeyilishidan keyingi balandligi o'rtacha 1,74 mm ni va 1,55 mm ni tashkil etib, mavjud valli 5LP rusumli linterdagi arralarga qaraganda tish balandligi 0,23 mm va 0,27 mm ga saqlab qolingan. Bunda arralar tegib ishlagan kolosniklar ishchi qismi yon tomonining yemirilishi 0,85 mm ni va 0,9 mm ni tashkil etib, yemirilish chuqurligi mavjud 5LP rusumli linterdagi kolosniklar ishchi qismi yon tomoni yemirilish chuqurligiga qaraganda o'rtacha 0,53 mm va 0,61 mm ga kamaygan. O'tkazilgan sinov-tadqiqot ishlarining natijasidan 5LP linterni quvursimon val bilan takomillashtirilishi linterni ish unumdorligini oshishiga, chigit va momiq sifatini yaxshilanishiga, elektr energiya sarfini tejatishiga, import qilingan arralar va kolosniklar ishlash muddatini oshishiga olib kelishi aniqlandi.

Tayanch so'zlar: Linter, quvursimon val, arrali silindr, arra, kolosnik, tebranish, tok kuchi, chigit, momiq, tukdorlik, shikastlanish, ish unumdorlik, sifat.

Аннотация. Для снижения вибрации полного цилиндра лютера 5ЛП с целью повышения производительности, улучшения качества лinta и семян, экономии электроэнергии и запасных частей, создан облегченный вал трубчатой конструкции.

Разработан опытно-промышленный образец вала и установлен на линтере 5ЛП на ООО "Sardoba Universal Cluster" в Сырдаринской области. Для оценки эффективности использования с трубчатым валом были проведены сравнительные исследования. Потребления тока пыльного цилиндра с трубчатым валом при работе на холостом ходу составила в среднем 12 А, что меньше на 3 А по сравнению с используемым пыльным цилиндром при тех же условиях. При линтерования семян селекции Султан 1-го сорта 2-класса, производительность модернизированного линтера составила около 662 кг/ч по семенам и 24,7 кг/ч по линту, что больше по семенам на 46 кг/ч и по линту на 3,4 кг/ч по сравнению с используемым линтером 5ЛП. После линтерования опущенность семян составила в среднем 7,0 %, а поврежденность в среднем 4,22 %, что меньше на 0,4 (абс)% и на 0,1 (абс)% соответственно с типовым вариантом 5ЛП. При этом массовая доля сорных примесей и целых семян в линте после модернизированного линтера в среднем уменьшалась на 0,58 (абс)%.

При линтерования семян селекции Султан IIII-го сорта 2- класса в модернизированном линтере 5ЛП с трубчатым валом производительность линтера по семенам увеличилась на 55 кг/ч и по линту на 3,8 кг/ч по сравнению с типовым линтером 5ЛП, а массовая доля сорных примесей и целых семян в линте после линтера уменьшилась 0,91 (абс)%. Опущенность семян после линтера составила в среднем на 11,3 %, поврежденность семян – 4,36 %, что качество семян улучшилось в среднем на 0,22 (абс)%. При линтерования семян II и IIII сортов 2-класса селекции Султан в течении 72 часов, изучении состояния пил и колосников при задевании пил к колоснику и измерена высота зуба пил после изнашивания, которая составила 1,74 мм и 1,55 мм соответственно сортам на пыльном цилиндре с трубчатым валом. При этом высота зубьев больше на 0,23 мм и 0,27 мм, соответственно по сравнению с пилами на существующем валу линтера 5ЛП. При этом износ боковых поверхностей рабочей части колосников в месте касания пил составил 0,85 мм и 0,9 мм, что на 0,53 мм и на 0,61 мм соответственно меньше чем износ боковых частей рабочей поверхности колосников типового линтера 5ЛП.

В результате проведенных сравнительных испытаний установлено, что использования на линтерах 5ЛП трубчатых валов позволит повысить производительность линтера, улучшить качества линта и семян, снизит расход электроэнергии, увеличит срок службы импортных пил и колосников.

Ключевые слова: Линтер, трубчатый вал, пыльный цилиндр, пила, колосник, вибрация, сила тока, семена, линт, опущенность, поврежденность, производительность, качество.

Annotation. To reduce the vibration of the saw cylinder of the 5LP linter in order to increase productivity, improve the quality of linters and seeds, save energy and spare parts, a lightweight shaft of tubular design was created. A pilot industrial sample of the shaft was developed and installed on a 5LP linter at Sardoba Universal Cluster LLC in the Syrdarya region. Comparative studies were carried out to evaluate the effectiveness of use with a tubular shaft. The current consumption of the saw cylinder with a tubular shaft during idling operation averaged 12 A, which is 3 A less than the saw cylinder used under the same conditions. When linting seeds of the Sultan selection, 1st grade, 2nd class, the productivity of the modernized linter was about 662 kg/h for seeds and 24.7 kg/h for linters, which is 46 kg/h more for seeds and 3.4 for linters kg/h compared to the 5LP linter used. After linting, the hairiness of the seeds was on average 7.0%, and the damage on average was 4.22%, which is less by 0.4 (abs)% and 0.1 (abs)%, respectively, with the standard option 5LP. At the same time, the mass fraction of weeds and whole seeds in the linter after the modernized linter decreased on average by 0.58 (abs)%.

When linting seeds of the Sultan selection of the third grade, 2nd class, in a modernized 5LP linter with a tubular shaft, the productivity of the linter for seeds increased by 55 kg/h and for linters by 3.8 kg/h compared to the standard linter 5LP, and the mass fraction of weeds impurities and whole seeds in lint after linter decreased by 0.91 (abs)%. The hairiness of the


seeds after linting was on average 11.3%, the damage to the seeds was 4.36%, and the quality of the seeds improved by an average of 0.22 (abs)%.

When linting seeds of I and III varieties of the 2nd class of the Sultan selection for 72 hours, the condition of the saws and grate when the saw touched the grate was studied and the height of the saw teeth after wear was measured, which amounted to 1.74 mm and 1.55 mm, respectively, for the varieties on the saw cylinder with a tubular shaft. At the same time, the height of the teeth is 0.23 mm and 0.27 mm higher, respectively, compared to saws on the existing 5LP linter shaft. At the same time, the wear of the side surfaces of the working part of the grate bars at the point of contact of the saws was 0.85 mm and 0.9 mm, which is 0.53 mm and 0.61 mm, respectively, less than the wear of the side parts of the working surface of the grate bars of a standard 5LP linter. As a result of comparative tests, it was established that the use of tubular shafts on 5LP linters will increase the productivity of the linter, improve the quality of linters and seeds, reduce energy consumption, and increase the service life of imported saws and grates.

Key words: Linter, tubular shaft, saw cylinder, saw, grate, selection, current strength, seeds, linter, pubescence, damage, productivity, quality.

Kirish. Paxta-to‘qimachilik klasterlari tasarrufidagi paxta tozalash korxonalarini chigitni linterlash tizimida ishlatilayotgan 5LP linterlar arrali silindri tebranishini kamaytirish orqali linterning ish unumdorligini oshirish, tola va chigit sifatini yaxshilash, elektr energiya va extiyot qismlar sarfini tejash maqsadida ilmiy izlanishlar olib borildi [1]. Olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar asosida 5LP linteri arrali silindri uchun quvursimon konstruksiyali yengillashtirilgan val yaratildi va valning sanoat-tajriba nusxasini chizmalari “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJning loyihalash bo‘limida tayyorlandi [2]. Tayyorlangan chizmalar asosida sanoat-tajriba nusxa “RIM ustaxonasi” MCHJ korxonasida ishlab chiqarildi (1-rasm). Ishlab chiqarilgan quvursimon valga tashqi diametri 320 mm bo‘lgan 160 dona arralar va 159 dona arralar oraliq qistirmalar yig‘ilib, silindr holatiga keltirildi [3, 4]. So‘ngra quvursimon valga ega bo‘lgan arrali silindr Sirdaryo viloyati “Sardoba Universal Cluster” MCHJ korxonasini chigitni linterlash tizimida ishlab turgan bir dona 5LP linteriga o‘rnatilib, linter takomillashtirildi (2-rasm). Takomillashtirilgan linterning mavjud linterdan samaradorligini o‘rganish uchun chigitni linterlash texnologik tizimdagi mavjud valli silindrli 5LP linter bilan taqqoslash-tadqiqot ishlari olib borildi. Taqqoslash-tadqiqot ishlarini boshlashdan oldin har ikkala linterlardagi barcha ishchi qismlar linter texnik xarakteristikasiga mos ravishda sozlandi [5, 6].

Linterlarni yuklamasiz va yuklama bilan ishlashida arrali silindrlarga sarflangan elektr energiya silindrni xarakatga keltiruvchi elektrodvigatelga o‘rnatilgan ampermetr ko‘rsatkichi yordamida aniqlandi [7].



1- rasm. 1- quvur, 2- o‘ng sapfa, 3- chap sapfa

Linterlarga berilgan chigitning, linterlardan ishlab chiqarilgan chigit va momiqning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun linterlar tarnoviga berilgan chigitdan, linterlardan ishlab chiqarilgan chigit va momiqdan namunalari olinib, korxonada laboratoriyasida taxlil qilindi [8].

Linterlarning ish unumdorligini aniqlash esa xronometraj usulida olib borildi. Taxlil natijalari aniq bo'lishi uchun namunalari 7 marta takrorlanib, o'rtacha qiymatlari olindi. Tajriba ishlarini boshlashdan avval mavjud va quvursimon vallarning og'irligi korxonaning press sexidagi elektron tarozida tortildi. Bunda mavjud valning og'irligi 88,3 kg ni, arralar va arralar oraliq qistirmalar bilan arrali silindr holatidagi og'irligi o'rtacha 212,16 kg ni tashkil etdi [9]. Taklif etilgan quvursimon valning og'irligi 65,7 kg ni, arralar va arralar oraliq qistirmalar bilan arrali silindr holatidagi og'irligi o'rtacha 189,6 kg ni tashkil etib, mavjud arrali silindrda 22,56 kg ga yengilligi aniqlandi. Tajriba ishlari dastlab mavjud valli arrali silindrda o'tkazildi. Bunda 5LP rusumli linter arrali silindri yuklamasiz ishlatilib, elektrodvigateldan sarflangan tok kuchi o'lchanganda o'rtacha 15 amperga teng bo'ldi [10].

So'ngra taklif etilgan linterdagi quvursimon valli arrali silindr yuklamasiz ishlatilib, tok kuchi aniqlanganda o'rtacha 12 amporni tashkil etdi va mavjud valli arrali silindrga qaraganda o'rtacha 3 amperga tok kuchi tejaldi. Keyin linterlarni yuklama bilan ishlatib ko'rish uchun tadqiqot ishlari Sulton seleksiyali I va III nav 2-sinflni texnik chigitlarda o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Dastlab mavjud valga ega bo'lgan arrali silindrli 5LP rusumli linterda tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda Sulton seleksiyali I nav 2-sinflni paxtani dastlabki ishlashda linterga berilgan texnik chigitning linter tarnovida tukdorligi o'rtacha 10,4 % ga, shikastlanishi o'rtacha 2,79 % ga teng bo'ldi [11, 12]. Chigitni linterlashda arrali silindr orqali elektrodvigatelga tushadigan

yuklama o'lchanganda tok kuchi o'rtacha 28 amporni tashkil etdi. Linterdan keyingi momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi o'rtacha 6,24 % ga, chigitning tukdorligi o'rtacha 7,4 % ga, shikastlanishi 4,32 % ga teng bo'ldi. Linterdan keyingi chigitni tukdorlik darajasi bo'yicha tarkibi o'rganilganda linterlanmagan chigitlar 6 % ni, tukdorligi 6 % gacha bo'lgan chigitlar 17 % ni, tukdorligi 7 % gacha bo'lgan chigitlar 21 % ni, tukdorligi 8 % gacha bo'lgan chigitlar 33 % ni, tukdorligi 9 % gacha bo'lgan chigitlar 15 % ni, tukdorligi 10 % gacha bo'lgan chigitlar 8 % ni tashkil etdi (3-rasm).


Linterni ish unumdorligi xronometraj usulida aniqlanganda chigit bo'yicha o'rtacha 616 kg/soatga, momiq bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 21,3 kg/soatga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich quvursimon val bilan takomillashtirilgan 5LP rusumli linterda Sulton seleksiyali I nav 2-sinflni chigitni linterlashda arrali silindr orqali elektrodvigatelga tushadigan yuklama o'lchanganda tok kuchi o'rtacha 24 amporni tashkil etib, mavjud valli arrali silindrni yuklama bilan ishlagandagiga qaraganda 4 amperga kam tok kuchi sarflandi. Linterdan keyingi chigitning tukdorligi o'rtacha 7,0 % ni, shikastlanishi o'rtacha 4,22 % ni tashkil etib, mavjud arrali silindrli 5LP rusumli linterdan keyingi chigit tukdorligiga qaraganda o'rtacha 0,4 (abs)% ga, shikastlanganligiga qaraganda 0,1 (abs)% ga kam bo'ldi va chigit sifatini yaxshilanganligi aniqlandi.



2- rasm. Quvursimon konstruksiyali val bilan takomillashtirilgan 5LP linteri

Bunda linterdan keyingi momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi o'rtacha 5,66 % ga teng bo'lib, mavjud valga ega bo'lgan silindrlil 5LP rusumli linterdan ishlab chiqarilgan momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushiga qaraganda o'rtacha 0,58 (abs)% ga kam bo'ldi hamda momiq sifati yaxshilandi. Linterdan keyingi chigitni tukdorlik darajasi bo'yicha tarkibi o'rganilganda linterlanmagan chigitlar 3 % ni, tukdorligi 6,5 % gacha bo'lgan chigitlar 25 % ni, tukdorligi 7,0 % gacha bo'lgan chigitlar 33,5 % ni, tukdorligi 8,5 % gacha bo'lgan chigitlar 21 % ni, tukdorligi 9,5 % gacha bo'lgan chigitlar 11 % ni, tukdorligi 10,5 % gacha bo'lgan chigitlar 6,5 % ni tashkil etdi (3- rasm). Bunda linterni chigit bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 662 kg/soatni, momiq bo'yicha o'rtacha 24,7 kg/soatni tashkil etib, mavjud valli arrali silindrga ega bo'lgan 5LP linterga qaraganda ish unumdorligi chigit bo'yicha o'rtacha 46 kg/soatga, momiq bo'yicha 3,4 kg/soatga yuqori ekanligi aniqlandi.

Linter tarnovida tukdorligi o'rtacha 11,7 %, shikastlanganligi o'rtacha 2,83 % bo'lgan Sulton seleksiyali III nav 2-sinflil chigitni mavjud konstruksiyali valga ega bo'lgan linterda linterlanganda va arrali silindrni aylanma xarakterga keltirgan elektrodvigatelga tushadigan yuklama o'lchanganda tok kuchi o'rtacha 30 amporni tashkil etdi. Linterdan keyingi momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi o'rtacha 7,36 % ga, chigitning tukdorligi 11,8 % ga va chigitning shikastlanishi 4,58 % ga teng bo'ldi. Linterdan keyingi chigitni tukdorlik darajasi bo'yicha tarkibi o'rganilganda linterlanmagan chigitlar 7 % ni, tukdorligi 6 % gacha bo'lgan chigitlar 15 % ni, tukdorligi 7 % gacha bo'lgan chigitlar 18 % ni, tukdorligi 8 % gacha bo'lgan chigitlar 30 % ni, tukdorligi 9 % gacha bo'lgan chigitlar 18 % ni, tukdorligi 10 % gacha bo'lgan chigitlar 12 % ni tashkil etdi (4-rasm). Bunda linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 596 kg/soatga, momiq bo'yicha o'rtacha 24,4 kg/soatga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich quvursimon val bilan takomillashtirilgan 5LP linterda Sulton seleksiyali III nav 2-sinflil chigitni linterlashda arrali silindr orqali elektrodvigatelga tushadigan yuklama o'lchanganda tok kuchi 24,5 amporni tashkil etib, mavjud valli arrali silindrni yuklama bilan ishlagandagiga qaraganda tok kuchi sarfi 5,5 amperga tejalganligi aniqlandi. Chigitni linterlashdan ishlab chiqarilgan momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi o'rtacha 6,45 % ga teng bo'lib, momiq sifati mavjud valli linterdan ishlab chiqarilgan momiq sifatiga qaraganda o'rtacha 0,91 (abs)% ga yaxshilandi [13]. Linterdan keyingi chigitning tukdorligi o'rtacha 11,3 % ga, shikastlanganligi o'rtacha 4,36 % ga teng bo'lib, chigit sifati mavjud valli 5LP rusumli linterdan ishlab chiqarilgan chigit sifatiga qaraganda o'rtacha 0,22 (abs)% ga yaxshilandi. Linterdan keyingi chigitni tukdorlik darajasi bo'yicha tarkibi o'rganilganda linterlanmagan chigitlar 4 % ni, tukdorligi 6 % gacha bo'lgan chigitlar 23 % ni, tukdorligi 7 % gacha bo'lgan chigitlar 27 % ni, tukdorligi 8 % gacha bo'lgan chigitlar 21 % ni, tukdorligi 9 % gacha bo'lgan chigitlar 16 % ni, tukdorligi 10 % gacha bo'lgan chigitlar 9 % ni tashkil etdi. Bunda linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha



1- mavjud valli arrali silindrga ega bo'lgan 5LP linterda, 2- quvursimon valli arrali silindrga ega bo'lgan 5LP linterda.

3- rasm. Mavjud va quvursimon valli arrali silindrlarga ega bo'lgan 5LP rusumli linterlardan keyingi chigitni tukdorlik darajasi bo'yicha tarkibi

651 kg/soatga, momiq bo'yicha 28,2 kg/soatga teng bo'lib, tajriba uchun olingan mavjud valli linter ish unumdorligiga qaraganda chigit bo'yicha o'rtacha 55 kg/soatga, momiq bo'yicha 3,8 kg/soatga yuqori ekanligi aniqlandi.


Arrali silindrni tebranishida silindrdagi ba'zi arralarni kolosniklar ustki yon qismiga tegib ishlashidan arra tishlarini yeyilishi va kolosniklarni yemirilish darajasi o'rganildi.

Mavjud arrali silindrga ega bo'lgan linterda Sulton seleksiyali I nav 2-sinfli chigitni linterlashda arralarni PDI 89-2018-meyor bo'yicha 72 soatgacha ishlatilib, sinashda arra tishlarining yeyilishidan keyingi balandligi 2,86 mm dan 1,51 mm ni tashkil etib, tish balandligi o'rtacha 1,35 mm ga kamaydi [14]. Bunda arralar tegib ishlagan kolosniklar ishchi qismi yon tomonining yemirilish chuqurligi 1,38 mm ni tashkil etdi (5-rasm).

Bu ko'rsatkich quvursimon valga ega bo'lgan linterda Sulton seleksiyali I nav 2-sinfli chigitni linterlashda arralarni 72 soatgacha ishlatilishida arra tishlarining yeyilishidan keyingi balandligi 2,86 mm dan 1,74 mm gacha o'zgarib, mavjud valli 5LP rusumli linterga qaraganda tish balandligi 0,23 mm ga saqlab qolindi. Bunda arralar tegib ishlagan kolosniklar ishchi qismi yon tomonining yemirilishi 0,85 mm ni tashkil etib, yemirilish chuqurligi mavjud 5LP rusumli linterdagi kolosniklar ishchi qismi yon tomoni yemirilish chuqurligiga qaraganda o'rtacha 0,53 mm ga kamaydi [15].

Sulton seleksiyali III nav 2-sinfli chigitni mavjud valli linterda linterlashda arralarni 72 soat ishlatilishida arra tishlarining yeyilishidan keyingi balandligi 2,86 mm dan 1,34 mm ni tashkil etib, tish balandligi o'rtacha 1,52 mm ga kamaydi [16].


Bunda arralar tegib ishlagan kolosniklar ishchi qismi yon tomonining yemirilish chuqurligi 1,51 mm ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich quvursimon valga ega bo'lgan linterda Sulton seleksiyali III nav 2-sinfli chigitni linterlashda arralarni 72 soatgacha ishlatilishida arra tishlarining yeyilishidan keyingi balandligi o'rtacha 2,86 mm dan 1,55 mm gacha o'zgarib, mavjud valli 5LP rusumli linterga qaraganda tish balandligi 0,27 mm ga saqlab qolindi. Bunda kolosniklar ishchi qismi yon tomonining yemirilishi 0,9 mm ni tashkil etib, yemirilish chuqurligi mavjud 5LP rusumli linterdagi kolosniklar ishchi qismi yon tomoni yemirilish chuqurligiga qaraganda o'rtacha 0,61 mm ga kamaydi (6- rasm).



1- mavjud valli arrali silindrga ega bo'lgan 5LP linterda,

2- quvursimon valli arrali silindrga ega bo'lgan 5LP linterda.

4- rasm. Mavjud va quvursimon valli arrali silindrlarga ega bo'lgan 5LP rusumli linterlardan keyingi chigitni tukdorlik darajasi bo'yicha tarkibi




1, 3- mavjud valli 5LP linterda;

2, 4- quvursimon valli 5LP linterda.

5- rasm. Arra tishlari balandligi kamayishini va kolosniklar ustki ishchi qismi yon tomoni yemirilishini arralarni ishlash vaqtiga bog'liqligi

Xulosa. O'tkazilgan taqqoslash-sinov ishlarining natijasi 5LP linteri arrali silindri quvursimon val bilan takomillashtirilishidan silindrning og'irligi mavjud valli silindrga qaraganda 22,56 kg ga yengil bo'lib, silindrni 730 ayl/min da aylanishida tebranishlar kamaydi va elektrodvigatelga sarflanadigan tok kuchi o'rtacha 5,5 amperga tejaladi. Chigitni linterlashda linter ish unumdorligini oshishi bilan birga ishlab chiqarilgan chigit va momiqning sifati yaxshilandi. Arrali silindr tebranishining kamayishi silindrdagi arralarni kolosniklar yon tomoniga tegib ishlashini keskin kamaytirdi. Natijada arra va kolosniklar yeyilishining kamayishidan ular ishlash muddatini oshishiga olib kelib, chigitni samarali linterlash jarayoni amalga oshirildi.



1, 3- mavjud valli 5LP linterda;
2, 4- quvursimon valli 5LP linterda.

6- rasm. Arra tishlari balandligi kamayishini va kolosniklar ustki ishchi qismi yon tomoni yemirilishini arralarni ishlash vaqtiga bog'liqligi

Reference

1. R.SH.Sulaymonov, M.M.Ochilov, SH.F.Eshquvvatov. B.E.Qarshiyev. Arrali silindr tebranishini linter samaradorligiga ta'siri. "Paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Termiz. 20-21- oktabr. 2023-y. 69-72 b.
2. R.SH.Sulaymonov, O'.A.Norboyev, SH.F.Eshquvvatov. Chigitni linterlashda energiya-resurstejamkor texnologiya. Halqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Jizzax. 19-20 may. 2023. 340-344 b.
3. A.M.Salimov, A.YE.Lugachev, M.T.Xodjiyev. Texnologiya pervichnoy obrabotki xlopka. "Adabiyot uchqunlari". Tashkent. 2018. -184 s.
4. N.Z.Kamalov, SH.Z.Kamalov, R.SH. Sulaymonov va boshqalar. Paxtani dastlabki ishlash va urug'lik chigit tayyorlash uskunalarini ishlatish va ta'mirlash bo'yicha yo'riqnoma (PDI 56-2016). Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ. -Toshkent, 2019.- 109 b.
5. Pasport pilnogo lintera 5LP.-Tashkent: TGSKB po xlopkoochistke, 1981.-18 s.
6. Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik. F.B.Omonovning umumiy taxriri ostida tayyorlandi. "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, "Vorish-nashriyot", Toshkent, 2008.- 416 b.
7. A.M.Salimov, A.A.Ismoilov. Sanoat sohalari texnologiyasi. TITLP, Toshkent. 2018.- 292 b.
8. Maksudov I.T., Nuraliyev A.N. Sbornik instruktsiy i metodik po texnicheskomu kontrolyu i otsenke kachestva xlopka-sirsa i produkcii yego pererabotki v xlopkoochistitelnoy promishlennosti. Tashkent. Mehnat, 1992.- 340 s.
9. R.SH.Sulaymonov, B.Y.Kushakeyev, D.U.Madraximov. Iziskaniye putey povisheniya effektivnosti protsessa linterovaniya semyan. Otchet AO «Paxtasanoat ilmiy markazi». Tashkent. 2011.-65 s.
10. R.SH.Sulaymonov, B.X.Marufxanov, U.Q.Karimov. Arrali linterning ishchi qismlarini takomillashtirish va ishlab chiqarishga tadbiiq etish. Ilmiy hisobot. "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ. Toshkent. 2016.- 51 b.

11. O'zDst 601:2016. Paxta. Texnik chigit. Texnikaviy shartlar. Tukdorlikni aniqlash usullari. Toshkent, 2016.- 11 b.
12. O'zDst 597:2016. Paxtaning texnik chigiti, Texnik shartlari. Chigitdagi nuqsonlar massaviy ulushini aniqlash usullari. Toshkent, 2011.- 16 b.
13. O'zDst 662:2011. Paxt momig'i, Texnik shartlari. Iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi. Toshkent, 2011.- 12 b.
14. R.SH.Sulaymonov, B.X.Marufxanov, U.Q.Karimov. "Arrali jin va linterlar uchun arra, kolosnik va arralar oraliq qistirmalarning sarflanish meyorlari" (PDI 89-2018). "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ. Toshkent. 2018.- 6 b.
15. R.SH.Sulaymonov. Paxta tozalash korxonalaridagi arra tayyorlash sexlarini ishlatish bo'yicha yo'riqnoma (PDI 64-2016). "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ. Toshkent. 2019.-72 b.
16. R.SH.Sulaymanov, M.M.Ochilov, SH.F.Eshquvvatov. 5LP linterning arrali silindri bo'yicha izlanishlar. JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH IN TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY. Published: 01/12/2022 ISSN №2181-2209. Rr. 30-35.

УЎК 677.021.125.7

ПАХТА ТОЛАСИ ҲАРОРАТИ ЎЗГАРИШИНИ ИССИҚЛИК АГЕНТИ ТЕЗЛИГИГА БОҒЛИҚЛИГИНИНГ ТАДҚИҚОТИ

Р.И.Рўзметов, М.А Гаппарова, Т.О.Туйчиев
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Аннотация. Мақолада пахтани қуритиши учун берилган иссиқлик агентининг ҳарорати ва тезлигини қуритилаётган пахта толаси ҳароратига таъсирини ўрганиши бўйича олиб борилган тадқиқотларининг натижалари келтирилган. Тажриба учун тайёрланган қурилмага берилаётган пахтанинг намлигини инobatга олган ҳолда, уни қуритиши учун берилаётган ҳавонинг ҳарорати 120⁰С, 140⁰С, 160⁰С, 180⁰С ва тезлиги 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7,0 м/с бўлганида пахта толаси ҳароратини ўзгаришига таъсири ўрганилди. Тадқиқот ишлари пахтани тозалаши жараёнини самарали кечиши учун пахта толасининг ҳарорати 48÷50⁰С бўлиши тавсияси асосида олиб борилди. Қурилмага берилган 9,5% намликдаги пахтани 120⁰С ҳаво ҳароратида ва 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7 м/с тезлигида қуритилиши толанинг ҳарорати тавсия этилган 50⁰С ни сақлаб қолиши учун пахтани қуритишига ўз навбатида 36 секунд, 28 секунд, 26 секунд ва 18 секунд вақт сарфланди. Пахтани қуритишига берилаётган ҳавонинг ҳарорати ошиши билан тола ҳароратини ошиши юзага келиб, ҳароратнинг 180⁰С да ва ҳавонинг 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7,0 м/с тезлигида толанинг ҳарорати тавсия этилган 50⁰С ни сақлаб қолиши учун пахтани қуритишига ўз навбатида 17 секунд, 15 секунд, 12 секунд, 8 секунд вақт сарфланди.

Намлиги 11,3 % бўлган пахта 120⁰С ҳавонинг ҳароратида ва 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7 м/с ҳавонинг тезлигида қуритилиши толанинг ҳарорати тавсия этилган 50⁰С ни сақлаб қолиши учун ҳавонинг тезлиги 5,5 м/с ва 7,0 м/с бўлганида пахта 34 секунд ва 36 секунд вақт оралигида қуритилди. Ҳаво ҳарорати 120⁰С дан 180⁰С гача кўтарилганида пахта толаси ҳарорати ошиши кузатилиб, ҳарорат 180⁰С ва ҳаво тезлиги 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7,0 м/с да толанинг ҳарорати тавсия этилган 50⁰С дан ошмаслиги учун пахтани қуритишига 28 секунд, 23 секунд, 12 секунд ва 16 секунд вақт сарфланди. Ўтказилган тадқиқот ишларининг натижаси пахтани қуритишига берилаётган иссиқ ҳаво ҳароратининг ошиши ва тезлигининг кўтарилиши пахта толаси ҳароратини жадал суратларда ошишига олиб келишини кўрсатди.

Таянчли сўзлар: қуритгич, ҳарорат, тезлик, вақт, пахта, тола, намлик, ифлослик.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований влияния температуры и скорости теплоносителя, подаваемого для сушки хлопка, на

температуру высушиваемого хлопкового волокна. С учетом влажности хлопка, подаваемого в подготовленный к эксперименту машин, температура воздуха, подаваемого на сушку, составляла 120⁰С, 140⁰С, 160⁰С, 180⁰С, а скорость 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7,0 м/с. Изучено влияние скорости на изменение температуры хлопкового волокна. Исследовательская работа проводилась на основании рекомендации о том, что для эффективности процесса очистки хлопка температура хлопкового волокна должна составлять 48÷50 °С. При сушке хлопка влажностью 9,5%, подаваемого в сушилку, при температуре воздуха 120⁰С и скорости воздуха 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7 м/с для достижения температуры волокна рекомендуется значение 50⁰С, соответственно потрачено 36 секунд, 28 секунд, 26 секунд и 18 секунд. По мере повышения температуры воздуха, подаваемого на сушку хлопка, температура волокна увеличивается, при температуре 180⁰С и скорости 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7,0 м/с. на сушку хлопка ушло 17 секунд, 15 секунд, 12 секунд, 8 секунд до рекомендуемой температуры волокна 50⁰С.

Хлопок влажностью 11,3% процесс сушка при температуре воздуха 120⁰С и скорости движения воздуха 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7 м/с. для достижения рекомендуемой температуры волокна 50⁰С, при скоростях м/с и 7,0 м/с хлопок сушился за 34 секунды и 36 секунд соответственно. При повышении температуры воздуха от 120⁰С до 180⁰С наблюдается повышение температуры хлопкового волокна. При температуре 180⁰С и скоростях воздуха 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с, 7,0 м/с. для достижения рекомендуемого температуры волокна 50⁰С, потрачено 28 секунд, 23 секунды, 12 секунд и 16 секунд.

Результаты исследований показали, что увеличение температуры и скорости горячего воздуха, подаваемого на сушку хлопка, приводит к быстрому повышению температуры хлопкового волокна.

Ключевые слова: сушилка, температура, скорость, время, хлопок, волокно, влага, сорные примеси.

Annotation. The article presents the results of studies of the influence of the temperature and speed of the coolant supplied for drying cotton on the temperature of the dried cotton fiber. Taking into account the moisture content of the cotton supplied to the machine prepared for the experiment, the temperature of the air supplied for drying is 120⁰С, 140⁰С, 160⁰С, 180⁰С and 2.5 m/s, 4.0 m/s, 5.5 m/s, 7,0 m/s. The effect of speed on the change in temperature of cotton fiber has been studied. The research work was carried out on the basis of the recommendation that for the cotton cleaning process to be effective, the temperature of the cotton fiber should be 48÷50 °С. When drying cotton with a moisture content of 9.5% fed into the machine, at an air temperature of 120⁰С and an air speed of 2.5 m/s, 4.0 m/s, 5.5 m/s, 7 m/s to achieve fiber temperature the recommended value is 50⁰С, respectively, 36 seconds, 28 seconds, 26 seconds and 18 seconds were spent. As the temperature of the air supplied to dry cotton increases, the temperature of the fiber increases, at a temperature of 180⁰С and a speed of 2.5 m/s, 4.0 m/s, 5.5 m/s, 7.0 m/s. it took 17 seconds, 15 seconds, 12 seconds, 8 seconds to dry the cotton to the recommended fiber temperature of 50⁰С.

Cotton with a moisture content of 11.3% is a drying process at an air temperature of 120⁰С and an air speed of 2.5 m/s, 4.0 m/s, 5.5 m/s, 7 m/s. to achieve the recommended fiber temperature of 50⁰С, at speeds m/s and 7.0 m/s, cotton was dried in 34 seconds and 36 seconds, respectively. When the air temperature increases from 120⁰С to 180⁰С, an increase in the temperature of cotton fiber is observed. At a temperature of 180⁰С and air speeds of 2.5 m/s, 4.0 m/s, 5.5 m/s, 7.0 m/s. to achieve the recommended fiber temperature of 50⁰С, 28 seconds, 23 seconds, 12 seconds and 16 seconds were spent. Research results have shown that increasing the temperature and speed of hot air supplied to dry cotton leads to a rapid increase in the temperature of the cotton fiber.

Key words: dryer, temperature, speed, time, cotton, fiber, moisture, impurities.


Кириш. Пахта тозалаш корхоналарида пахтага дастлабки ишлов беришдан ишлаб чиқарилган асосий махсулот бўлган пахта толасининг сифатига тола таркибидаги нуқсондор тола ва ифлос аралашмаларнинг массавий улуши таъсир этса, ишлаб чиқарилган тола миқдорининг ўзгаришига, технологияда пахта ва толани тозалаш жараёнида чиқиндига пахта ва толанинг ажралиш миқдори таъсир этади [1]. Пахта ва толани ифлос аралашмалардан тозаланиш даражаси асосан ифлос аралашмаларнинг пахта ва толага ёпишқоқлик даражаси билан белгиланади [2]. Бугунги кунда етиштирилаётган пахталарнинг ўртача 75 % қийин тозаланувчан селекцион навли пахталар бўлиб, ушбу пахталардаги майда ифлосликларни пахтага ёпишқоқлик даражаси юқори бўлганлиги учун пахта тозалаш корхоналарда ишлатилаётган мавжуд техника ва технологияда пахта ва толадан керакли миқдорда майда ифлосликларни ажратиш имконияти йўқ [3, 4]. Пахта ва тола таркибидан майда ифлосликларнинг керагидан ортиқ сақланиб қолиши, ишлаб чиқарилган тола сифатини пасайтирмақда.

Пахтага дастлабки ишлов беришда пахтанинг бошланғич намлигини ва ифлослигини инобатга олган ҳолда пахта қурилади. Бунда пахта ва толани тозалашда таркибидан йирик ва асосан майда ифлосликларни ажралишини жадаллашиши, ускуналарни иш унумдорлигини ва тозалаш самарадорлигини ўзгариши билан чиқиндига пахта ва тола миқдори ажралишини кескин камайтирилиши, пахта ва толанинг намлиги, пахта ва толага берилаётган иссиқлик агентининг миқдори ва тезлиги билан узвий боғлиқдир [5]. Махаллий пахта тозалаш корхоналарида пахтани қуриши жараёнида пахта таркибидан намликни ажратиш билан қурилган пахта толаси таркибидаги намликни кондицион ҳолатга келтирилади. Лекин пахтани қуришида қуриши жараёнидан кейинги пахтани тозалаш жараёнида тозалаш самарадорлигига ва тола сифатига таъсир этувчи асосий кўрсаткич бўлган пахтани қиздирилишида тола ҳароратини оширишга қаратилмаган [6]. Маълумки, пахтани қуриши жараёнида толанинг олган ҳарорати уни тозалаш жараёнигача пасайиб бориб, ўртача 25-30⁰С дан ошмайди [7]. Тола таркибидан ифлосликлар ажралишининг жадаллашиши толанинг бикрлик коэффициенти билан тўғри пропорционал бўлиб, толанинг ҳарорати ошган сари бикрлик коэффициенти ҳам ошиб боради [8].

Тажрибавий изланишлар. Пахтани қуриши учун берилган иссиқлик агенти ҳарорати ва тезлигини қуриладиётган пахта толаси ҳароратига таъсирини ўрганиш учун Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институт “Табиий толаларни дастлабки ишлаш технологияси” кафедрасидаги кичик пахта тозалаш корхонасида тажрибалар ўтказилди. Республикамизда пахтани машина ёрдамида териб олиниш хажми йилдан-йилга кенгайтирилиб борилаётганлиги ва машина ёрдамида терилган пахтани қуришида қуриши жараёни қай ҳолатда ўзгаришини ўрганиш учун тажриба ишлари машинада терилган бошланғич намлиги 9,5 % ва 11,3 %, ифлослиги 3,4 ва 4,1 % бўлган С-6524 селекцияли пахтанинг I нав 2-синфида ўтказилди [9, 10]. Тажриба ишлари пахтани қуриши учун берилаётган ҳавонинг 2,5 м/с, 4,0 м/с, 5,5 м/с ва 7,0 м/с тезликларида, ҳавонинг 120, 140, 160 ва 180 °С ҳароратларида ҳамда 10, 20, 30 ва 40 секунд қуриши вақтларида ўтказилди. Тажрибалар ўтказишда пахтани майда ифлосликлардан тозалаш учун ЛКМ приборининг биринчи секциясидан фойдаланилди. Қурилмада пахтанинг бўлиш давомийлигини вақт релеси кўрсаткичига қараб, керакли сонияда майда ифлосликлардан тозалаш бўлинмасидан йирик ифлосликлардан тозалаш бўлинмасига ўтиш қопқоғи очилди ва пахта полиэтилен қопага жойлаштирилиб, унинг ҳарорати аниқлик даражаси 0,01 °С бўлган контактли термо-ўлчагич ёрдамида аниқланди.

Керакли миқдордаги ҳаво тезлиги СХЛ-3 қурилмаси вентиляторининг заслонкаси орқали бошқарилиб, таъминланди. Ҳаво тезлиги ЛКМ қурилмасига СХЛ-3 қурилмасидан иссиқлик агентини узатувчи қувурининг кириш қисмидан чиқаётган ҳавонинг тезлигини 30 м/с гача ўлчайдиган косачали анемометр ёрдамида аниқланди. ЛКМ қурилмасига керакли ҳароратдаги ҳавони узатиш учун СХЛ-3 қурилмасига қўшимча автомат

ўрнатилиб, қувурли иссиқлик ишлаб чиқаргичларни қуввати оширилди. Бунда ҳавонинг ҳарорати симобли термоўлчагич ёрдамида аниқланди.




1, 2, 3, 4 - ўз навбатида 120, 140, 160, 180°C 1- расм. Тола ҳарорати ўзгаришини пахтани қуритилиш вақтига боғлиқлиги (С- 6524 селекцияли, 1 нав 2-синф, намлиги 9,5 %, ҳавонинг тезлиги 2,5 м/с)

Ҳар бир тажриба учун O'z DSt 643:2016 давлат стандартида келтирилган услубият асосида 300 гр. пахта намунаси олинди [11]. Олинган намуна ЛКМ қурилмасини пахтани қабул қилиш қисмига берилди, сўнгра иссиқлик узатилиб, реле вақт кўрсаткичида қайд этилди. Натижаларни аниқлик даражаси юқори бўлиши учун тажрибалар 5 марта такрорланди ва ўрта қийматлари олинди.

Натижалар таҳлили. Қурилмага берилган намлиги 9,5 % бўлган пахтани қуритиш учун берилган иссиқ ҳавонинг тезлиги 2,5 м/с, ҳарорати 120°C ни ташкил этди. Бунда пахта 10 секунд қуритилгандан сўнг толасининг ҳарорати 34°C ни ташкил этди (1-расм). Ушбу намликдаги пахта 20 секунд қуритилгандан сўнг тола ҳарорати 39°C ни, 30 секунд қуритилгандан сўнг 43°C ни ва 40 секунд қуритилгандан сўнг 45°C ни ташкил этди. Пахтани қуритиш учун берилган ҳавонинг ҳарорати 140°C бўлганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилганда, толанинг ҳарорати ўз навбатида 37°C, 43°C, 47°C ва 50°C гача кўтарилди. Ҳавонинг ҳарорати 160°C бўлганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилганда, толанинг ҳарорати ўз навбатида 41°C, 49°C, 53°C ва 56°C гача кўтарилган бўлса, ҳарорат 180°C га кўтарилганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилганда, толанинг ҳарорати ўз навбатида 45°C, 53°C, 58°C ва 61°C гача кўтарилди (1- расм).

Намлиги 11,3 % бўлган пахта ҳавонинг тезлиги 2,5 м/с, ҳарорати 120°C бўлган иссиқлик агентиди 10 секунд давомида қуритилгандан сўнг пахта толасининг ҳарорати 31°C ни ташкил этди [12]. Ушбу намликдаги пахтанинг ҳарорати 20 секундга кўтарилганда пахта толасининг ҳарорати 36°C га, 30 секундга кўтарилганда 40°C га ва 40 секундга кўтарилганда 42°C га тенг бўлди (2-расм). Ҳавонинг тезлиги ўзгартирилмаган ҳолда унинг ҳароратини 140°C га кўтариб, пахта 10 секунд давомида қуритилгандан сўнг пахта толасининг ҳарорати ўртача 33°C га, 20 секунддан сўнг 38°C га, 30 секунддан сўнг 43°C га ва 40 секунддан сўнг 46°C га тенг бўлиб, пахтани 10 секунддан 40 секунд вақт




1, 2, 3, 4 - ўз навбатида 120, 140, 160, 180°C 2- расм. Тола ҳароратини ўзгаришини пахтани қуритилиш вақтига боғлиқлиги (С- 6524 селекцияли, 1 нав 2- синф, намлиги 11,3 %, ҳавонинг тезлиги 2,5 м/с)

оралиғида куритилишида пахта толасининг ҳарорати ўртача 20⁰С гача кўтарилди. Ҳавонинг ҳароратини 160⁰С га кўтариб, пахта 10 секунд, 20 секунд, 30 секунд ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати аниқланганда ўз навбатида 35⁰С, 42⁰С, 47⁰С ва 51⁰С гача кўтарилганлиги ўрганилди. Ҳавонинг ҳарорати 180⁰С бўлганда ва пахта 10 секунд, 20 секунд, 30 секунд ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг эса толанинг ҳарорати ўз навбатида 39⁰С, 46⁰С, 51⁰С ва 55⁰С гача кўтарилди.

Ҳавонинг тезлиги 4 м/с, ҳарорати 120⁰С бўлган иссиқлик агентидан намлиги 9,5 % бўлган пахта 10 секунд вақт давомида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўртача 34⁰С ни ташкил этган бўлса, пахта 20, 30 ва 40 секунд куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 38⁰С, 42⁰С ва 46⁰С ни ташкил этмоқда. Пахтани куритиш учун 140⁰С миқдорида ҳаво ҳарорати берилиб, пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 38⁰С, 43⁰С, 47⁰С ва 49⁰С гача кўтарилиши кузатилди. Пахтани куритиш учун берилган ҳавонинг ҳарорати 160⁰С ва 180⁰С ни ташкил этганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 45; 50; 54; 56 ва 46; 54; 60; 64⁰С ларгача кўтарилиши ўрганилди. Ҳавонинг тезлиги 4 м/с, ҳарорати 120⁰С бўлган иссиқлик агентидан намлиги 11,3 % бўлган пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт давомида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида ўртача 33⁰С ни ташкил этган бўлса, пахта 20, 30 ва 40 секунд куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 36⁰С, 40⁰С ва 44⁰С ни ташкил этмоқда. Пахтани куритиш учун 140⁰С миқдорида ҳаво ҳарорати берилиб, пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 36⁰С, 41⁰С, 45⁰С ва 48⁰С гача кўтарилди. Пахтани куритиш учун берилган ҳавонинг ҳарорати 160⁰С га кўтарилганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 38, 44, 49 ва 53⁰С ларгача кўтарилган бўлса, ҳавонинг ҳарорати 180⁰С ни ташкил этганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 39, 47, 54 ва 61⁰С ларгача кўтарилиши аниқланди.

Ҳавонинг тезлиги 5,5 м/с, ҳарорати 120⁰С бўлган иссиқлик агентидан намлиги 9,5 % бўлган пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 36⁰С, 41⁰С, 46⁰С ва 50⁰С ни ташкил этган бўлса, ҳарорат 140⁰С га кўтарилганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 39⁰С, 45⁰С, 50⁰С ва 54⁰С гача кўтарилди. Ҳавонинг ҳарорати 160⁰С ва 180⁰С ни ташкил этганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 43; 51; 54; 60 ва 48; 55; 60; 65⁰С ларгача кўтарилди. Бу кўрсаткичлар ҳавонинг тезлиги 5,5 м/с, ҳарорати 120⁰С бўлган иссиқлик агентидан намлиги 11,3 %


бўлган пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт давомида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида ўртача 34⁰С, 38⁰С, 44⁰С ва 46⁰С ни ташкил этган бўлса, 140⁰С ҳавонинг ҳароратида пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида куритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 36⁰С, 42⁰С, 47⁰С ва 49⁰С гача кўтарилди. Пахтани куритиш учун берилган ҳавонинг ҳарорати 160⁰С га кўтарилганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт



1, 2, 3, 4 - ўз навбатида 120, 140, 160, 180⁰С
 3- расм. Тола ҳароратининг ўзгаришини пахтани куритилиш вақтига боғлиқлиги (С- 6524 селекцияли, 1 нав 2- синф, намлиги 9,5 %, ҳавонинг тезлиги 7,0 м/с)

оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 40⁰С, 46⁰С, 51⁰С ва 55⁰С ларгача кўтарилган бўлса, ҳавонинг ҳарорати 180⁰С ни ташкил этганда ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 42⁰С, 50⁰С, 55⁰С ва 60⁰С ларгача кўтарилиши аниқланди. Пахтани қуритиш учун берилган иссиқ ҳавонинг тезлиги 5,5 м/с дан 7 м/с гача оширилганда ва намлиги 9,5 % бўлган пахта 120⁰С ҳароратда 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати 38⁰С, 44⁰С, 49⁰С ва 53⁰С гача кўтарилди (3- расм). Ҳароратнинг ошиши билан тола ҳароратининг ошиши ҳам юзага келди ва ҳарорат 140⁰С га кўтарилганда ҳамда пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 41⁰С, 48⁰С, 53⁰С ва 58⁰С гача кўтарилди. Пахта 160⁰С ҳароратда 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 46⁰С, 53⁰С, 58⁰С, 64⁰С бўлган бўлса, 180⁰С ҳароратга кўтарилганда ҳамда пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 51⁰С, 58⁰С, 63⁰С ва 68⁰С гача кўтарилганини 3-расмдаги графикдан кўриш мумкин.

Намлиги 11,3 % бўлган пахтани 7 м/с тезлик ва 120⁰С ҳарорат билан 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 37⁰С, 42⁰С, 47⁰С, 51⁰С гача, 140⁰С ҳарорат билан пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати 40⁰С, 46⁰С, 51⁰С ва 55⁰С гача кўтарилди. Ҳавонинг ҳарорати 160⁰С бўлганда пахтани 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 44⁰С, 50⁰С, 55⁰С ва 60⁰С га кўтарилган бўлса, ҳароратни 180⁰С га кўтарилишида ва пахта 10, 20, 30 ва 40 секунд вақт оралиғида қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати ўз навбатида 46⁰С, 53⁰С, 59⁰С ва 65⁰С гача ошди (4- расм). Пахтани тозалаш технологик жараёнининг самарали кечиши учун пахта толасини ҳарорати 48÷50 °С бўлиши тавсия этилган [13, 14, 15]. Бунга асосан 9,5 % намликдаги пахта 160⁰С ҳароратда ва 2,5 м/с тезликда 25 секунд мобайнида қуритилганда пахта толасининг ҳарорати 50⁰С гача кўтарилмоқда. Ҳаво ҳарорати 180⁰С, тезлиги 2,5 м/с бўлганда толанинг ҳароратини 48÷50 °С га кўтариш учун 17 секунд вақт сарфланмоқда. Намлиги 11,3 % бўлган пахтани қуритишдан сўнг толанинг ҳарорати 48÷50⁰С бўлиши учун пахта 2,5 м/с тезликда ва 160⁰С ҳаво ҳароратида 22 секунд вақт оралиғида қуритилиши кераклигини гистограммадан кўриш мумкин. Намлиги 9,5 % бўлган пахтани ҳавонинг ҳарорати 140⁰С, тезлиги 4,0 м/с да қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати 40 секунд вақт оралиғида 48÷50 °С гача кўтарилган бўлса, пахтани қуритишга берилган иссиқ ҳавонинг тезлиги 5,5 м/с га оширилганда толанинг ҳароратини 48÷50 °С га кўтариш учун 37 секунд вақт сарфланмоқда.



1, 2, 3, 4 - ўз навбатида 120, 140, 160, 180⁰С

4- расм. Тола ҳароратининг ўзгаришини пахтани қуритилиш вақтига боғлиқлиги (С- 6524 селекцияли, 1 нав 2- синф, намлиги 11,3 %, ҳавонинг тезлиги 7,0 м/с)

Бу кўрсаткич ҳавонинг ҳарорати 160°C, тезлиги 4,0 м/с бўлган иссиқлик агентиди пахта қуритилгандан сўнг толанинг ҳароратини 48÷50°C га кўтариш учун 20 секунд вақт сарфланган бўлса, ҳавони тезлиги 5,5 м/с га оширилганда толанинг ҳароратини 48÷50°C га кўтариш учун 17 секунд вақт сарфланмоқда. Ҳавонинг ҳарорати 180°C, тезлиги 4 м/с да пахта қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати 50°C га кўтариш учун 15 секунд вақт сарфланган бўлса, ушбу ҳавонинг ҳароратида тезлиги 5,5 м/с гача оширилганда толанинг ҳароратини 48÷50°C га кўтариш учун 12 секунд вақт сарфлангани ўрганилди. Намлиги 11,3 % бўлган пахта толасининг ҳарорати 48÷50°C бўлиши учун пахта 2,5 м/с тезлик ва 160°C ҳаво ҳароратида қуритилишида 37 секунд вақт сарфланган бўлса, ушбу ҳавонинг ҳароратида тезлиги 4,0 м/с бўлганда толанинг ҳароратини 50°C гача кўтариш учун 32 секунд сарфланди. Ҳавонинг ҳарорати 180°C, тезлиги 2,5 м/с да пахта қуритилганда, толанинг ҳарорати 48÷50 °C га кўтарилиши учун 28 секунд вақт сарфланган бўлса, ҳавонинг тезлиги 4,0 м/с бўлганда толанинг ҳароратини 48÷50°C га кўтариш учун 23 секунд вақт сарфланмоқда. Намлиги 9,5 % бўлган пахтани қуритиш учун берилаётган иссиқ ҳавонинг тезлиги 5,5 м/с дан 7,0 м/с гача оширилганда ва ҳавонинг ҳарорати 120°C бўлганда пахта толасининг ҳарорати 48÷50°C га кўтарилиши учун 32 секунд вақт сарфланган бўлса, ҳавонинг ҳарорати 180°C бўлганда толанинг ҳароратини 50°C гача кўтариш учун 8 секунд вақт сарфланди. Бу кўрсаткичлар намлиги 11,3 % бўлган пахтани 7,0 м/с тезликдаги 120°C иссиқ ҳавода қуритилгандан сўнг толанинг ҳарорати 50°C га кўтариш учун 36 секунд сарфланган бўлса, ҳавонинг ҳарорати 140°C бўлганда 28 секунд, ҳарорат 160°C бўлганда 25 секунд ва 180°C бўлганда 16 секунд вақт сарфланди (4-расм).

Хулоса. Ўтказилган тадқиқот ишларининг натижаси пахтани қуритишга берилаётган иссиқ ҳаво ҳароратининг ошиши ва тезлигининг кўтарилиши пахта толаси ҳароратини жадал суратларда ошишига олиб келишини кўрсатди. Пахта толаси ҳароратининг ошиши эса, пахтага дастлабки ишлов беришда пахта ва толани тозалаш технологик тизимда қўл ва машина билан терилган пахта ва унинг толасидаги майда ифлосликларни ёпишқоқлик даражасини кескин камайтириб, уларни ажралишини жадаллаштиради ва самарали тозалаш технологиясини амалга оширади.

Reference

1. T.M.Quliev, R.I.Ro'zmetov, T.O.Tuychiev. Mahalliy quritish barabanlarning samaradorligi bo'yicha izlanishlar // FarPI ilmiy-texnika jurnali – 2023, Maxsus son №10, b. 36-40.
2. Sulaymonov R.SH., Karimov U.K., Marufxanov B.X., Umarxodjayev D.X. Povisheniya effektivnosti ochistki volokna trudnoochishayemix seleksiy // Problemi mexaniki. Tashkent, 2017.-№1.-S.-80-82.
3. Paxtani dastlabki ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi, PDI 70-2017. Toshkent, "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, 2017.- 91 b.
4. Madumarov I., Ruzmetov, R., Tuychiev, T., & Ismoilov, A. (2022). Experimental results of an improved supplier in the production process and transportation. Transportation Research Procedia, 63, 2998-3004.
5. Ruzmetov R.I., Madumarov I.D., Gapparova M.A., Tuychiev T.O. Changing the Cotton Fiber Temperature// International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-9 Issue-3, February, 2020 – P.974-977.
6. Ruzmetov R.I. Paxta xomashyosiga ishlov berishda tola temperaturasini o'zgarishi // "Paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Termiz sh., TerMTI, 2023-yil 20-21 oktabr, 77-79 b.
7. Ruzmetov R.I., Madumarov I.D., Gapparova M.A., Tuychiev T.O. Changing the Cotton Fiber Temperature// International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-9 Issue-3, February, 2020 – P.974-977.

8. Madumarov I.D. Tuychiev T.O., Mardonov B.M. Ruzmetov R.I. Movement of the trash inside of fiber material when available elastic force of clutch. Engineering, 10, USA, - P.579-587.

9. Sulaymonov R.SH., Marufxanov B.X., Umarxodjayev D.X., Karimov U.K. Mashinada terilgan qiyin tozalanuvchan seleksion navli paxta tolasini tozalash. "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari. To'qimachi-2017". Respublika ilmiy – amaliy anjumani maqolalar to'plami. I-qism, I-sho'ba. Toshkent, TTESI.16-17 may, 2017. -11-13 b.

10. Davlat standarti O'z DSt 592:2008. "Paxta. Ifloslikni aniqlash usullari". O'zbekiston stvndvrtlvshirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi.

11. Davlat standarti O'z DSt 643:2016. "Paxta. Namuna olish usullari". O'zbekiston stvndvrtlvshirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi. Toshkent, 2016.

12. Davlat standarti O'z DSt 644:2006. "Paxta. Namlikni aniqlash usullari". O'zbekiston stvndvrtlvshirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi. Toshkent.

13. Madumarov I.D. Paxtani issiqlik-namlik holatini muqobillashtirish va bir tekis ta'minlash asosida tozalash jarayonining samaradorligini oshirish // tex.fan.dok. diss... (DSc) T., 2019.

14. Parpiev A. et al. Law of cotton mass movement in drying drum sections //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2700. – №. 1.

15. Berdanov E., Parpiev A., Tuychiev T. To study the effect of cotton heat on cleaning efficiency //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 5. – C. 712-717.

UDK 677.021.152.8

ARRALI SILINDR TEBRANISHINI ARRALAR SAMARADORLIGIGA VA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLAR SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH

R.SH. Sulaymonov¹, M.M. Ochilov², SH.F. Eshquvvatov³, N.Xashimova²

"Cotton Industry Scientific Center" JSC¹, Tashkent Institute of Textile and Light Industry², Gulistan State University³

Annotatsiya. Mahalliy 5LP linterlardagi silindr tebranishini arralarning samaradorligiga, ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatiga va linterning ish unumdorligiga ta'sirini o'rganish uchun Sirdaryo viloyatining Baxt paxta tozalash korxonasida Sulton seleksiyali I nav 2-sinfl texnik chigitda tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda PDI 89-2018 meyor bo'yicha linterda arralarni 12 soatdan 72 soatgacha ishlatilishida linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 734 kg/soatdan 386 kg/soatga, momiq bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 30,4 kg/soatdan 16,3 kg/soatga kamaydi. Chigitni linterlashda yangi arralarni 12 soatdan 72 soatgacha ishlatilishida arra tishlarining tez o'tmaslanishi hisobiga ishlab chiqarilgan momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi arralarni 12 soatdan 72 soatgacha ishlatilishida o'rtacha 1,84 (abs)% ga yuqori bo'lib, momiq sifatini kamayganligi aniqlandi. Linterdan ishlab chiqarilgan chigitlarning shikastlanish darajasi o'rganilganda, arralarni 12 soatdan 72 soatgacha ishlatilishida o'rtacha 1,79 (abs)% ga oshib, chigit sifati pasaydi. Chigitni linterlashda arrali silindrning 730 ayl/minda aylanishida yuzaga kelgan yuqori tebranish oqibatida silindrdagi 160 dona arralardan 20,0 % arra kolosniklar o'rtasidan o'tmasdan kolosniklar ustki ishchi qismiga tegib ishlashi aniqlandi. Arralarni 12 soatdan 72 soatgacha ishlatilishida, ularni kolosniklar yon tomoniga tegib ishlashidan arra tishlarini balandligi 1,12 mm ga kamayib, tish balandligining kamayishi va o'tmaslanishi hisobga chigit sirtidan momiqni qirib olish miqdori keskin pasaydi. Natijada linterni chigit va momiq bo'yicha

ish unumdorligini kamayishi bilan birga, chigitni ishchi kamerada keragidan ortiq bo'lishi yuzaga kelib, chigit shikastlanish darajasini oshishiga olib keldi.

Arralarni kolosniklar ishchi qismining yon tomoniga tegib ishlashidan ularni 12 soatdan 72 soat vaqt mobaynida ishlatilishida, kolosniklar yon tomonini yemirilish chuqurligi 1,204 mm ni tashkil etib, kolosniklarni yaroqsiz holatga keltirilganligi o'rganildi.

5LP linter arrali silindri tebranishini kamaytirish bilan silindrdagi val mustaxkamligini oshirish, import qilinayotgan arra va kolosniklar ishlash muddatini uzaytirish bilan ular sarfini tejash, linter ish unumdorligini oshirish bilan chigit va momiq sifatini yaxshilash maqsadida linter arrali silindrlari uchun quvursimon konstruksiyali yengillashtirilgan valning sxemasi ishlab chiqildi.

Tayanch so'zlar: Linter, ishchi kamera, arrali silindr, arra, kolosnik, val, chigit, momiq, tukdorlik, shikastlanish, ifloslik, ish unumdorlik, sifat.

Аннотация. С целью изучения влияния вибрации цилиндров в местных линтерах 5ЛП на эффективность работы пил, качество выпускаемой продукции и производительность линтера были проведены исследования на технических семенах селекции Султан II сорта 2 –го класса на Бахтском хлопкозаводе Сырдаринской области. При этом, согласно ПДИ 89-2018, при использовании пил в линтере от 12 до 72 часов производительность линтера по семенам снизилась в среднем с 734 кг/час до 386 кг/час, а производительность линта снизилась в среднем от 30,4 кг/ч до 16,3 кг/ч. Установлено, что через 12-72 часа использования новых пил при линтерования семян массовая доля сорных примесей и целых семян в линте, образуемом за счет быстрого износа зубьев пилы, увеличивается в среднем на 1,84 (абс)% и снижается качество линта. При изучении степени поврежденности семян, полученных из линтера, качество семян снизилось в среднем на 1,79 (абс)% в период работы пил от 12 до 72 часов. Установлено, что из 160 пил в цилиндре 20,0% задевали верхнюю рабочую часть колосников, не проходя между колосниками из-за высокой вибрации, вызванной вращением пилного цилиндра со скоростью 730 об/мин. При эксплуатации пил от 12 до 72 часов высота зубьев пилы уменьшилась на 1,12 мм за счет касания ими боковой части колосников, а также уменьшилось количество соскабливания пуха с поверхности семени за счет износа рабочей кромки. В результате, с снижением эффективности работы линтера по линту и семенам образовалось время нахождения семян в рабочей камере, что привело к повышению степени поврежденности семян.

Изучено, непригодности колосников при глубина износа боковых поверхности их в размере 1,204 мм при касании зубьев пил при работе пил от 12 до 72 часов.

Разработана схема трубчатого вала облегченной конструкции для пилного цилиндра линтера 5ЛП с целью увеличения надежности вала, снижение вибрации пилного цилиндра, экономии расхода импортных пил и колосников с увеличением срок их службы, повышения производительности линтера с улучшением качества линта и семян.

Ключевые слова: Линтер, рабочая камера, пилный цилиндр, пила, колосник, вал, семена, линт, опушенность, поврежденность, засоренность, производительность, качество.

Annotation. In order to study the influence of vibration of cylinders in local linters 5LP on the efficiency of saws, the quality of products and the productivity of the linter, studies were carried out on technical seeds of the Sultan selection of the 1st grade, 2nd class at the Bakht cotton plant in the Syrdarya region. At the same time, according to PDI 89-2018, when using saws in a linter from 12 to 72 hours, the productivity of the linter for seeds decreased on average from 734 kg/hour to 386 kg/hour, and the productivity of the linter decreased on average from 30.4 kg/h up to 16.3 kg/h. It was found that after 12-72 hours of using new saws when linting seeds, the mass fraction of weeds and whole seeds in the linter, formed due to rapid wear of the saw teeth, increases by an average of 1.84 (abs)% and the quality of the linter decreases. When studying the degree of damage to seeds obtained from the linter, the quality of the seeds

decreased by an average of 1.79 (abs)% during the saw operation period from 12 to 72 hours. It was found that out of 160 saws in the cylinder, 20.0% touched the upper working part of the grate without passing between the grate due to high vibration caused by the rotation of the saw cylinder at a speed of 730 rpm. When saws were operated for 12 to 72 hours, the height of the saw teeth decreased by 1.12 mm due to their touching the side of the grate, and the amount of fluff scraped off from the surface of the seed decreased due to wear of the working edge. As a result, with a decrease in the efficiency of the linter and seeds, the time spent by the seeds in the working chamber was formed, which led to an increase in the degree of damage to the seeds.

The unsuitability of grate bars has been studied when the wear depth of their side surfaces is 1,204 mm when the saw teeth touch when the saws operate for 12 to 72 hours.

A light-duty tubular shaft design has been developed for the saw cylinder of the 5LP linter in order to increase the reliability of the shaft, reduce the vibration of the saw cylinder, save the consumption of imported saws and grates with an increase in their service life, increase the productivity of the linter with improved quality of the lint and seeds.

Key words: Linter, working chamber, saw cylinder, saw, grate, shaft, seeds, lint, hairiness, damage, clogging, productivity, quality.

Kirish. Paxtaga dastlabki ishlov berishda korxonaning ish unumdorligi, iqtisodiyoti va rentabelligi, korxonadagi linter xo'jaligi va unda ishlatilayotgan linterlarning samaradorligi, ishlab chiqarilgan chigit va momiqning sifat hamda miqdor ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq [1]. Linterning samaradorligi linterdagi asosiy ishchi qism bo'lgan arrali silindr va undagi arralarning samarali ishlashi bilan bog'liq. Ma'lumki, paxta tozalash korxonalarida ishlatilayotgan 5LP linterdagi diametri 100 mm valga ega bo'lgan arrali silindrining og'irligi 212,6 kg bo'lib, 18,5 kVt quvvatli elektrodvigateldan aylanma xarakterat oladi [2]. Bunda arrali silindrning aylanish tezligi 730 ayl/min ga teng bo'lib, katta og'irlikdagi silindrning bunday tezlikda aylanishida yuqori tebranish yuzaga keladi. Tebranishning yuqoriligi silindrdagi arralarni kolosniklarga tegib ishlashini yuzaga keltirib, arra tishlarini tez yeyilib, o'tmaslanishiga sabab bo'lmoqda. Natijada linter ish unumdorligi kamayib, mahsulotlar sifati pasayishidan arralarni muddatidan oldin almashtirishga to'g'ri kelmoqda [3, 4].

5LP linterning texnik xarakteristikasiga asosan arralar tashqi diametri bo'yicha 320 mm dan 290 mm gacha ishlatiladi, "Arrali jin va linterlar uchun arra, kolosnik va arralar oraliq qistirmalarini sariflanish meyorlari" (PDI 89-2018) bo'yicha esa ushbu tashqi diametr diapazonidagi arralar har 48 soatda charxlanib, linterlarda ikki marta ishlatilgandan so'ng ularga qayta tish chiqariladi [5, 6].

Silindr tebranishini arraning samaradorligiga, ishlab chiqarilgan chigit va momiqning sifatiga ta'sirini o'rganish uchun Sirdaryo viloyatining Baxt paxta tozalash korxonasidagi 5LP linterida tadqiqot ishlari olib borildi [7]. Bunda linterdagi arrali silindrda 160 dona arra bo'lib, arralarning tashqi diametri 320 mm ga va tishlar soni 330 donaga teng. Tadqiqot ishlari namligi 9,2 %, tukdorligi 10,3 %, shikastlanishi 3,0 % bo'lgan jindan keyingi Sul-ton seleksiyali I nav 2-sinflni texnik chigitda o'tkazildi [8]. Tadqiqot ishlarini boshlashdan avval linter uskunasi texnik xarakteristikasiga mos ravishda sozlandi.

(PDI 89-2018) meyor bo'yicha arralar ishlash vaqtini linter samaradorligiga, ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatiga ta'siri ularni 72 soat vaqt oralig'ida ishlatib, o'rganilganligini inobatga olib, tadqiqot ishlari davrida arralar linterda 72 soat ishlatildi va har 12 soat vaqt oralig'ida arralarni linter ish unumdorligiga, ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatiga ta'siri o'rganildi [9]. Bunda linterdan ishlab chiqarilgan chigit va momiqdan namunalar olinib, korxonada laboratoriyasida taxlil qilindi. Sinov ishlari davrida linter uskunasini to'xtab turish vaqtlari hisobga olib borildi. Tadqiqot ishlari davrida linterning chigit va momiq bo'yicha ish unumdorligi xronometraj usulida aniqlandi [10]. Bunda har 3 minut vaqt oralig'ida linter ishchi kamerasidan chiqayotgan chigitlar yig'ib olindi va press sexidagi elektron tarozida tortildi. Momiq bo'yicha ish unumdorligini aniqlash uchun esa texnologiyadagi qolgan linterlar

vaqtincha to'xtatilib, tajriba uchun ajratilgan linterning ishlatilishidan har 3 minut vaqt oralig'ida press yashigiga tushayotgan momiq yig'ilib tortildi. Natijalari aniq bo'lishi uchun tajribalar 7 marta takrorlanib, natijaning o'rtacha qiymati olindi. Olingan natija soat bo'yicha hisoblanib, 5LP linterning chigit va momiq bo'yicha ish unumdorligi aniqlandi [11].

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan tadqiqot ishlarining natijasi 1-3 rasmlarda keltirilgan. 5LP linterda arralarni 12 soat davomida ishlashda linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 734 kg/soatni tashkil etdi. Arralar ishlash davrining oshishi bilan ish unumdorlikning kamayishi yuzaga keldi va arralarni 72 soat ishlashida linterning chigit bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 386 kg/soatga teng bo'ldi. Chigitni linterlashda linterning momiq bo'yicha ish unumdorligi o'rganilganda, arralarni 12 soat davomida ishlatilishida o'rtacha 30,4 kg/soatga teng bo'lib, arralar ishlash davrining oshishi bilan momiq bo'yicha ish unumdorlikning kamayishi kuzatildi va arralarni 72 soat mobaynida ishlatilishida linterning momiq bo'yicha ish unumdorligi o'rtacha 16,3 kg/soatni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarni boshlang'ich ish unumdorlikka nisbatan foiz kattaligida ko'radigan bo'lsak, chigit bo'yicha ish unumdorlik o'z navbatida arralarni 24 soat ishlashida o'rtacha 5,5 % ga, 36 soat ishlashida 14,0 % ga, 48 soat ishlashida 23,7 % ga, 60 soat ishlashida 35,3 % ga, 72 soat ishlashida 48 % ga kamaygan. Momiq bo'yicha ish unumdorlik boshlang'ich ish unumdorlikka nisbatan o'z navbatida arralarni 24 soat ishlashida o'rtacha 7,2 % ga, 36 soat ishlashida 20,7 % ga, 48 soat ishlashida 25,3 % ga, 60 soat ishlashida 36,2 % ga, 72 soat ishlashida 46,4 % ga kamaygan (1- rasm).

Chigitni linterlashda yangi arralarni 12 soatdan 72 soatgacha ishlatilishida arra tishlarining tez o'tmaslanishi hisobiga ishlab chiqarilgan momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi oshganligi o'rganildi [12]. Bunda arralarni 24 soat davomida ishlashida ularni 12 soat ishlashiga qaraganda o'rtacha 0,26 (abs)% ga, 36 soat ishlashida 0,61 (abs)% ga, 48 soat ishlashida 0,99 (abs)% ga, 60 soat ishlashida 1,4 (abs)% ga, 72 soat ishlashida 1,84 (abs)% ga yuqori bo'lib, momiq sifatini kamayganligi aniqlandi (2-rasm). Bunda linterdan ishlab chiqarilgan chigitlarning tukdorlik darajasi arralarni 24 soat ishlashida ularni 12 soat ishlaganiga qaraganda o'rtacha 0,2 (abs)% ga, 36 soat ishlashida 0,5 (abs)% ga, 48 soat ishlashida 0,8 (abs)% ga, 60 soat ishlashida 1,2 (abs)% ga, 72 soat ishlashida 1,7 (abs)% ga yuqori bo'ldi [13].


Linterdan ishlab chiqarilgan chigitlarni shikastlanish darajasi o'rganilganda, arralarni 24 soat ishlashida ularni 12 soat ishlaganiga qaraganida o'rtacha 0,21 (abs)% ga, 36 soat ishlashida 0,54 (abs)% ga, 48 soat ishlashida 0,92 (abs)% ga, 60 soat ishlashida 1,33 (abs)% ga, 72 soat ishlashida 1,79 (abs)% ga oshib, chigit sifati pasaydi [14].

Tadqiqot ishlari davrida texnik chigitni linterlashda arrali silindrning 730 ayl/minda aylanishida yuzaga kelgan yuqori tebranish oqibatida silindrdagi 160 dona arralardan 20,0 % arra kolosniklar o'rtasidan o'tmasdan kolosniklar ustki ishchi qismiga tegib ishlahi aniqlandi [15, 16]. Kolosniklarga tegib ishlayotgan arra tishlarining vaqt bo'yicha yeyilish davrini o'rganish uchun tajribalar o'tkazildi. Tajribalar yuqorida qayd etilgan seleksion va sanoat navida olib



1- linterni chigit bo'yicha ish unumdorligi, kg/soat, 2- linterni momiq bo'yicha ish unumdorligi, kg/soat
1- rasm. Linterni chigit va momiq bo'yicha ish unumdorligini arralar ishlash vaqtiga bog'liqligi

borildi. Chigitni linterlashda silindrning 12 soat ishlashida ba'zi arralarni kolosniklar yon tomoniga tegib ishlashidan arra tishlarini balandligi 2,86 mm dan 2,75 mm ga kamaydi (3- rasm). Bunda kolosnikni yemirilish chuqurligi 0,154 mm ni tashkil qildi. Silindrni 24 soat ishlashida arra tishini balandligi 2,58 mm ga teng bo'lib, arralarni 12 soat ishlaganiga qaraganda balandligi 0,17 mm ga kamaydi. Bunda arralar tegib ishlagan kolosnik yon tomonining yemirilish chuqurligi 0,331 mm ni tashkil etdi. Silindrni 36 soat kamaydi. Bunda arralar tegib ishlagan kolosniklar yon tomonining yemirilish chuqurligi o'rtacha 0,948 mm ga teng bo'ldi.




1- linterdan keyingi chigit shikastlanish darajasi, % 2- linterdan keyingi momiqdagi iflos aralashmalar va butun chigitlarni massaviy ulushi, %

2- rasm. Linterdan keyingi chigit va momiq sifatini arralar ishlash vaqtiga bog'liqligi

Silindrni 72 soat ishlashida esa kolosniklarga tegib ishlagan arra tishlarining balandligi 1,63 mm ni tashkil etib, arralarni 12 soat ishlaganiga qaraganda o'rtacha 1,12 mm kamaydi. Bunda arralar tegib ishlagan kolosniklar yon tomonining yemirilish chuqurligi o'rtacha 1,204 mm ni tashkil qildi (3-rasm).

5LP linter arrali silindri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot ishlarining natijasidan linter arrali silindridagi val og'irligidan uning 730 ayl/minda aylanishida yuqori tebranishning yuzaga kelishi va buning oqibatida linterning samaradorligiga salbiy ta'sir etishi, ishlab chiqarilgan maxsulotlar sifatini pasayishi, arra va kolosniklarni tez yeyilishidan ularni muddatidan oldin almashtirilishiga olib kelib, ehtiyot qismlarni keragidan ortiq sarflanishiga olib kelishi o'rganildi. Arrali silindrni tebranishi aniqlash uslubi silindrdagi valga tenzometrik datchik o'rnatish va tebranish amplitudasini maxsus qurilma yordamida aniqlash orqali amalga oshirilgan. Arrali silindrga taklif etilgan quvursimon konstruksiyali valning og'irligi o'rtacha 82,7 kg ga teng bo'lib, po'lat (St.45) materialdan tayyorlangan. O'rganishlar va izlanishlar natijasida silindr tebranishini kamaytirish bilan linter samaradorligini oshirish uchun arrali silindrining vali yengillashtirilgan quvursimon konstruksiyali etib tayyorlash maqsadli ekanligi aniqlandi va quvursimon valning sxemasi ishlab chiqildi (4- rasm).



1- quvur, 2, 3-o'ng va chap saphalar
4- rasm. Quvur konstruksiyali yengillashtirilgan valning sxemasi

Taklif etilgan quvursimon konstruksiyali valning foto ko'rinishi va quvursimon valga ega bo'lgan arrali silindrning ishlab chiqarishdagi ko'rinishi 5 va 6-rasmlarda keltirilgan.



5-rasm. Quvursimon valning foto ko'rinishi



6- rasm. 5LP rusumli linterdagi quvursimon konstruksiyali valga ega bo'lgan arrali silindrni ko'rinishi

Xulosa. 5LP linterda arrali silindr tebranishini linterni chigit va momiq bo'yicha ish unumdorligiga, mahsulotlar sifatiga, arra va kolosniklar yeyilish darajasiga ta'siri bo'yicha ishlab chiqarishda o'tkazilgan tadqiqot ishlarining natijasi, silindr tebranishining yuqoriligidan undagi ba'zi arralarni kolosniklar ishchi qismiga tegib ishlashini yuzaga keltirib, arralarni muddatidan oldin o'tmaslanishiga, arra tishi balandligini tez yeyilishiga, kolosniklar ishchi qismini tez yemirilishi bilan ularni yaroqsizlanishiga olib kelib, muddatidan oldin almashtirilishiga sabab bo'lishini ko'rsatdi. Bundan tashqari arra tishlarini tez o'tmaslanishi va balandligining kamayishi hisobiga jin ish unumdorligining kamayishiga, ishlab chiqarilgan chigit va momiq sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Arra va kolosniklarning muddatidan oldin yaroqsizlanishi hisobiga ularni yangisiga almashtirilishi esa import qilinayotgan arra va kolosniklarni keragidan ortiq sarflanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga linter ish unumdorligining kamayishi korxonada kunlik ish unumdorligini kamayishiga olib kelsa, ishlab chiqarilgan chigit va momiq sifatining pasayishi esa iste'molchini sifatli chigit va momiqqa bo'lgan talabini to'liq qondirgani yo'q. Bularning barchasi korxonada iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta'sir etmoqda.

5LP linter arrali silindri tebranishini kamaytirish bilan silindrdagi val mustahkamligini oshirish, import qilinayotgan arra va kolosniklar ishlash muddatini uzaytirish bilan ular sarfini tejash, linter ish unumdorligini oshirish bilan chigit va momiq sifatini yaxshilash hamda elektr

energiya sarfini tejash uchun olib borilgan izlanishlar asosida quvur konstruksiyali yengillashtirilgan valning sxemasi ishlab chiqildi.

Reference

1. A.M.Salimov, A.Y.Lugachev, M.T.Xodjiyev. Texnologiya pervichnoy obrabotki xlopka. "Adabiyot uchqunlari". Tashkent. 2018. -184 s.
2. N.Z.Kamalov, SH.Z.Kamalov, R.SH.Sulaymonov va boshqalar. Paxtani dastlabki ishlash va urug'lik chigit tayyorlash uskunalarini ishlatish va ta'mirlash bo'yicha yo'riqnoma (PDI 56-2016). Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ. -Toshkent, 2019.- 109 b.
3. R.SH.Sulaymonov, O'.A.Norboyev, SH.F.Eshquvvatov. Chigitni linterlashda energiya- resurstejamkor texnologiy. Halqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Jizzax. 19-20 may. 2023. 340-344 b.
4. Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik. F.B.Omonovning umumiy taxriri ostida tayyorlandi. "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ , "Voris-nashriyot", Toshkent, 2008.- 416 b.
5. Pasport pilnogo lintera 5LP.-Tashkent: TGSKB po xlopkoochistke, 1981.-18 s.
6. R.SH. Sulaymonov. Paxta tozalash korxonalaridagi arra tayyorlash sexlarini ishlatish bo'yicha yo'riqnoma (PDI 64-2016). "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ. Toshkent. 2019.-72 b.
7. R.SH.Sulaymonov, M.M.Ochilov, SH.F.Eshquvvatov. 5LP linterning arrali silindri bo'yicha izlanishlar. JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH IN TEXTILE AND LIGHT INDUSTRY. Published: 01/12/2022 ISSN №2181-2209. Rr. 30-35.
8. Maksudov I.T., Nuraliyev A.N. Sbornik instruktsiy i metodik po texnicheskomu kontrolyu i otsenke kachestva xlopka-sirsa i produkcii yego pererabotki v xlopkoochistitelnoy promishlennosti. Tashkent. Mexnat, 1992 .- 340 s.
9. R.SH.Sulaymonov, B.X.Marufxanov, U.Q.Karimov. "Arrali jin va linterlar uchun arra, kolosnik va arralar oraliq qistirmalarning sarflanish meyorlari" (PDI 89-2018). "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ. Toshkent. 2018.- 6 b.
10. R.SH.Sulaymonov, B.X.Marufxanov, U.Q.Karimov. Arrali linterning ishchi qismlarini takomillashtirish va ishlab chiqarishga tadbiiq etish. Ilmiy hisobot. "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ. Toshkent. 2016.- 51 b.
11. R.SH.Sulaymonov, M.M.Ochilov, SH.F.Eshquvvatov. B.E.Qarshiyev. Arrali silindr tebranishini linter samaradorligiga ta'siri. "Paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat sohalarining texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Termiz. 20-21- oktabr. 2023-y. 69-72 b.
12. O'zDst 662:2011. Paxt momig'i, Texnik shartlari. Iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushi. Toshkent, 2011.- 12 b.
13. O'zDst 601:2016. Paxta. Texnik chigit. Texnikaviy shartlar. Tukdorlikni aniqlash usullari. Toshkent, 2016.- 11 b.
14. O'zDst 597:2016. Paxtaning texnik chigiti, Texnik shartlari. Chigitdagi nuqsonlar massaviy ulushini aniqlash usullari. Toshkent, 2011.- 16 b.
15. R.SH.Sulaymonov, B.Y.Kushakeyev, D.U.Madraximov. Iziskaniye putey povisheniya effektivnosti protsessa linterovaniya semyan. Otchet AO «Paxtasanoat ilmiy markazi». Tashkent. 2011.-65 s.
16. A.M.Salimov, A.A.Ismoilov. Sanoat sohalari texnologiyasi. TITLP, Toshkent. 2018.- 292 b.

Xalmatov D.A.¹, Hushnazarova D.R.²

Tashkent Institute of Textile and Light Industry¹, Tashkent State Technical University
named after Islam Karimov²

Annotatsiya. Maqolada analitik konstruktiviyali agregir rostlagichlar (AKAR) usuliga asoslangan nochiziqli sinergetik boshqarish qonunlarini sintez qilish orqali amalga oshiriladigan pnevmatik silindr porshenining holatini boshqarish masalasi ko'rib chiqilgan. Pnevmoqaqsimlagich yordamida chiqish kamerasidagi ma'lum bir miqdorda siqilgan havoni chiqarish orqali amalga oshiriladigan bosimga teskari nochiziqli sinergetik boshqarish qonuni ishlab chiqilgan. Bosimga teskari boshqarish usuli pnevmosilindr kameralaridagi bosimning o'zgarishiga mos holda amalga oshiriladi, ushbu usulni drosselli boshqarish bilan solishtirilganda bir muncha energiyaning samaradorligiga erishish hisobiga to'ldirish kamerasiga siqilgan havoning kelib tushish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Ishda olingan nochiziqli sinergetik boshqarish qonunlaridan foydalangan holda qo'yilgan boshqarish maqsadlariga erishish uchun o'zida tizimning fazaviy trayektoriyasiga intiluvchi fazaviy fazadagi tortuvchi sirtlarni ko'rsatuvchi invariant turlilik masalalari orqali amalga oshirildi. Berilgan attraktorlarning tabiiy tortuvchanlik xususiyatlari hisobiga tadqiq qilinayotgan tizimning robustligiga erishildi. Boshqarishda ko'p foydalaniladigan pnevmoavtomatika va tipik rostlagichlar usulining o'zaro qiyosiy tahlili o'tkazildi. Muvofiqlashtirilgan boshqarish uchun o'tkinchi jarayon grafiklari qurildi. Tadqiq etilyotgan boshqarish tizimi berilayotgan attraktorlarning tabiiy tortuvchanlik xususiyatlari hisobiga robustlikka erishadi.

Kalit so'zlar: sinergetik boshqarish, elektropnevmatik tizim, pnevmoqaqsimlagich, invariant turlilik, nochiziqli boshqarish qonuni, asimptotik turg'unlik.

Аннотация. В статье рассмотрена задача управления положением поршня пневмоцилиндра, которая осуществлен путем синтеза нелинейных синергетических законов управления, основывающихся на методе аналитического конструирования агрегированных регуляторов (АКАР). Разработан нелинейный синергетический закон управления противодавлением, который осуществляется путем впуска некоторого количества сжатого воздуха через пневмораспределитель в выхлопную камеру. Метод управления противодавлением реализуется благодаря согласованному изменению давлений в камерах пневмоцилиндра, это позволяет уменьшить расход поступающего сжатого воздуха в камеру наполнения, за счет чего достигается некоторая энергоэффективность данного метода управления по сравнению с методом дроссельного управления. Достижение поставленных целей управления с помощью полученных в работе нелинейных синергетических законов управления осуществляется путем задания инвариантных многообразий, представляющих собой притягивающие поверхности в фазовом пространстве состояния, к которым устремляются фазовые траектории системы. За счет использования естественных притягивающих свойств задаваемых аттракторов было достигнуто робастность управления исследуемой системы. Проведен сравнительный анализ с наиболее часто используемым в управлении пневмоавтоматикой – методом типовых регуляторов. Построены графики переходных процессов для согласованного управления. За счет использования естественных притягивающих свойств задаваемых аттракторов достигается робастность управления исследуемой системы.

Ключевые слова: синергетическое управление, электropневматическая система, пневмораспределитель, инвариантные многообразия, нелинейный закон управления, асимптотическая устойчивость.

Abstract. *The paper considers the problem of controlling the position of the piston of a pneumatic cylinder, which is carried out by synthesizing nonlinear synergetic control laws based on the method of analytical design of aggregated regulators (ACAR). A nonlinear synergetic law of back pressure control has been developed, which is carried out by releasing a certain amount of compressed air through a pneumatic distributor into the exhaust chamber. The back pressure control method is implemented due to a coordinated change in the pressure in the chambers of the pneumatic cylinder, this allows to reduce the flow of incoming compressed air into the filling chamber, due to which some energy efficiency of this control method is achieved in comparison with the throttle control method. The achievement of the set control goals with the help of the nonlinear synergetic control laws obtained in the work is carried out by setting invariant manifolds, which are attractive surfaces in the state phase space to which the phase trajectories of the system rush. By using the natural attractive properties of the specified attractors, robust control of the system under study was achieved. A comparative analysis is carried out with the most commonly used control of pneumatic automation - the method of standard regulators. Graphs of transient processes for coordinated control were constructed. By using the natural attractive properties of specified attractors, robust control of the system under study is achieved.*

Key words: *synergetic control, electro-pneumatic system; pneumatic distributor; invariant manifolds; nonlinear control law, asymptotic stability.*

Kirish. Pnevmatik tizimni boshqarish muammosining dolzarbligi uning traektoriyasining ma'lum bir koordinatasida pnevmoyuritma porshenining aniq va silliq tormozlanishi murakkabligi bilan bog'liq, chunki tizimning ishchi organi kuchli siqilish fizik xususiyatiga ega bo'lgan siqilgan havodan iborat hamda tizimdagi termodinamik jarayonlarda sodir bo'ladigan sezilarli nohiziqliklarda ham muhim rol o'ynaydi. Ilgari davrlarda pnevmatik tizimlarni boshqarishda boshqarishning tipik chiziqli qonunlari yordamida sozlanuvchi proporsional-integral-differentsiallanuvchi (PID) sanoat rostlagichlaridan foydalanilgan. Boshqarishning chiziqli qonunlari rostlagichlarni harakatlantiruvchi oddiy algoritmlardan farq qilib, ko'plab amaliy va kam xarajat ketadigan iqtisodiy masalalarni amalga oshirish uchun boshqarish qonunlarida keng ko'lamda foydalaniladi.

Bunda, bo'shliqlarni o'tkazib yuborishning ortishi va buning natijasida yuqori chastotali shovqinlarning paydo bo'lishi kabi tizimning ishlashida xatolikka sabab bo'lib xizmat qiladigan rostlagichlarning differensial tashkil etuvchilarini sozlashning murakkabligi bilan bog'liq bo'lgan muammolar yuzaga keladi [1-4].


Oxirgi o'n yillikda mikroprotessorli vositalarining faol rivojlanishi PID rostlagichlarni sozlash algoritmlarini takomillashuviga olib keldi. Ayni vaqtda parametrlarni avtomatik sozlash imkoniyatiga ega bo'lgan adaptiv algoritmlar, neyron to'rlar, noqat'iy mantiq usullari, hamda genetik algoritmlarni o'zida mujassam etgan sanoat rostlagichlari mavjud.

Yillar davomida turli xil ko'rinishdagi PID rostlagichlar paydo bo'ldi, masalan Petri to'ri [5] asosida kuzatuvchili boshqarish masalasini amalga oshiruvchi kontroller, yoki ikkita boshqarish masalasini mustaqil yechimini ta'minlovchi ikkita ozod hadga ega bo'lgan rostlagich [6]. Bundan tashqari, kontrollerga qo'shimcha vazifalar qo'shildi, aynan: avariya signalizatsiyasi, rostlash konturidagi uzilishlarni nazorat qilish, dinamik diapazon chegaralaridan chiqish kabi vazifalar shular jumlasidandir [7]. Biroq noqat'iy mantiq algoritmlari asosan matematik tavsiflash va shakllantirish murakkab bo'lgan tizimlarda qo'llaniladi [8-12].

Ushbu maqolada pnevmoyuritma porshenining joylashishini kiritish va chiqarish kameralaridagi bosimni o'zgartirish yo'li bilan nohiziqli sinergetik boshqarish qonunlari sintezi ko'rib chiqilgan. Boshqarish qonunlari sintezi sinergetik boshqarish nazariyasining analitik konstruktsiyali agregir rostlagichlar (AKAR) usullari yordamida amalga oshirildi.

Nazariy tadqiqotlar. Pnevmatik tizim dinamikasi va matematik modeli. 1-rasmda pnevmatik tizimni yopiq konturli boshqarish ko'rsatilgan bo'lib, u 4 pnevmosilindr, 3 elektropnevmatik taqsimlagich, 2 dasturlanuvchi mantiqiy kontroller va 1 o'zgartirish

datchigini o'z ichiga oladi. Dasturlanuvchi mantiqiy kontroller diskret buyruqlarni kiruvchi va chiquvchi havo oqimini boshqargan holda, o'z navbatida tirqishdagi kesishish yuzasini o'zgartiruvchi elektropnevmatik taqsimlagichdagi boshqariluvchi kuchlanish ko'rinishida uzatadi.



1 – rasm. Pnevmatik tizimni yopiq konturli boshqarish

Elektromagnitli proporsional boshqarishli pnevmo-taqsimlagich (PT) i – pnevmo-taqsimlagichning (PT) elektromagnitdagi kiruvchi elektrik signalni, yani U_i kuchlanishni tirqishning o'tkinchi kesishish maydoni kuchlanishi U_f ga o'zgartiradi. Bu bois, PT ning ko'ndalang kesim yuzalari U_{1f} va U_{2f} quyidagi munosabatda keltirilgan boshqariluvchi kuchlanish bilan bog'liq [10]:

$$U_{if} = g \cdot U_i$$

bu yerda g - kuchlanish bo'yicha kuchaytirish koeffitsienti, $1,2 \cdot 10^{-6} m^2/B$.

Elektropnevmatik tizimga tegishli bo'lgan murakkab dinamik tizimning matematik modeli o'zida qurilmaning mexanik qismi harakati tenglamasidan kelib chiqqovchi hamda silindrning bo'shliqlaridagi termodinamik va gazodinamik harakatlarni tavsiflovchi va tizimning harakatini tavsiflovchi o'zgaruvchilar aro bog'liqlikni ko'rsatadi [13-20].

$$\begin{cases} \dot{x}_1(t) = x_2; \\ \dot{x}_2(t) = a_{21} \cdot x_3 - a_{22} \cdot x_4 - a_{23} \cdot x_2 - a_{24}; \\ \dot{x}_3(t) = \left[a_{31} \cdot (x_1 - l_{01})^{-1} \cdot U_{1f} \cdot \sqrt{p_m^2 - x_3^2} \right] - \frac{kx_3x_2}{(x_1 + l_{01})} \\ \dot{x}_4(t) = - \left[a_{41} \cdot (a_{42} - x_1)^{-1} \cdot U_{2f} \cdot \left(\frac{x_4}{p_a} \right)^{\frac{k-1}{2k}} \cdot \sqrt{x_4^2 - p_a^2} \right] + \frac{kx_4x_2}{(a_{42} - x_1)} \end{cases} \quad (1)$$

(1) – formuladagi matematik modelni soddaroq ko'rinishda berish va navbatdagi tahlillarni amalga oshirish uchun quyidagi koeffitsientlarni kiritamiz:

$$a_{21} = \frac{S_1}{M}; a_{22} = \frac{S_2}{M}; a_{23} = \frac{k_{TP}}{M}; a_{24} = \frac{p_a(S_1 - S_2)}{M};$$

$$a_{31} = \frac{k \cdot \sqrt{RT_M}}{S_1 \cdot \sqrt{\xi}}; a_{41} = \frac{k \cdot \sqrt{RT_M}}{S_2 \cdot \sqrt{\xi}}; a_{42} = (L + l_{02}).$$

Ushbu modeldagi parametrlarga quyidagi belgilashlar kiritilgan: $x_1 - l$ porshening o'zgarish koordinatasi, m; $x_2 - V$ harakatlanuvchi massaning o'zgarish tezligi, m/s; $x_3 - p_1$ to'ldirish kamerasidagi bosim, Pa; $x_4 - p_2$ chiqish kamerasidagi bosim, Pa; M - porshen va shtokning qo'zg'aluvchi qismi (0,5 kg); S_1 va S_2 – pnevmosilindr bo'shlig'ining porshenli va shtokli samarali yuzasi ($8 \cdot 10^{-4} m^2$ va $6 \cdot 10^{-4} m^2$); k_{TP} – yopishqoq ishqalanish koeffitsienti ($100 H \frac{c}{m}$); T_M – gazning absolyut harorati (293 K); k – havo uchun adiabat ko'rsatkichi (1,4); R – universal gaz doimiysi (287 Dj/(kg K)); l_{01} va l_{02} – porshening boshlang'ich va oxirgi koordinatalari o'rni (0,002 m); ξ – drossel chizig'iga kiruvchi qarshilik koeffitsientlari yig'indisi (30); p_M – magistral kirishidagi bosim sathi ($5 \cdot 10^5$ Pa); p_a – atmosfera bosimi ($1 \cdot 10^5$ Pa).

Ekspirimental tadqiqotlar. AKAR usuli bo'yicha boshqaruv qonunlarini sintez qilishning dastlabki bosqichlaridan biri bu texnologik vazifadan kelib chiqib tadqiq qilinayotgan

tizimda sodir bo'layotgan jarayonlar dinamikasining fizik mohiyatini hisobga olgan holda boshqarish maqsadlarini – invariantlarni ajratishdir. Qaralayotgan elektropnevmatik tizim porshen harakati dinamikasi tenglamalari va termodinamik muvozanat tenglamalari bilan tavsiflanganligi sababli tizim holatining yakuniy maqsadi bo'lgan texnologik va termodinamik invariantlarni o'rnatish kerak.

Boshqarish masalasiga ko'ra, pnevmoyuritmalar pozitsion va kuzatuvchilarga bo'linadi, bu usulda boshqaruvning yakuniy maqsadi - texnologik invariantlari quyidagilar bo'lishi mumkin: l porshenning koordinatalarini belgilangan pozitsiyada joylashishi, shuningdek berilgan vaqt qonuni bo'yicha porshen V tezligining o'zgarishi.

Termodinamik invariantlar boshqaruvning yakuniy texnologik masalasining bajarilishini ta'minlovchi tizim kuchining "ichki" muvozanatini aks ettirishi kerak. Quyidagilar tadqiq qilinayotgan tizimning o'xshash kuchlari hisoblanadi: p_1 – aslida "ishchi" bosim hisoblanadigan, porshen harakatiga ta'sir qiladigan to'ldirish kamerasidagi siqilgan havo bosimi, shuningdek p_2 – o'zgarishi porshenning tormozlanishiga, hamda mos ravishda uning harakatlanishiga ham ta'sir qiluvchi chiqish kamerasidagi bosim. Shunday qilib, boshqarishning aniq maqsadiga tizim holati o'zgaruvchilarining muvozanatini boshqarishning tizimli modeliga mos kelishi kuzatiladi.

AKAR usuliga muvofiq, berilayotgan maqsad funksiyalarining soni boshqaruv kanallari soniga mos kelishi kerak. Elektropnevmatik tizimda boshqarish ikkita kanal orqali amalga oshiriladi:

- to'ldirish kamerasida p_1 bosim hosil qiluvchi kiruvchi ommaviy havo sarfi U_{1f} ni boshqarish PR1 klapanidagi f_1 kesim yuzasini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi;

- tabiiy ravishda p_2 bosim shaklida aks etuvchi chiqish kamerasidan chiqayotgan ommaviy havo sarfi U_{2f} ni boshqarish PR2 klapanidagi f_2 kesim yuzasini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Elektropnevmatik tizimning to'ldirish kamerasida hosil bo'layotgan p_1 bosim porshenning keying harakati va siljishiga javob beradi, chiqish kamerasidagi p_2 bosimning ko'tarilishi esa porshenning tormozlanishini amalga oshiradi. Boshqarishda porshenning bosimga teskari tormozlanishi pnevmotaqsimlagichni yuqori bosimli manbaga ulash orqali pnevmosilindr chiqish kamerasidagi havo oqimini oshirish yo'li bilan p_2 bosimni orttirish yordamida yuzaga keladi.

Shunday qilib, boshqarish masalasi quyidagilardan iborat, ya'ni p_1 va p_2 bosimlarning aniq munosabatlarini ta'minlovchi U_{1f} va U_{2f} boshqariluvchi ta'sirlarni sintezlash uchun l berilgan holatda pnevmosilindrning porsheni silliq to'xtashi bajariladi.

Shtok harakati paytida bosimning to'g'irlanishi yuzaga keladi. Ushbu to'g'irlanishni sinergetik sintez jarayonida mos keluvchi turli invariantlilik orqali aks ettirish mumkin. Biroq, yuritma to'liq to'xtaganda, kirish va chiqish kameralaridagi bosim biroz farq qiladi, chunki $S_1 \neq S_2$.

Pnevmosilindr shtokini kerakli holatda joylashtirishning shakllantirilgan masalasiga muvofiq, boshqarish maqsadiga mos keladigan birinchi invariantni quyidagicha kiritamiz:

$$x_1 = x_1^* \quad (2)$$

bu yerda x_1 - shtokning joriy holati, x_1^* - talab qilinadigan qiymat.

Tizimning ikkinchi invarianti sifatida kirish va chiqish kameralaridagi bosimning bir – biriga teng bo'lgan holatini ifodalovchi quyidagi shartni olamiz:

$$x_3 = x_4 \quad (3)$$

Bosimga teskari nochizikli sinergetik boshqarish qonunlarining sintezi. Sintezning birinchi bosqichida (3) – invariantni kiritilayotgan turli xil invariantlarning yig'indisi sifatida quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\psi_1 = x_4 - x_3 = 0, \quad \psi_2 = x_3 - \varphi_1(x_1, x_2) = 0. \quad (4)$$

Bunday holda, turli xildagi invariantlar yig'indisi (4) funktsional tenglamalar tizimining yechimini qanoatlantirishi kerak:

$$\begin{cases} T_1\dot{\psi}_1(t) + \psi_1 = 0, \\ T_2\dot{\psi}_2(t) + \psi_2 = 0. \end{cases} \quad (5)$$

Разрывное удлинение образцов по ширине меняется в пределах 112%-154% из-за наличия в них дополнительных удлиненных протяжек, которые имеют выпрямленную конфигурацию по сравнению с обычной петлей и препятствуют излишнему удлинению. Уменьшение показателей разрывного удлинения по ширине наблюдается в вариантах II, IV, VI их следует рекомендовать как переплетения с уменьшенным разрывным удлинением, следовательно, малорастяжимый трикотаж с улучшенной формоустойчивостью по ширине.

При проектировании изделий важно знать, какими упругими свойствами обладает полотно.

Для данных образцов была определена доля обратимой деформации ϵ_0 , в состав которой входят упругая деформация и основная часть эластической деформации, и доля необратимых деформаций, включающих в себя пластическую деформацию и часть пластической деформации, не успевшей проявиться пределах установленного методике времени “отдыха” образца.

Доля обратимой деформации экспериментальных образцов трикотажа по длине изменяется от 82% до 91%, тогда как доля обратимой деформации по ширине изменяется от 81% до 88% (рис.5).




Рис. 5. Показатели устойчивости трикотажа к деформации

Такие показатели доли обратимой деформации свидетельствует о способности исследуемых образцов трикотажа быстро принимать первоначальные размеры после растяжения.

Трикотажные полотна имеют значительно более высокую растяжимость, чем ткани, а поэтому и более подвижную структуру, чувствительную даже к небольшим прикладываемым усилиям. Принцип же работы отделочного оборудования для трикотажных полотен ничем не отличается от принципов работы оборудования, предназначенного для отделки тканей. Установлено, что основной причиной больших усадок является чрезмерная деформация трикотажных полотен в отделочных операциях.

Под усадкой подразумевают уменьшение размеров трикотажного полотна в процессе мокрых обработок (замачивания, стирки); увеличение же размеров образца при этом называют притяжкой [17,18].

Усадка после мокрых обработок определяется как отношение разницы размеров образца до и после обработки к его начальному размеру и выражается в процентах.

На рис. 5.9 построена гистограмма изменения усадки по длине и по ширине. Усадка образцов по длине меняется в пределах 6,8-10,1%. Усадка образцов по ширине меняется в пределах 2,6-4,2%. Наименьший показатель усадки по длине и по ширине наблюдается в вариантах IV, VI их следует рекомендовать как более формоустойчивый варианты в процессе отделки и влажно-тепловой обработки (рис.6).




Рис. 6. Показатели устойчивости трикотажа к воздействию влажно-тепловых обработок

Заключение. Анализ результатов исследования показывает, что структура предложенных вариантов трикотажа способствует уменьшению объемной плотности, увеличению прочности трикотажа по длине и по ширине, уменьшению растяжимости и усадки трикотажа, в результате которого улучшается формоустойчивость, что положительно влияет на потребительские свойства выработанных образцов одинарного трикотажа. Они наиболее подходят для изготовления верхних изделий, т.к. обладают высокой формоустойчивостью, прочностью на истирание и низкой воздухопроницаемостью.

Reference

1. Xolikov K.M., Gulyayeva G.X., Mirusmanov B.F., Mukimov M.M. Issledovanie texnologicheskikh parametrov risunchatogo trikotaja. // J. Problemi tekstilya. 2012, № 3. - s. 14-19.
2. Mirxalikov J.U., Bayjanova S.B., Djanpaizova V.M., Sagitova G.F. Issledovaniya vliyaniya kolichestva pressovih petel na fiziko-mexanicheskie svoystva trikotajnih poloten. Izvestiya visshih uchebnih zavedeniy. Texnologiya tekstilnoy promishlennosti. № 1 (355). 2015. - s. 178.
3. C.D. Kane, U.J. Patil, P. Sudhakar. Studies on the Influence of Knit Structure and Stitch Length on Ring and Compact Yarn Single Jersey Fabric Properties. Textile Research Journal. Vol 77, Issue 8, 2007.
4. Elena Onofrei. The properties of knitted fabrics for bio-functional textiles. Bul. Inst. Polit. Iasi, t. LVI (LX), f. 2, 2010. page 75-84 p.
5. Nergiz Emirhanova, Yasemin Kavusturan. Effects of Knit Structure on the Dimensional and Physical Properties of Winter Outerwear Knitted Fabrics. FIBRES & TEXTILES in Eastern Europe April / June 2008, Vol. 16, No. 2 (67).
6. Usmonkulov Sh., Abdulpattaev B., Allamuratova T.K., Mukimov M. M. Materiali VII Mejdunarodnoy molodejnoj nauchnoy konferensii. Molodej i XXI vek - 2017.
7. Makhmudova G. I., Mirkhalikov J. U., Botabaev N. E., Abdikirimov S. J. Razrabotka resursoberegayushey texnologii virabotki trikotaja kombmirovannih perepletений. // J. Izv. vuzov. Tekstil. prom-sti. 2017, № 6, - s. 186-189.
8. Allamuratova T.K., Gulyaeva G.X., Mukimov M.M. Novaya texnologiya polucheniya dvuhsloynogo trikotaja. // Dizayn. Materialy. Texnologiya. Sankt-Peterburgskiy gosudarstvenniy universitet promishlennih texnologiy i dizayna. 2018. 1[43]. –s. 72-75.

9. Shustov Yu.S. Osnovi tekstilnogo materialovedeniya M. OOO "Sov'yaj Bevo". 2007 g. –s.300
10. GOST 8847. Polotna trikotajniye. Metodi opredeleniya prochnosti.
11. Rong Liu, Terence T. Lao, S.X. Wang. Impact of Weft Laid-in Structural Knitting Design on Fabric Tension Behavior and Interfacial Pressure Performance of Circular Knits. Journal of Engineered Fibers and Fabrics. Volume 8, Issue 4 – 2013. –r. 96-107.
12. W. Chen, M. He, M. Zhang, Z. Tang. Wearing performances of floret silk / cotton blended sports socks. // "Advanced Materials Research". Volume. 2011. —284-287 p.p.
13. Simonenko D.F., Pojidayev N.N. Metodika opredeleniya ustoychivosti belevih trikotajnih poloten k istiraniyu. – "Izvestiya vuzov. Texnologiya legkoy promishlennosti", 1964.- №2, s. 52-57. №3, s. 38-42.
14. Torkunova Z.A. Ispitaniya trikotaja. Legkaya Industriya. 1975 g. –s.224.
15. Musayev N.M., doktorant, G.X.Gulyaeva, PhD, M.M.Mukimov, d.t.n., prof. O svoystvah novih hlopkо-sholkovih trikotajnih poloten. // 53 «Mejdunarodnoy nauchno-texnicheskoy konferentsii prepodavateley i studentov». 22 aprelya 2020 g. Vitebsk, -S. 289-292.

УДК 677.025

СПОСОБ ВЫРАБОТКИ ДВУХСЛОЙНОГО ОДНОСТОРОННЕГО ПЛЮШЕВОГО ПЕРЕПЛЕНИЯ НА ТРИКОТАЖНЫХ МАШИНАХ

¹Т.К.Алламуратова, ²М.М. Мирсадиқов, ³Г.Х. Гуляева, ³М.М.Муқимов

¹Berdakh Karakalpak State University, ²Namangan Institute of Textile Industry

³Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Аннотация. Мақолада иссиқлик сақлаш хусусияти юқори бўлган трикотажни ишлаб чиқиш бўйича тадқиқот натижалари келтирилган. Янги тескари глад асосида икки қатламли тукли трикотажнинг тузилишлари ва олиш усуллари ишлаб чиқилган бўлиб, унинг раппорти иккита тукли қатордан иборат, ва қатламлари бирлаштирувчи лайкра ити ёрдамида бириктиргани ҳисобиға тукли протяжкалар мато ичкарасида жойлаштирилган. Янги тузилишли тескари глад асосида олинган икки қатламли тукли трикотажда битта қатламида ҳосил қилинган тукли ёйлар мато ичкарасида жойлашган бўлиб, бу унинг ҳажмийлигини, шакл ва иссиқлик сақлаш хусусиятларини оширади, шунингдек бу ўрилишида тукли ипнинг асос матосида маҳкамланганлиги мустаҳкамлиги ошади, бу эса трикотажнинг сифат кўрсаткичлари ва эксплуатацион хусусиятларига ижобий таъсир этади. Икки қатламли тукли трикотажни айлана оборотли ёки ясси игнадонли машинасида олиш конструктив ўзгартириш талаб этилмайди. Таклиф этилаётган усул онсон бажарилади ва машинанинг иш унумдорлигини камайтирмайди.

Аннотация. В статье приведены результаты исследования по разработке трикотажа с высокими теплозащитными свойствами. Разработаны структура и способ получения нового двухслойного плюшевого трикотажа на базе изнаночной глади, где раппорт переплетения состоит из двух рядов плюшевого переплетения, соединительная нить лайкра соединяя оба ряда даёт возможность располагать плюшевые протяжки внутри полотна. Двухслойный плюшевый трикотаж новой структуры на базе изнаночной глади одержит плюшевые протяжки, сформированные в одном из слоёв и расположенные внутри полотна, что увеличивает объемность, улучшает формоустойчивость и теплозащитные свойства трикотажа, так же в этом переплетении увеличивается степень закрепления плюшевых нитей, что положительно влияет на качество трикотажа и его эксплуатационные свойства. Для выработки на круглооборотных и на современных плосковязальных машинах двухслойного двустороннего плюшевого трикотажа не требуется конструктивных изменений.

Предлагаемый способ прост в осуществлении и не снижает производительность машины.

Abstract. *The article presents the results of a study on the development of knitwear with high heat-shielding properties. A structure and method for producing a new two-layer plush knitwear based on the purl stitch have been developed, where the stitch repeat consists of two plush rows, a connecting of the both layers with lycra thread makes it possible for the plush broaches to be inside the fabric of a new structure Two-layer double-sided plush knitwear based on the purl stitch, includes plush broaches, which knitted on both layers and lay inside the fabric, that is increases the volumetric, shape stability, heat-shielding properties, and in this stitch, the fastening of the plush threads in base fabric increases, which improves the quality of the knitwear and its operational properties. Production of two-layer double-sided plush knitwear on purl and modern flat knitting machines does not require design changes. The proposed method is easy to implement and does not reduce the performance of the machine.*

Введение. Характеризуя трикотаж, обычно называют вид сырья, из которого он изготовлен, а затем дают структурную характеристику, например: джакет шерстяной лапчатого переплетения, хлопчатобумажные носки, нейлоновые женские чулки малораспускающегося переплетения и т. д. Так как сырьё имеет первостепенное значение для качественной характеристики трикотажа, это вполне закономерно. Показатели, характеризующие петельную структуру, также находятся в некоторой зависимости от вида материала, точнее, от его свойств. Таким образом, свойств нитей, из которых состоят петли трикотажа, сохраняют свое значение для характеристики петельной структуры трикотажа и существенно определяют его свойств [1].

Нить, образующая петлю, находится в силовом взаимодействии с соседними петлями, благодаря чему сохраняется определенная форма и размеры петель, а также всего трикотажного изделия.

Связь между соседними петлями, обусловленная трением нитей продетых одна в другую петель, является подвижной и допускает изменение формы и размеров петель по высоте и ширине вследствие перетяжки нити из петельных дуг и протяжек в петельные палочки или наоборот.

При правильном выборе режима тепловой обработки и фиксирующих агентов может быть достигнута высокая устойчивость трикотажа.

Таким образом, в качественной характеристике трикотажа или способности его длительное время сохранять приданные ему свойства важнейшую роль играют: сырьё, петельная структура (переплетение, и параметры петель) и отделка трикотажа.

Одна из важных и актуальных задач, стоящих перед трикотажной промышленностью, повышение качество, улучшение и обновление ассортимента изделий. При этом необходимо значительно увеличить выпуск трикотажных изделий с улучшенными теплозащитными свойствами, изделий для отдыха и туризма, обеспечив при этом рациональное использование сырья и материалов.

Теоретические исследования. Один из путей расширения ассортимента и улучшения качества выпускаемых изделий - разработка новых структур и способов выработки двухслойного трикотажа.

Нашими учёными и специалистами трикотажной промышленности создаются новые виды двухслойного трикотажа на базе различных переплетений. Постепенно расширяется и область применения двухслойных полотен. Двухслойный трикотаж уже используется не только для изготовления чулочно-носочных изделий, белья, курток, детских костюмов, костюмов для спорта, но и как подкладочный материал при изготовлении игрушек, обуви, ковров, в различных технических целях, в медицине [2-8].

Вопросами расширения ассортимента и улучшения качества двухслойного трикотажа, создания новых структур и разработки эффективных способов вязания трикотажа с оптимальными параметрами в настоящее время занимается многие исследователи как у нас в стране, так и за рубежом [9-12].

Трикотаж, вырабатываемый из нитей грунта любым главным, производным или рисунчатым переплетением с вязыванием в грунт дополнительных нитей или пучков штапельных волокон, образующих увеличенные платинные дуги или протяжки ворса, называют трикотажных плюшевых переплетений (рис.1).




Рис.1. Структура плюшевого трикотажа

Важнейший признак структуры плюшевого трикотажа - способ закрепления плюшевой нити в грунте трикотажа. От этого показателя зависит качество трикотажа, его внешний вид, расход сырья при выработке и др.

При разработанном способе вязания плюшевого трикотажа на иглу 1 сначала прокладывается плюшевая нить б, а затем грунтовая нить а. При дальнейшем опускании иглы происходит кулирование плюшевой нити на отбойных зубьях верхнего цилиндра, а грунтовой - на отбойных зубьях 6 нижнего цилиндра. После кулирования плюшевой и грунтовой нитей последующие операции процесса выполняются в обычном порядке. Съем плюшевых протяжек 3 производится с помощью специального приспособления 2, установленного с внешней стороны машины, закрепленного в замке и вращающегося вместе с замком, и направителя плюшевых протяжек [13-16].




Рис. 2. Процесс образование плюшевого трикотажа на оборотной машине

Экспериментальное исследование. С целью выработки трикотажа с повышенной формоустойчивостью и теплозащитными свойствами на кафедре «Технологии трикотажа» Наманганского института текстильной промышленности разработаны структура и способ получения нового двухслойного одностороннего плюшевого трикотаж на базе изнаночной глади, где раппорт переплетения содержит ряд изнаночной глади и ряд плюшевого

переплетения, так как соединительная нить из лайкры соединяя петельные ряды обоих переплетений даёт возможность что плюшевые протяжки находились внутри полотна.

На рис.3. изображена графическая запись двухслойного одностороннего плюшевого трикотажа внутри полотна на базе изнаночной глади; на рис.4 – строение двухслойного одностороннего плюшевого трикотажа.




Рис.3. Графическая запись двухслойного одностороннего плюшевого трикотажа

Анализ результатов. На графической записи видно, что в первой петлеобразующей системе провязывается ряд кулирной глади $K_{г}$, во второй игольнице машине из хлопчатобумажной пряжи (I система), при этом иглы на обеих игольницах расставлены шахматном порядке ластичном раппорте. Во втором ходу петлеобразующей системы машины грунтовая нить $\Gamma_{н}$ вместе с плюшевой нитью провязываются на первой игольнице (II система), а плюшевые протяжки $\Pi_{п}$ формируются на отбойных зубьях $O_{з}$ второй игольницы, таким образом связывается плюшевый ряд с одной стороны трикотажа на базе изнаночной глади. Далее плюшевые протяжки сбрасываются с помощью съемника. В обратном входе петлеобразующей системы III, на иглы обеих игольниц прокладывается соединительная нить лайкра, которая соединяет оба ряда переплетения, при этом плюшевые протяжки укладываются внутри полотна образуя двухслойный односторонний плюшевый трикотаж новой структуры.

Двухслойный односторонний плюшевый трикотаж (рис. 4) содержит нить 1, из которой провязывают ряд глади, нить 2 из которой провязывают грунтовую нить из изнаночных рядов и плюшевая нить 3 образующая плюшевый ряд. Соединительная нить 4, соединяя оба ряда даёт возможность плюшевым протяжкам оказаться внутри полотна.




Рис. 4. Строение двухслойного одностороннего плюшевого трикотажа

Заключение. Двухслойный односторонний плюшевый трикотаж новой структуры на базе изнаночной глади, состоящий из плюшевых протяжек, расположенных внутри полотна увеличивает объемность, формоустойчивость, повышает теплозащитные

свойства, так же в этом переплетении закрепление плюшевых нитей увеличивается, что улучшает качество трикотажа его эксплуатационные свойства.

Таким образом, на круглооборотных и современных плосковязальных машинах для выработки двухслойного одностороннего плюшевого трикотажа не требуются конструктивные изменения.

Предлагаемый способ прост в осуществлении и не снижает производительность машины.

Reference

1. Dalidovich A.S. Osnovy teorii vyazaniya. - M.: Legkaya industriya, 1970.
2. Avtoskoye svidetelstvo (11) 490881. Ploskooborotnaya mashina. A.S.Dalidovich, M.M.Mukimov. 05.11.75. Byul № 41
3. Mukimov M.M. Razrabotka i obosnovaniye tekhnologii trikotazha plyushevykh perepleteniy na dvukhfonturnih vyazal'nykh mashinakh Dis.dok. Gulyayeva G., Mukimov M. Tekhnologiya vyrabotki formoustoychivogo plyusheвого trikotazha. // ZH. Izvestiya vuzov. Tekhnologiya legkoy promyshlennosti. 2017. -№ 1.
4. Patent SSHA № US 2019/0078241. "POWERAIR" INSULATINGFABRIC. William Michael Rose, Gary S . Smith, Marina Kozera, William Patz, Gadalia Vainer. Obladatel' patenta MMI-IPCO LLC. Opubl. 14.03.2019g.
5. Mukimov M.M. Razrabotka i obosnovaniye tekhnologii trikotazha plyushevih perepleteniy na dvukhfonturnih vyazalnih mashinakh Dis.dok. tekhn. nauk, T.,1993.
6. Musayeva M.M., Khankhadzhayeva N.R., Mukimov M.M. Sposob polucheniya iznanochnogo interlochnogo trikotazha na kruglooborotnoy mashine. // Problemy tekstilya. – Tashkent.-2016.- №4.
7. Patent UZ № FAP 01060. Kl. 8 D 04 BXPk7. Odnostoronniy plyushevyy trikotazh. Gulyayeva G.KH., Mukimov M.M. Zayavl. 20.06.2014g. Opubl. 29.01.2016g. Byul. № 1.
- 8 . Dalidovich A.S. Osnovy teorii vyazaniya. - M.: Legkaya industriya,1970.
9. Gulyayeva G., Mukimov M. Method of improving hygienic properties of form stable knitted fabrics. / Mezhdunarodniy III Forum innovatsionnih idey, tekhnologiy i proyektov-2017.: Sbornik materialov. -10-12 maya 2017g. - Tashkent.
10. Gulyayeva G., Mukimov M. Formoustoychiviy plyusheviy trikotazh oblegchennoy strukturi. / Innovatsionnyye tekhnologii v tekstil'noy i legkoy promyshlennosti.: Sbornik materialov MNPk. -21-22 noyabrya 2017. -Vitebsk. -Belarus.
11. Kholikov K.M. Dvustoronniy platirovannyy plyushevyy trikotazh na baze pressovogo perepleteniya // Problemy tekstilya. –Tashkent. -2006. -№1.
12. Musayev N.M., Gulyayeva G.KH., Mukimov M.M. Issledovaniye svoystv novykh struktur trikotazha. // «Izvestiya vysshikh uchebnykh zavedeniy. Tekhnologiya legkoy promyshlennosti». Periodicheskiy nauchnyy zhurnal. Sankt–Peterburgskogo gosudarstvennogo universiteta promyshlennih tekhnologiy
13. Mirsadikov M. M. Razrabotka mekhanizma vyazaniya dlya virabotki dvukhstoronnego plyusheвого trikotazha //Problemy tekstil'noy otrasli i puti ikh resheniya. – 2021.
14. Shalov I.I., Dalidovich A.S., Kudryavin L.A. Tekhnologiya trikotazha. M.: Legprombytizdat., -1986.
15. Mirsadikov M. M. Uovershenstvovanniy sposob virabotki razreznogo plyusheвого trikotazha //Problemi tekstil'noy otrasli i puti ih resheniya. – 2021.
16. Mukimov M.M. Kulirniy plyusheviy trikotazh. M.:Legprombytizdat. 1991g.

A.E.Gulamov¹, U.B.Umirov¹, N.B.Esanova¹, B.U.Nasirillayev², D.S.Sodiqov²*Tashkent Institute of textile and Light Industry¹, Scientific-Research Institute of Sericulture²*

Annotatsiya. Maqolada respublikamizning turli mintaqalariga moslashgan sermahsul sanoatbop zot va duragaylari yaratish va ulardan sifatli pilla yetishtirish uchun tut ipak qurti ozuqa bazasining sifati, qurt boqish agrotexnikasi, gigrotermik rejim va optimal sharoitlarni yaratish, pilla yetishtirish usullari keltirilgan. Tadqiqotlarda mahalliy “Zarafshon-2” va “Zarafshon-3” sanoat duragay tut ipak qurti tabiiy va yuqori namlikda intensiv usullarda yetishtirilgan pillalarda olib borildi va texnologik ko’rsatkichlari tadqiq qilindi. Tajribalarimizdagi intensiv usulni (tajriba) va tabiiy usulni (nazorat) deb olindi. Intensiv usul bo’yicha ipak qurtini pylonka bilan g’ana osti va usti oralig’idagi ma’lum masofada hosil bo’lgan mikroiklimda yetishtirildi. Pylonka ostida ipak qurtini boqilganda, odatdagi to’shama qog’oz ishlatilmasdan, bo’z mato ishlatildi. Intensiv so’zi tez, jadal, shiddat bilan degan ma’nolarni bildiradi. Qurt boqishda qo’llanilgan ikkala usulni bir-biriga solishtirib, ularning o’ziga xos afzallik va kamchiliklari hamda ularni qurtlarning rivojlanishiga ta’siri o’rganildi. Yuqori namlikda intensiv usul pylonka ostida ipak qurtlari boqilganda berilgan ozuqaning uzoq vaqt namligini yo’qotmay turishiga sabab bo’ldi va bu holat qurtlarga doimiy ravishda namligini yo’qotmagan barg bilan oziqlanish imkonini yaratdi va ozuqa sarfi tejaldi. Qurtlarning yoshdan-yoshga o’tish kunlari nazoratga nisbatan tajriba usulida 2 kunga qisqardi. Qurt boqish usullarining tirik pilla vazni va ipakchanlikka ta’siri hamda turli usullarda yetishtirilib yakka holda chuvilgan tirik pillalarning texnologik ko’rsatkichlari, tirik pillalarning vazni va uning tarkibiy qismlarini chiqishi, quruq pillalarning 7 va 16 kunlik vazni va uning tarkibiy qismlarini chiqishlari, turli usullarda yetishtirilgan tirik va quruq pillalarning vazni va quritish koeffitsientlari aniqlanib, diagrammalarda keltirildi.

Kalit so’zlar: pilla duragayi, tabiiy usul, intensiv usul, yuqori namlik, tirik pilla, quruq pilla, ipakdorlik, pilla vazni, pilla qobig’i, g’umbak vazni.

Аннотация. В статье представлены качество кормовой базы тутового шелкопряда, агротехника кормления червей, гидротермический режим и создание оптимальных условий, способы выращивания коконов для создания продуктивных технических пород и гибридов, адаптированных к различным регионам нашей республики и для производства из них высококачественных коконов. В ходе исследований местные промышленные гибридные тутовые шелкопряды «Зарафшон-2» и «Зарафшон-3» были проведены в коконах, интенсивно выращенных в естественных условиях и в условиях повышенной влажности, и изучены их технологические параметры. В наших экспериментах были использованы интенсивный метод (опыт) и естественный метод (контроль). По интенсивному методу шелкопряды выращивались в микроклимате, создаваемом на определенном расстоянии между верхом и низом шелкопряда пленкой. При кормлении тутового шелкопряда под пленкой вместо обычной подстилочной бумаги использовалась серая ткань. Слово «интенсивный» означает «быстрый, быстрый, интенсивный». Сравнивая оба метода кормления червей, были изучены их конкретные преимущества и недостатки, а также влияние на развитие червей. При повышенной влажности интенсивный метод приводил к тому, что кормление тутового шелкопряда под пленкой сохраняло корм влажным в течение длительного времени, и это условие позволяло червям питаться листьями, не терявшими влагу, и экономился расход корма. Дни перехода червей от молоди к молодняку в опытном способе сократились на 2 дня по сравнению с контролем. Влияние способов кормления червей на массу и шелковистость живого кокона, технологические параметры живых коконов, выращенных и изолированно

заготовленных, массу живого кокона и выход его компонентов, сухую массу за 7 и 16 дней и выход компонентов коконов, выращенных разными способами в живом виде. определены и представлены на диаграммах массы сухих коконов и коэффициенты высухания.

Ключевые слова: кокон-гибрид, естественный метод, интенсивный метод, повышенная влажность, живой кокон, сухой кокон, шелковистость, масса кокона, оболочка кокона, масса гриба.

Abstract. The article presents the quality of the mulberry silkworm feed base, the agrotechnics of worm feeding, the hygrothermal regime and the creation of optimal conditions, the methods of cocoon cultivation for the creation of productive industrial breeds and hybrids adapted to different regions of our republic and for the production of high-quality cocoons from them. In the researches, the local "Zarafshon-2" and "Zarafshon-3" industrial hybrid mulberry silkworms were carried out in cocoons grown intensively in natural and high humidity conditions, and their technological parameters were studied. In our experiments, the intensive method (experiment) and the natural method (control) were taken. According to the intensive method, silkworms were grown in a microclimate created at a certain distance between the top and bottom of the silkworm with a film. When feeding silkworms under the film, gray cloth was used instead of the usual bedding paper. The word "intensive" means "quick, fast, intense". Comparing both methods used in feeding worms, their specific advantages and disadvantages and their effect on the development of worms were studied. In high humidity, the intensive method caused the feeding of silkworms under the film to keep the feed moist for a long time, and this condition allowed the worms to feed on leaves that did not lose moisture, and the consumption of feed was saved. The days of transition of worms from young to young were reduced by 2 days in the experimental method compared to the control. Effects of worm feeding methods on live cocoon weight and silkiness, and technological parameters of live cocoons reared and cocooned in isolation, live cocoon weight and its component yield, 7- and 16-day dry weight and component yield of cocoons reared in different methods live and dry cocoon weights and drying coefficients were determined and presented in diagrams.

Key words: cocoon hybrid, natural method, intensive method, high humidity, live cocoon, dry cocoon, silkiness, cocoon weight, cocoon shell, case-worm weight

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi "PF-60-son farmoni, hamda 2017 yil 29 martdagi "O'zbekipaksanoat" uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2856-sonli va 2018-yil 20-martdagi "Pillachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3616-sonli qarorlarida pilla yetishtiruvchi hududlarning iqlim sharoitlarini va ozuqa bazasini hisobga olgan holda, eng ilg'or agrotexnik ishlanmalar ishlab chiqish asosida, sifatli pilla yetishtirishni bosqichma-bosqich oshirib borish va sifatini yaxshilashga oid chora-tadbirlari belgilab berilgan [1-3].

Dunyo mamlakatlarining bir qator ilmiy markazlarida tut ipak qurtining monovoltin zotlarini turli gigrotermik usullarda parvarishlash, avtomat pilla chuvish jarayonlariga mos pilla xom ashyosi yetishtirish va sanoat miqyosida xom ipakni chuvib olish, uni chuqur qayta ishlash hamda tayyor ipak mahsulotlari yetishtirish yo'nalishlarida yangi innovatsion agrotexnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada ipak qurti duragay kombinatsiyalarini biologik potensialini ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi, pilla hosili, xom ipak chiqishini oshirish hamda ipak qurti uchun eng zarur bo'lgan optimal harorat hamda nisbiy namlikni doimiy ta'minlovchi intensiv yangi texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy ahamiyatga ega [4].

Respublikamizda pilla yetishtirish va uni qayta ishlash, turli mintaqalarimizga moslashgan sermahzul zot va sanoatbop duragaylarni yaratish borasida muayyan yutuqlarga erishib kelinmoqda. Hozirgi vaqtda respublikamizga xorijdan qurt urug'lari keltirilib mahalliy

sharoitda boqilib pillalar yetishtirilmoqda. Buning oldini olish maqsadida “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tomonidan samarali ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti olimlari tomonidan tut ipak qurtining mahalliy sharoitga mos, texnologik va sifat ko‘rsatkichlari xorijdan keltirilayotgan zot va duragaylar bilan raqobatlasha oladigan turlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Genetik-seleksioner olimlar Sh.R.Umarov, B.U. Nasirillayev, U.T.Daniyarov, D.S.Sodiqov va boshqalar tomonidan yuqori texnologik zotlar, tizimlar yaratish, ular ishtirokida eng maqbul duragay kombinatsiyalarini olish yo‘nalishida tadqiqotlar olib borilgan.

Olib borilgan nazariy izlanishlardan ma‘lum bo‘ldiki, tut ipak qurtini boqishning bir necha xil usullari mavjud bo‘lib, ular ustida bir qator tadqiqotchilar o‘z izlanishlarini olib borgan. Jumladan: O‘zIITning ilmiy xodimi D.S.Sodiqov ipak qurtini yuqori namlikda boqish intensiv usulini ishlab chiqib, ishlab chiqarishga joriy etgan. Intensiv usul sifatida namlangan mato va plyonka ostida parvarishlashni tadqiq etgan.

N.J.Qobulova ham ipak qurtlarini plyonka ostida yetishtirib, undan olingan pilla va ipak iplarining texnologik xususiyatlarini o‘rgangan [5].

G.A. Yusupxodjayeva va boshqalar tomonidan ipak qurtini yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanib boqilganda, yig‘ib olinadigan tirik pillalarning hosildorligini oshishiga olib kelishi va oziqlantirishga beriladigan barg miqdori ham tejalishi o‘rganilgan. Ular tut ipak qurtlar ustiga so‘ndirilgan ohak sepib va ustidan sellofan yopib boqishgan. Ohakni ipak qurtini turli kasalliklarga chalinishini oldini olish hamda turli infeksiyalardan asrash maqsadida qo‘llashgan [6].

M.V. Izzatov tut ipak qurtlarini III yoshgacha markazlashgan qurt boqish maskanlarida plyonka ostida boqib, katta yoshlarida qurt boquvchi xonadonlarga tarqatilsa, foydali taraflari ko‘proq bo‘lishini tavsiya etgan [7].

Hindistonlik olim V. K. Rahmathulla o‘zing tadqiqotlarida ipak qurti boqishda namlik muhim ahamiyatga ega ekanligini, harorat va namlikning birgalikdagi ta‘siri ko‘p jihatdan ipak qurtining qoniqarli o‘sishi va sifatli pilla yetishtirishini belgilab, bu ipak qurtining fiziologik funksiyalariga bevosita ta‘sir qilishi va yosh ipak qurtlari katta yoshdagi ipak qurtlariga qaraganda yuqori namlik sharoitlariga bardosh bera olishi va bunday sharoitda qurtning o‘sishi kuchli bo‘lishini o‘rgangan [8].

Pokistonlik olimlar Hussain, M., S.A. Khan, M. Naeem va A.U. Mohsinlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ishida pilla yetishtirish uchun eng yaxshi natija sifatida 24-26^o C harorat va 75±5% namlik tavsiya etiladi. Ipak qurti lichinkalarining barcha navlari (50%) dan past va (90%) dan yuqori namlik ostida boqilganda sifatsiz pilla ishlab chiqarishi o‘rganilgan [9].

Sifatli xom ipak ishlab chiqarish uchun avvalo xom ashyo, ya‘ni pilla sifatli bo‘lishi kerak. Pillaning sifatini jahon standarti talablarida yetishtirish uchun ipak qurti urug‘ini o‘rnatilgan tartib va qoidalariga javob beradigan qilib tayyorlash, tut ipak qurtini ilg‘or agrotexnikalar asosida parvarishlash, pillani terish, saralash, dastlabki ishlov berish, saqlash, pilla chuvish korxonalariga yetkazish jarayonlarida uning sifatini saqlash masalalariga katta e‘tibor qaratish lozim [10].

Respublikamizda pilla yetishtirish va uni qayta ishlash turli mintaqalarimizga moslashgan sermahsul sanoatbop zot va duragaylar yaratish borasida muayyan yutuqlarga erishilmoqda. Lekin, mahalliy va xorij ipak qurtlarini O‘zbekistonning keskin kontinental iqlim sharoitlarida to‘g‘ri parvarishlash, doimiy harorat va nisbiy namlikni ta‘minlash usullarini ishlab chiqish va ilmiy asoslashga qaratilgan ishlar yetarli emas [11].

O‘zIITning bir qator olimlari B.U.Nasirillayev, M.Sh.Jumaniyozov, S.X.Xudjamatov, M.F.Xalilova boshchiligida turli gibridlar sinovdan o‘tkazilib, yangi sanoat duragaylari yaratilgan. Shulardan Zarafshon-2 № ZAP 00030 va Zarafshon-3 № ZAP 00031 patentlari olingan. Ularning kelib chiqishi: Zarafshon-2 onasi Liniya-101 va otasi Liniya-32M, Zarafshon-3: Otasi Liniya-101 duragayiga onasi Liniya-32M duragayini chatishtirish orqali olingan sanoat zot duragaylaridir. Jinsi tuxum rangi bo‘yicha nishonlangan (och sarg‘ish tuxumlardan erkak,

kulrang tuxumlardan urg'ochi qurtlar chiqadi). 2021-yilda davlat reestriga kiritilgan va barcha viloyatlar bo'yicha rayonlashtirilgan.

Tadqiqot natijasi va ularning tahlili. Zarafshon-2 va Zarafshon-3 mahalliy zot duragaylari yuqori namlikda intensiv usulda hamda tabiiy usullarda parvarishlandi. Tajribalarimizdagi intensiv usulni (tajriba) va tabiiy usulni (nazorat) deb oldik. Intensiv usul bo'yicha ipak qurtini plyonka bilan g'ana osti va usti oralig'idagi ma'lum masofada hosil bo'lgan mikroiklimda yetishtirildi. Plyonka ostida ipak qurtini boqilganda, odatdagi to'shama qog'oz ishlatilmasdan, bo'z mato ishlatildi.

Tabiiy usul



Intensiv usul



1-rasm. Tabiiy va intensiv boqish usullari ko'rinishi



Zarafshon-3 tabiiy usul



Zarafshon-2 tabiiy usul



Zarafshon-3 intensiv usul



Zarafshon-2 intensiv usul

2-rasm. Tabiiy va intensiv usulda yetishtirilgan Zarafshon-2 va Zarafshon-3 pillalarinig ko'rinishi

Tadqiqotlarimizni olib borish jarayonida qurt boqishda qo'llanilgan ikkala usulni bir-biriga solishtirib, ularning o'ziga xos afzallik va kamchiliklari hamda ularni qurtlarning

rivojlanishiga ta'siri o'rganildi. Yuqori namlikda intensiv usul plyonka ostida ipak qurtlari boqilganda berilgan ozuqaning uzoq vaqt namligini yo'qotmay turishiga sabab bo'ldi va bu holat qurtlarga doimiy ravishda namligini yo'qotmagan barg bilan oziqlanish imkonini yaratdi va ozuqa sarfi tejaladi (1-jadval).

1-jadval

Bir quti ipak qurtini boqish uchun ozuqa sarfi, kg

Boqish usuli	1-yosh	2-yosh	3-yosh	4-yosh	5-yosh	Jami
intensiv	2,4	8,2	29,8	118	798	934,4
tabiiy	5,2	16,5	56	164	798	1015,7
farqi	-2,8	-8,3	-34,5	-44	-102	-81,3

Qurt rivojlanishini 5-yoshida plyonka ochib tashlanib, tabiiy usulda boqildi. Chunki, plyonka ostida namlikning yuqori bo'lib ketishi natijasida ustki plyonkada suv tomchilari paydo bo'lishi va g'ananing mog'orlab ketish holatlari kuzatildi. Bu esa ipak qurtida turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Ipak qurti rivojlanish davrining I, II, III, IV-yoshlarida intensiv usulda parvarishlash maqsadga muvofiq. Yaratilgan tashqi muhit omillarining ijobiy ta'siri ostida moddalar almashuvi jadalligini o'zgarishi bilan qurtlarning o'sish tabiati ham o'zgardi, ularning po'st tashlash davri erta boshlandi (2-jadval).

2-jadval

Qurtlarning yoshdan-yoshga o'tish kunlari

Qurt yoshi	Yoshdan-yoshga o'tish kunlari			
	Tabiiy usul		Intensiv usul	
	Oziqlangan kunlari	Uyqudagi kunlari	Oziqlangan kunlari	Uyqudagi kunlari
1	1-2-3	4	1-2-3	3-4
2	5-6-7	7-8	4-5-6	6-7
3	8-9-10-11	11-12	7-8-9	9-10
4	12-13-14-15	17-18-19	11-12-13-14-15	16-17
5	20-21-22-23-24-25-26-27	-	18-19-20-21-22-23-24	-

Ipak qurtini intensiv usulda parvarishlash, uning rivojlanish sur'atini tezlashtirdi, tabiiy usulga qaraganda 2 kunga qisqardi va hosildorlikka ijobiy ta'sir etdi. 1 quti qurtdan olingan hosil 68,5 kg bo'ldi. Qurt boqish usullarining tirik pilla vazni va ipakchanligiga ta'siri yakka holda chuvilgan pillalarda o'rganilganda ipakchanlik nazoratlarga nisbatan tajribalarda yuqori bo'ldi (3-jadval).

3-jadval


Qurt boqish usullarining tirik pilla vazni va ipakchanlikka ta'siri

Ipak qurti duragaylari	Boqish usuli	Pillalarning o'rtacha og'irligi, g			Ipakchanligi, %
		Pillalarning vazni, g	O'rtacha kvadratik og'ishi, %	Kvadratik notekisligi, %	
Zarafshon-2	Tabiiy usul	1,84	0,26	14,1	18,1
	Intensiv usul	1,99	0,11	5,95	18,9
Zarafshon-3	Tabiiy usul	1,85	0,23	12,7	19,6
	Intensiv usul	1,98	0,29	14,7	19,8

Qurt boqish usulini yakka holda chuvilgan tirik pillalarning texnologik ko'rsatkichlari 4-jadvalda keltirilgan. Ipak qurtini intensiv usulda boqilganda tabiiy usulga qaraganda pilladan ipakning chiqishi, qobiqning ipakdorligi va ipakchanligi ko'rsatkichlari yuqori ekanligi 4-rasmdagi diagrammada ham yaqqol ko'rinib turibdi.

Turli usullarda yetishtirilib yakka holda chuvilgan tirik pillalarning texnologik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlar			
		Zarafshon-2		Zarafshon-3	
		Tabiiy usul (nazorat)	Intensiv usul (tajriba)	Tabiiy usul (nazorat)	Intensiv usul (tajriba)
1	Pillalarning vazni, g	1,84	1,99	1,85	1,98
2	Pilladan ipakning chiqishi, %	15,2	16,3	15,9	17,1
3	Pilla losi chiqishi, %	3,59	2,26	3,35	1,8
4	Qaznoq po'sti chiqishi, %	0,34	0,30	0,37	0,35
5	Qobiqning ipakdorligi, %	22,9	24,32	22,30	23,32
6	Pilla ipining chiziqli zichligi, Teks	0,339	0,335	0,342	0,347
7	Ipning umumiy uzunligi, m	1186	1350	1231	1400
8	Uzluksiz chuvaluvchan uzunligi, m	998	1259	1185	1287
9	Ipakchanligi,%	18,1	18,9	19,6	19,8
10	Chuvaluvchanlik ,%	83,9	86,2	81,1	86,4



4-rasm. Tabiiy va intensiv usulda yetishtirilgan yakka holda chuvilgan tirik pillalarning texnologik ko'rsatkichlari diagrammasi

Pilla ipakdorligiga ipak qurtini boqish usulini ta'sirini o'rganish uchun har bir variantdagi tirik pillalardan 10 tadan namunalar olindi va pilla qobig'i kesilib, tirik pilla, pilla qobig'i, g'umbagining o'rtacha vaznlari va ipakdorligi aniqlandi (5-jadval).

Tirik pillalarning ipakdorligi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$I = \frac{m_q}{m_p} \cdot 100, \%$$

bu yerda,

I - pillani ipakdorligi, %;
 m_q - pilla qobig'i vazni, g;
 m_p - pilla vazni, g.

Turli usullarda yetishtirilgan tirik pillalarning vazni va uning tarkibiy qismlarini chiqishi

Ipak qurti duragaylari	Boqish usuli	Pilla vazni, m _{pil} g	Pilla qobig'i		G'umbak		Ipakdorlik, %
			g	%	g	%	
Zarafshon-2	Tabiiy usul	1,508	0,345	22,7	1,163	77,1	22,7
	Intensiv usul	1,726	0,419	24,3	1,306	75,6	24,3
Zarafshon-3	Tabiiy usul	1,485	0,328	22,3	1,161	77,0	22,3
	Intensiv usul	1,782	0,411	23,3	1,365	76,6	23,3

Tirik pillalarni g'umbagi 100°C, 1 soat issiq havoda jonsizlantirib 7 kundan keyingi vazni va ipakdorligi o'rganildi (6-jadval). Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tirik pillalarni ipakdorligiga qaraganda 7 kunlik quruq pillalarning ipakdorligi yuqori chiqdi.

Turli usullarda yetishtirilgan quruq pillalarning 7 kunlik vazni va uning tarkibiy qismlarini chiqishi

Ipak qurti duragaylari	Boqish usuli	Pilla vazni, m _{pil} g	Pilla qobig'i		G'umbak		Ipakdorlik, %
			g	%	g	%	
Zarafshon-2	Tabiiy usul	1,12	0,33	29,4	0,79	70,5	29,4
	Intensiv usul	1,35	0,41	31,5	0,94	68,4	31,5
Zarafshon-3	Tabiiy usul	1,08	0,32	30,2	0,76	69,5	30,2
	Intensiv usul	1,45	0,40	27,8	1,05	71,9	27,8

Tirik pillalarni g'umbagi 100° C, 1 soat issiq havoda jonsizlantirilgan quruq pillalarni yana 16 kundan keyingi vazni va ipakdorligi o'rganildi (7-jadval). Jadvaldan yaqqol ko'rinib turibdiki, tirik va 7 kunlik quruq pillalarga qaraganda 16 kunlik quruq pillalarning ipakdorligi intensiv usullarda yuqori chiqdi. Zarafshon-2 intensiv usulda ipakdorlik 54,6%, Zarafshon-3 intensiv usulda esa ipakdorlik 54,3% bo'ldi.


Turli usullarda yetishtirilgan quruq pillalarning 16 kunlik vazni va uning tarkibiy qismlarini chiqishi

Ipak qurti duragaylari	Boqish usuli	Pilla vazni, m _{pil} g	Pilla qobig'i		G'umbak		Ipakdorlik, %
			g	%	g	%	
Zarafshon-2	Tabiiy usul	0,617	0,325	52,8	0,292	47,3	52,8
	Intensiv usul	0,747	0,408	54,6	0,320	42,8	54,6
Zarafshon-3	Tabiiy usul	0,609	0,319	52,4	0,280	45,9	52,4
	Intensiv usul	0,731	0,397	54,3	0,334	45,7	54,3

Turli usullarda yetishtirilgan tirik va quruq pillalarni 7 va 16 kunlik vaznlari kesilmasdan butunligicha 10 tadan namunalar olinib o'rtacha vazni va quritish koeffisientlari ham o'rganildi. Quritish koeffitsienti-tirik pilla og'irligining quruq pilla (kondetsion namlikdagi) og'irligi nisbatiga aytiladi. Natijalar 8-jadval va 4-rasmlarda keltirilgan.

Turli usullarda yetishtirilgan tirik va quruq pillalarning vazni m_{pil} g va quritish koeffitsienti, %

Ipak qurti duragaylari	Boqish usuli	Tirik pilla	Quruq pilla			
			7 kunlik	quritish koeffitsienti	16 kunlik	quritish koeffitsienti
Zarafshon-2	Tabiiy usul	1,54	1,28	1,20	0,65	2,34
	Intensiv usul	1,66	1,32	1,25	0,71	2,33
Zarafshon-3	Tabiiy usul	1,52	1,14	1,33	0,64	2,35
	Intensiv usul	1,86	1,54	1,21	0,77	2,42



4-rasm. Tabiiy va intensiv usulda yetishtirilgan pillalarning vazn o'zgarishi

Xulosa. Turli usullarda yetishtirilgan tirik pillalarning vazni va uning tarkibiy qismlarini tahlilidan ma'lum bo'ldiki, Zarafshon-2 tabiiy usulda ipakdorlik 22,7% , intensiv usulda 24,3%. Zarafshon-3 tabiiy usulda ipakdorlik 22,3%, intensiv usulda 23,3%. Quruq pillalarning 7 kunlik vazni va ipakdorligi o'rganilganda Zarafshon-2 tabiiy usulda ipakdorlik 29,4% , intensiv usulda 31,5% . Zarafshon-3 tabiiy usulda ipakdorlik 30,2%, intensiv usulda 27,8% ekanligi aniqlandi. Quruq pillalarning 16 kunlik vazni va ipakdorligi o'rganilganda Zarafshon-2 tabiiy usulda ipakdorlik 52,8% , intensiv usulda 54,6% . Zarafshon-3 tabiiy usulda ipakdorlik 52,4%, intensiv usulda 54,3% ekanligi aniqlandi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, intensiv usulda yetishtirilgan pilla duragaylaridan yuqori sifatli xom ipak olish imkoniyati mavjudligi aniqlangan. Har ikkala duragay pillalarini tahlil qilganimizda pillalarning xususiyatlari Zarafshon-2 intensiv usulda yetishtirilgan pillalarda yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi katta hajmdagi tajriba materiallarining statistikasi tadqiqotlarning natijalarini solishtirma baholash mezonlarining mos kelishi, tajriba natijalarining nazariy natijalarga yuqori darajada muvofiqligi bilan izohlanadi.

Reference

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. 2017 yil 29 martdagi "O'zbekipaksanoat" uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2856-sonli qarori
3. 2017 yil 29 martdagi "O'zbekipaksanoat" uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2856-sonli.
4. Sodiqov Davron Sodiq o'g'li. "Ipak qurtini yuqori namlikda boqish intensiv usulini ishlab chiqish va sun'iy dastalarning samaradorligini asoslash". Qishloq xo'jaligi fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati –Toshkent 2021.
5. Qobilova N.J. "Plyonka ostida yetishtirilgan pilla va ipak iplarining texnologik xususiyatlari" Texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2007.
6. G.A. Yusupxodjayeva, X.X. Umrzakova, N.A. Yusupxodjayeva. "Yuqori hosildor pilla yetishtirishning zamonaviy texnologiyasi" To'qimachilik muammolari. 3/2018
7. Изатов М.В. Совершенствование технологии первичной обработки коконов с целью сохранения природных свойств шелка-сырца в условиях Таджикистана. Диссертация на соискание ученой степени кандидата технических наук. Душанбе – 2019.
8. Rahmathulla V.K. " Management of Climatic Factors for Successful Silkworm" Hindawi Publishing Corporation Psyche Volume 2012,View at: [Google Scholar](https://www.hindawi.com/journals/psyche/Management%20of%20Climatic%20Factors%20for%20Successful%20Silkworm%20(Bombyx%20mori%20L.)%20Crop%20and%20Higher%20Silk%20Production%3A%20A.p-4) [https://www.hindawi.com/journals/psyche/ Management of Climatic Factors for Successful Silkworm \(Bombyx mori L.\) Crop and Higher Silk Production: A.p-4](https://www.hindawi.com/journals/psyche/Management of Climatic Factors for Successful Silkworm (Bombyx mori L.) Crop and Higher Silk Production: A.p-4)
9. Hussain, M., S.A. Khan, M. Naeem and A.U. Mohsin International journal of agriculture & biology issn Print: 1560–8530; ISSN Online: 1814–9596 10–284/SAE/2011/13–1–57–60 <http://www.fspublishers.org> Full Length Article To cite this paper:, 2011. Effect of relative humidity on factors of seed cocoon production in some inbred silk worm (Bombyx mori) lines. Int. J. Agric. Biol., 13: 57–60 Effect of Relative Humidity on Factors of Seed Cocoon Production in some Inbred Silk Worm (Bombyx mori) Lines
10. Avazov K.R. Pillalarni quritish texnologiyasi. Darslik. Toshkent-2024.12-bet.
11. Gulamov A.E., Eshmirzayev A.P., Esanova N.B., Umirov U.B. Turli usullarda yetishtirilgan pillalar qobig'ining texnologik xususiyatlarini tadqiqi. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФapПИ ИТЖ, ИТЖ ФерПИ, 2023, Т.27. спец. выпуск №4) . 14-22 betlar.
12. Gulamov A.E., Eshmirzayev A.P., Esanova N.B., Umirov U.B., Yuqori namlikda intensiv usulda yetishtirilgan pillalar qobig'ining texnologik xususiyatlarini tadqiqi. "Soha korxonalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda dual ta'limning o'rni hamda fan, ta'lim, ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirishda innovatsion yondoshuvlar" mavzusiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjumani to'plami 28-noyabr 1-qism. Toshkent-2023.
13. Eshmirzayev A.P. Mahalliy zot pillalardan FY-2008 chuvish avtomatida xom ipak olishning ratsional rejimlarini ishlab chiqish va asoslash. Avtoreferat diss (PhD). Toshkent, 2020. 10-11-b.
14. Biram S.N., Tribuwan S and Beera S. Occurrence of Unfertilized Eggs in the Mulberry Silkworm, Bombyx mori L. Int. J. industry. 2009. 18: 1-7.
15. Rubinov E.B. Texnologiya sh Yolka: Uchebnik dlya . -M.: Legkaya i pishevaya promishlennost'. - 1981. - 392 s. <https://search.rsl.ru/ru/record/01001044919>

JUN TOLALARI ASOSIDA YANGI KOMBINATSIYALANGAN MATOLAR ISHLAB CHIQRISH JARAYONINI TADQIQ QILISH

G.Raxmatova, Sh.X.Samiyeva, G.A.Ixtiyarova
Bukhara Institute of Engineering and Technology

Annotatsiya. Jahonda so'nggi yillarda to'qimachilik va yengil sanoatda yangi turdagi materiallar va tayyor mahsulot tayyorlash dolzarb sohalaridan biri hisoblanib, ushbu sohaning rivojlanishi uchun energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda.

Respublikamizda innovatsion iqtisodiyoti yangi texnologiyalarni qo'llash orqali mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Ushbu maqolada ham aynan, to'qimachilik matolarining kelib chiqish tarixi, shuningdek, jun va boshqa turdagi kombinatsiyalashgan matolarning texnik xususiyatlari, klassifikatsiyasi tahlil qilingan. Kombinatsiyalangan materiallarning xossalari tarkibiy xususiyatlari, ularning mikro va makro tuzilmalari, fazalar chegarasi va bu tuzilmalarning tashqi ta'sirlarga ta'siri haqda ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu noto'qima matolarni ekokiyimlar sifatida to'qimachilik va yengil sanoat sohasida qo'llash imkoniyatlari yoritib berilgan. Shu bilan birga jun tolalarni namatlash, qalinlashtirish va presslash orqali ishlab chiqariladigan to'qimachilik matolari, jun tolasini turli maqsadlarda ishlatishga imkon beruvchi maxsus xususiyatlarga ega ekanligi, hamda yong'inga chidamli va tovushni yutadi, nam o'tkazmasdan katta miqdordagi suyuqlikni ushlab turishi mumkinligi tushuntirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: noto'qima matolar, yengil sanoat, dizayn, kombinatsiya, eko-kiyimlar, ishlab chiqarish.

Аннотация: В последние годы текстильная и легкая промышленность считаются одной из важнейших областей производства новых материалов и готовой продукции, а использование энергоресурсосберегающих технологий и оборудования для развития этой области занимает одно из первых мест. лидирующие позиции.

В нашей республике, инновационной экономике, за счет использования новых технологий принимаются широкие меры по производству импортозамещающей и экспортноориентированной высококачественной продукции из местного сырья и достигаются определенные результаты. В данной статье также анализируется история происхождения текстильных тканей, а также технические характеристики и классификация шерсти и других видов комбинированных тканей. Представлены свойства комбинированных материалов, структурные особенности, их микро- и макроструктуры, фазовые границы и влияние этих структур на внешние воздействия. Освещены возможности использования этих нетканых материалов в качестве эко-одежды в сфере текстильной и легкой промышленности. При этом текстильные полотна, полученные методом валяния, утолщения и прессования шерстяных волокон, обладают особыми свойствами, позволяющими использовать шерстяные волокна для различных целей. , и объясняется, что они огнестойкие, звукопоглощающие и могут удерживать большое количество жидкости, не будучи водонепроницаемыми.

Ключевые слова: нетканые материалы, легкая промышленность, дизайн, комбинация, ЭКО-одежда, производство.

1	Yog' moddalar miqdori, %	14,98	14,3	13,04	12,86	20,0 dan ko'p emas
2	Xrom miqdori, %	6,82	6,82	6,29	6,29	1,0 dan kam emas
3	Gidrotermik destruksiya, °C	85,3	85,0	67,2	67,0	60,0 dan kam emas

Tadqiqot natijalariga ko'ra yog' moddalar miqdori nazorat namunasining umurtqa sohasida 13,04 %, biqin sohasida 12,86 %, tajriba namunasining umurtqa sohasida 14,98 %, biqin sohasida 14,3 %, xrom miqdori nazorat namunasining umurtqa va biqin sohasida 6,29 %, tajriba namunasining umurtqa va biqin sohasida 6,82 %, teri to'qimasining mustahkamlik chegarasi (4,5 MPa) nazorat namunasining umurtqa sohasida 1,8, biqin sohasida 1,7, tajriba namunasining umurtqa sohasida 1,9, biqin sohasida 1,8, gidrotermik destruksiya nazorat namunasining umurtqa sohasida 67,2 °C, biqin sohasida 67,0 °C, tajriba namunasining umurtqa sohasida 85,3 °C, biqin sohasida 85,0 °C, maksimal uzayishi nazorat namunasining umurtqa sohasida 17,0 %, biqin sohasida 19,0 %, tajriba namunasining umurtqa sohasida 18,0 %, biqin sohasida 20,0 %, ekanligini bilgan holda qunduz terilarining biqin va umurtqa sohasidagi an'anaviy oshlash usuli va interpolikompleks oshlovchisi bilan oshlanganlik darajalari taqqoslab chiqildi.

Xulosalar. Natijalardan kuzatish mumkinki, tajriba namunalarida nazoratdagiga nisbatan qunduz terilari tarkibidagi xrom miqdori umurtqa va biqin sohasida 9,1 % ga, gidrotermik destruksiya umurtqa sohasida 26,9 % ga va biqin sohasida 28,3 % ga, yog' moddalar miqdori umurtqa sohasida 14,9 % ga va biqin sohasida 11,2 % ga, mustahkamlik chegarasi umurtqa sohasida 5,5 % ga va biqin sohasida 5,9 % ga, va maksimal uzayishi umurtqa sohasida 5,9 % ga va biqin sohasida 5,2 % ga yuqori ekanligi tajriba sinov natijalari asosida kuzatildi. Natijalarni inobatga olgan holda interpolimerkompleksli oshlovchining an'anaviy oshlash usuliga nisbatan qunduz terisining kollageni bilan faol reaksiyaga kirishib, mustahkam bog'lanishiga ishonch hosil qilindi.

Reference

1. Kazokov F., Kodirov T. Mathematical modeling of factors influencing the process of filling karakul semi-finished products // IOP Publishing, Journal of Physics: Conference Series, doi:10.1088/1742-6596/2388/1/012129. APITECH-IV – 2022
2. Lauren E., Nutria Survivorship, Movement Patterns, and Home Ranges, //Southeastern naturalist, 2009.P.399-410.
3. Kilner NW, Linscombe G, Pamsey PR. Nutria. In: Novak M, Baker JA, Obbard ME, Malloch B, editors. Wild furbearer management and conservation in North America Toronto, Canada. p. 326-343. Ontario: The Ontario Trappers Association, Ontario Ministry of Natural Resources; 1987

-
4. John B., Mark H., Tommy L.B., Jeff J.M., Richard M.P., Nutria (*Myocaster coypus*) in Louisiana, 2002. P.-156.
 5. Radoslav M. Rosen D. Rumen B. Kamelia S., A study of some biological, anatomical and related environmental features of nutria /*myocaster coypus*/from the territory of stara zagora region// Araştırma Makalesi. 2017. P.7-15.
 6. Mikryukova O.S., Tovarovedeniye i ekspertiza pushno-mexovogo sirya, Uchebno-metodicheskoye posobiye, IPS «Prokrost'», 2020.
 7. GOST 2916-84. Shkurki nutrii nevidelanniye. Texnicheskiye usloviy. UDK 637.61:636.932.3:006.354.
 8. Patent Respubliki Uzbekistan IAP 02866. Sposob polucheniya dubitely. Kodirov T.J., Ruziyev R.R., Izobreteniy. Ofitsialniy byulleten №5. 31.10.2005.
 9. Gennaro J., Maffia, Maria Slomiana, John F. Davis. Recent Advances in Collagen Based Technologies // J. Amer. Leather Chem. Assoc., 2002, v.97, № 2.- P. 74-82.
 10. Patent Respubliki Rossiya №2796498. Sposob polucheniya rastitelnogo dubitely. Kodirov T.J., Toshev A.Y., Jumayeva S.H.T., Jumayev O.T., Mamatkarimov S.A., Boymanov S.H.O., Jumayeva G.T., Shoyimov S.H.S.H., Xamidov A.S. Zayavkv №2022118497. 24.05.2023.
 11. Azimov J.Sh., Markevich M.I., Kodirov T.J., Shoyimov s.s., Toshev A.Y., Estimation of the regimes of ablation of the fabric of karakul for glutaraldehyde tanning under the exposure of a laser on yttrium aluminum garnet// Leather and Footwear Journal. 22 (2022) 3. –r. 159-168. <https://doi.org/10.24264/lfj.22.3.1>
 12. Boymanov S.H.O., Qodirov T.J., Azimov J.S.H., Sodiqov N.A., Interpolikompleks birikma yordamida qunduz terilarini oshlash tadqiqoti va uning xossalari//O'zbekiston to'qimachilik jurnali. №3.2021 y. 102-107 bet.
 13. Ork N., Ozgunay H., Mutlu M.M., Ondogan Z. // Comparative Determination of Physical and Fastness Properties of Garment Leathers Tanned with Various Tanning Materials for Leather Skirt Production, Tekstil ve Konfeksiyon,2014.413-418.
 14. Baranov V.A., Texnologiya pererabotki pushno-mexovogo sirya, Uchebnoye posobiye, Kazan 2018.
 15. GOST 12133-86. Shkurki nutrii videlanniye. Texnicheskiye usloviy. UDK 675.03.636.932.3:006.354.

UO'K:687.157:63+677.074.002.84

TIKLANGAN IKKILAMCHI SELLYULOZALI MATOLARNI QISHLOQ XO'JALIGI XODIMLARINING ISHCHI KIYIMLARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

M.X. Isayeva, D.O. Abdusamatova, F.U., Nigmatova A.S.Rafikov

Tashkent Institute of Textile and Light Industry

***Annotatsiya.** Qishloq xo'jaligi xodimlarining ishchi kiyimlari uchun tavsiya etilayotgan, sellyuloza asosli chiqindilardan tiklangan tolalardan tayyorlangan matolarning quruq va nam tuproqqa, hamda quyosh nurlarining ta'sirida bardoshliligi tadqiq etildi. Ishchi kiyimlar uchun qo'llanilayotgan matolarning maxsus xossalari, ularning tarkibi, ularga ishlov berishning mavjudligi va sharoitlari bilan belgilanadi. Xodimlarning mehnat faoliyatlarida ishchi kiyimga qisqa vaqt davomida, vaqti-vaqti bilan nam tuproq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nam tuproq muhitini kiyimning fizik-mexanik xossalariga ta'sirini o'rganish maqsadida tajribalar bajarildi. Birlamchi va tiklangan ikkilamchi sellyulozali matolar uchun o'zaro yaqin natijalar olindi. Sirdaryo, Qibray, Oqqo'rg'on hududlaridan keltirilgan tuproq suspenziyalarini saqlab turilganda birlamchi sellyulozali matolarning ishqalanishga chidamliligi mos ravishda 1 sutkadan keyin 80,2%, 79,4%, 79,4% ga, 15 sutkadan keyin 89,7%, 89,7%, 89,7% ga,*

30 sutkadan keyin esa 92,1%, 94,0%, 92,1% ga kamaygan. Ikkilamchi sellyulozadan tayyorlangan matolar uchun ushbu ko'rsatkichning kamayishi mos ravishda 1 sutkadan keyin 84,3%, 88,8%, 88,8% ga, 15 sutkadan keyin 91,6%, 35,4%, 92,1% ga, 30 sutkadan keyin esa 92,7%, 4,49%, 98,2% ga kamaygan. Ultrabinafsha nurlar ta'sirida materiallarning destruksiyalari ham o'rganildi. Nur ta'sirida matolarning yuza zichligi o'zgarmagan holda, boshqa xossalari ta'sirning birinchi soatida sezilarli kamaygan, keyinchalik kamayish darajasi sekinlashib borgan.

Kalit so'zlar: gidrofob, suspenziya, ultrabinafsha nurlar, chiqindilardan tiklangan sellyuloza, eskirish.

Аннотация. Изучена стойкость к сухой и влажной почве, а также к солнечному свету тканей из целлюлозных волокон, извлеченных из отходов, рекомендуемых для спецодежды работников сельского хозяйства. Особые свойства тканей, используемых для спецодежды, определяются их составом, наличием и условиями их обработки. Во время трудовой деятельности работников рабочая одежда может кратковременно подвергаться воздействию влажной почвы. Были проведены эксперименты с целью изучения влияния влажной почвенной среды на физико-механические свойства одежды. Получены сопоставимые результаты для тканей из первичной и восстановленной целлюлозы. При хранении в почвенных суспензиях Сырдарьинского, Кибрайского, Оккурганского районов стойкость к истиранию тканей из первичной целлюлозы снизилась соответственно до 80,2%, 79,4%, 79,4% через сутки, до 89,7%, 89,7%, 89,7% через 15 суток, до 92,1%, 94,0%, 92,1% через 30 суток. Для тканей из вторичной целлюлозы снижение этого показателя через сутки составляет 84,3%, 88,8%, 88,8%, через 15 суток 91,6%, 35,4%, 92,1%, через 30 суток 92,7%, 4,49%, и 98,2%. Также изучалось разрушение материалов под воздействием ультрафиолетовых лучей. Если поверхностная плотность тканей под воздействием света не изменилась, то другие свойства существенно снизились в первый час воздействия, а затем скорость снижения замедлилась.

Ключевые слова: гидрофобный, суспензионный, ультра-фиолетовые лучи, целлюлоза, извлеченная из отходов, износ.

Abstract. The resistance to dry and wet soil, as well as to sunlight, of fabrics that was made from cellulose fibers extracted from waste, recommended for workwear for agricultural workers, was studied. The special properties of fabrics used for workwear are determined by their composition, availability and processing conditions. During the work activity of workers, work clothes may be briefly exposed to wet soil. Experiments were conducted to study the influence of a moist soil environment on the physical and mechanical properties of clothing. Comparable results were obtained for fabrics wich wear made from virgin and regenerated cellulose. When stored in soil suspensions of the Syrdarya, Kibray, Okkurgan regions, the abrasion resistance of fabrics made from primary cellulose decreased, respectively, to 80.2%, 79.4%, 79.4% after 24 hours, to 89.7%, 89.7%, 89.7% after 15 days, up to 92.1%, 94.0%, 92.1% after 30 days. For fabrics that was made from recycled cellulose, the decrease in this indicator after 24 hours was 84.3%, 88.8%, 88.8%, after 15 days 91.6%, 35.4%, 92.1%, after 30 days 92.7 %, 4.49%, and 98.2% accerdingly. The destruction of materials under the influence of ultraviolet rays was also studied. If the surface density of tissues did not change under the influence of light, then other properties decreased significantly in the first hour of exposure, and then the rate of decrease slowed down.

Keywords: hydrophobic, suspension, ultraviolet rays, cellulose extracted from waste, wear

Kirish. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy iqtisodiyot tarmoqlaridan biri bo'lgan to'qimachilik va yengil sanoatida bugungi kundagi qayd etilgan ba'zi holat va muammolarni

sanab o'tmoqchimiz. Birinchidan, tabiiy tolalardan tayyorlangan mato va kiyimlarning kimyoviy tolalardan tayyorlanganiga nisbatan, avvalo inson salomatligi uchun muhim bo'lgan sanitar-gigienik xossalari bo'yicha, so'zsiz ustunligi. Ikkinchidan, tabiiy tolalarni yetishtirish va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan texnik-iqtisodiy va ijtimoiy muammolar tufayli xomashyo zahiralarning tanqisligi. Uchinchidan, tola, kalava, mato, kiyim ishlab chiqarish jarayonlarida hosil bo'ladigan texnologik chiqindilardan hamda buyumlarning xizmat muddatidan keyingi maishiy chiqindilardan samarali foydalanish bo'yicha yechilmagan muammolarning mavjudligi. Sanab o'tilgan muammolarning ko'plab tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan bir qancha yechimlari mavjud. Jumladan, mato va kiyim tayyorlashda tabiiy va sintetik tolalar aralashmasidan foydalanish; sanoat va maishiy tolalali chiqindilarni kompleks qayta ishlash orqali maxsus mato va kiyimlar ishlab chiqarishda va texnik maqsadlarda foydalanish va hokazo.

Nazariy tadqiqotlar. Chiqindilardan tiklangan selluloza asosida mato ishlab chiqarish va undan ayrim soha xizmatchilarining ishchi kiyimlarida foydalanish bo'yicha qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan.

So'nggi yillarda to'qimachilik sanoati ko'plab xaridorlarning kundalik, shu bilan birga innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talabi ortib borayotganligi sababli istiqbolli bozorga aylandi [1]. Bu ulkan sanoat rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining eng kuchli tarmoqlaridan biri sifatida tan olingan [2]. To'qimachilik sanoati turli xil kimyoviy jarayonlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi, asosan iflosliklar va bo'yoqlarni chiqarib yuborish va istalgan pardozlashni ta'minlashga qaratilgan [3]. So'nggi o'n yilliklarda to'qimachilik iste'molining o'sishi ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlariga ekologik toza va gigiyenik to'qimachilik mahsulotlarini qo'llash orqali aholi ehtiyojlarini qondirish uchun samarali, arzon va ekologik barqaror texnologiyalarni ishlab chiqish uchun kuchli bosimni keltirib chiqardi [4].

To'qimachilik sanoati atrof-muhitning sezilarli darajada ifloslanishiga va resurs iste'moliga olib keladi. To'qimachilik chiqindilari muammosini hal qilish uchun eng keng tarqalgan tabiiy tola - paxtani samarali qayta ishlash juda muhimdir. To'qimachilik paxta chiqindilarini oqartirish, eritish, qayta tiklash va vakuumli filtrlash asosida payvandlanadigan va dasturlashtiriladigan namlik bilan faollashtirilgan qayta tiklangan selluloza plyonkasini ishlab chiqish tadqiq etildi. To'qimachilik paxta chiqindilarini samarali, tejamkor qayta ishlash va ulardan oqilona foydalanish istiqbollari namoyish etishi ko'rsatildi [5]. Sellyuloza tolali chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarda selluloza tolali chiqindilar, qayta ishlov berilgan selluloza tolali chiqindilari asosida gul bosish jarayonida bo'yoq tarkibi ishlab chiqilgan va rangsizlantirilgan-oqartirilgan tolali materiallarni qayta bo'yashning samarali resurstejamkor texnologiyasi yaratilgan [6]. So'nggi yillarda to'quvchilikda bir nechta fizik-kimyoviy va texnologik jarayonlarni umumlashtirish dolzarb vazifaga aylanayotganligini ko'rsatdi [7,8]. Ko'pgina to'qimachilik mahsulotlari iplar aralashmasidan tayyorlanadi, eng keng tarqalgani polikotton deb ataladigan poliefir va paxta aralashmalaridir.

Poliefir va paxta aralashmasidan tayyorlangan mato chiqindilarini tarkibiy qismlarga mexanik ajratish deyarli imkonsiz, chunki poliefir va selluloza tolalari mato ipida to'liq aralashtiriladi va ularni mexanik ravishda ajratib bo'lmaydi. Ularga kimyoviy ishlov berish mumkin, bu tolaning tarkibiy qismlaridan birini eritib yoki depolimerizatsiya qilib, ikkinchisini saqlab qolish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda aralashtirilgan matolardan poliefirni eritish iqtisodiy va ekologik jihatdan qulaydir [9,10].

Ishchilar kostyumlari uchun tanlangan matolarning sifatini belgilovchi asosiy omil ularning faoliyati davomida namoyon bo'ladigan turli xil tashqi ta'sirlarga barqarorligi hisoblanadi. Bu esa matolar xususiyatlarining o'zgarishiga va buning natijasida kiyilgan kiyimlarning tez eskirishiga olib keladi. Shuningdek, maxsus kiyimni loyihalashda, ish vaqtida maxsus kiyimdan foydalanilganda unga bir vaqtning o'zida atrof-muhitning bir nechta salbiy tarkibiy qismlari ta'sir qilishini hisobga olish kerak. Chunki matolarning sifatiga ekspluatatsion omillar ta'sir ko'rsatadi, tuzilishi va tolali tarkibiga qarab xossalarni o'rganish va maxsus

kiyimlarini ishlatish sharoitlarini aniqlash nazariy va amaliy qiziqish kasb etadi [11]. Maxsus (gidrofob, oleofob, issiq va olovbardosh) xossalari materiallar tabiatan shunday xususiyatga ega bo'lgan tolalardan ishlab chiqariladi yoki matoga shunday xossa bag'ishlovchi moddalar bilan ishlov beriladi. Ko'pincha maxsus xossa beruvchi moddalar bilan to'qimachilik materiallarining tolalari yomon bog'langanligi tufayli ulardan foydalanish jarayonida himoya xususiyatlarining kamayishi kuzatiladi. Shu munosabat bilan asosiy materialning tolalariga maxsus xossa beruvchi moddalarni kimyoviy fiksatsiya qilish usuli eng istiqbolli usul hisoblanadi [12,13].

Real sharoitlarda materiallarni destruksiyasi bir emas, balki bir nechta destruksiyalovchi omillar majmuasi ta'siri ostida sodir bo'ladi. Cho'zilish, bukilish va siqilish deformatsiyalari ta'sirida to'qimachilik materiallarining xususiyatlari mahsulotdagi alohida iplar orasidagi, iplardagi alohida tolalar orasidagi bog'larning bo'shashishi, shuningdek, massani yo'qotmasdan molekula ichidagi tuzilish tufayli yomonlashadi.

Ko'p marta cho'zish natijasida to'qimalarning kuchini pasaytirish darajasi asosan ularning tolali tarkibiga bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, kiyimlardan foydalanish va ularni saqlash paytida turli xil eskirish omillari ta'sir qiladi. Ular orasida fizik-kimyoviy (suv, ter, yuvish vositalari, issiq dazmolning ta'siri), kimyoviy (ishqorlar, kislotalar, yoqilg'i, agressiv suyuqliklarning ta'siri), biologik (mikroorganizmlar va hasharotlarning ta'siri), mexanik (ishqalanish, cho'zilish, takroriy bukilish) va kombinatsiyalangan omillar ta'sir ko'rsatadi [14].

To'qimachilik materiallarining biodestruksiyasiga saqlash omillarining ta'siri bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan [15]. Bir qator olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotda takroriy cho'zilish, bukilish, ishqalanish, nam issiqlik bilan ishlov berish va ultrabinafsha nurlar ta'sirida maxsus maqsadli materiallarning destruksiyasi o'rganildi.

Har xil turdagi ko'p, miqdordagi chang chiqarish bilan bog'liq ishlar uchun ish kiyimlarini ishlab chiqarishda zichligi yuqori, yuzasi silliq, kam kirishuvchan, havo va namlikni yetarli darajada o'tkazuvchan matolardan foydalaniladi. Harorat va namlikni hisobga olgan holda, ishlab chiqarish binolari sharoitlari uchun yengil matolar (satin to'quvli paxta) tavsiya etiladi.

To'quvning tabiati va tuzilishi nuqtai nazaridan, g'ovaklari o'ralgan kanallarni tashkil etuvchi, zichligi yuqori bo'lgan matolar changdan himoya qilish talablariga eng yaxshi javob beradi [16].

Ushbu maqola tadqiqotining maqsadi tiklangan ikkilamchi sellulozali matolardan tikiladigan qishloq xo'jaligi xodimlarining ishchi kiyimlariga quruq va nam tuproqning, quyosh nurlarining ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tajribaviy izlanishlar. Asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida chiqindilardan tiklangan selluloza tolaridan tayyorlangan yuza zichligi $259,6 \text{ g/m}^2$, tarkibi tanda ipi 100% paxta tolali, arqoq ipi 50% paxta va 50% viskoza tolasidan iborat bo'lgan gazlama tanlangan. Uning xossalari: gazlama qalinligi 0,9 mm, ishqalanishga chidamliligi 17800 sikl, havo o'tkazuvchanligi $31,4 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \times \text{sek}$, uzilishdagi cho'zilishi tanda ipi 51,0 mm, arqoq ipi 61,0 mm, uzilish kuchi (tanda) 560,0 N, arqoq ipi 420,0 N, kirishish ko'rsatkichi tanda ipi -1,0 %, (arqoq) +1,5 %.

Solishtirish uchun birlamchi selluloza tolalaridan tayyorlangan yuza zichligi $277,9 \text{ g/m}^2$, tarkibi tanda ipi 100% paxta tolali, arqoq ipi 100 % paxta tolasidan iborat bo'lgan gazlama tanlangan. Uning xossalari: gazlama qalinligi 0,6 mm, ishqalanishga chidamliligi 12600 sikl, havo o'tkazuvchanligi $46,7 \text{ sm}^3/\text{sm}^2 \times \text{sek}$, uzilishdagi cho'zilishi tanda ipi 57,8 mm, arqoq ipi 72,6 mm, uzilish kuchi tanda ipi 480,4 N, arqoq ipi 407,9 N, kirishish ko'rsatkichi tanda ipi -0,5 %, arqoq ipi -1,5 %.

Sinov tajribalari Toshkent viloyatining Qibray va Oqqo'rg'on tumanlari hamda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumani dalalaridan keltirilgan tuproq namunalari bilan bajarildi. Tuproqning xossalari 1-jadvalda keltirilgan.

Matolarga gidrofob ishlov berish uchun "Chemical Pulcra" o'zbek-turk korxonasi taqdim etgan perftorakrilat va diizosianat oligomerlari asosidagi emulsiyasi (PDOE) tanlandi [17].

Respublikaning turli hududlaridan keltirilgan tuproq namunalarning xossalari

№	Tuproq tipi	Hajm massasi, g/sm ³	Mexanik tarkibi	Suspenziya pH ko'rsatkichi
1	Sirdaryo (bo'z-o'tloqi tuproqlar)	1,36	Yengil va o'rta qumoqli	7,34
2	Oqqo'rg'on (o'tloqi - bo'z tuproqlar)	1,34	Og'ir va o'rta qumoqli	7,24
3	Qibray (tipik bo'z tuproqlar)	1,32	Og'ir qumoqli	7,28

Matoni appretlashga tayyorlash uchun 3 l suvga 30 g ichimlik sodasi (NaHCO₃) va 15 g xo'jalik sovuni solingan eritmada matoni qaynatildi va sovuq suvda yuvildi. Natriy gidroksidning 1% li eritmasini tayyorlab, 1 soat davomida bo'ktirildi. Keyin yaxshilab yuvib, oxirida distillangan suvda chayildi va quritildi. Matoga gidrofob ishlov berish uchun matolardan 5x30 sm o'lchamda namunalar qirqib olindi. Namunani massasini o'lchab, PDOE shimdirildi, laboratoriya vallari yordamida massasi 80-100% ga ortish darajasigacha siqildi va xona temperaturasida quritildi. PDOE shimdirilgan mato 160-165°C temperaturada 3-5 minut davomida termofiksatsiya qilindi.

Quyosh muhitini kiyimning ekspluatatsion xossalari ta'sirini baholash maqsadida quyidagi uslub bo'yicha tajribalar bajarildi. Gidrofob xossa berilgan namunalarni 1 soat, 5 soat, 10 soat, 20 soatga 27-30°C temperaturada quyosh nurlari ta'sirida ushlab turildi. Nam tuproq muhitini kiyimning ekspluatatsion xossalari ta'sirini baholash maqsadida quyidagi uslub bo'yicha tajribalar bajarildi. 5x20 sm o'lchamda namunalar qirqib olindi. Namuna massasini o'lchab, Toshkent viloyatining Qibray va Oqqo'rg'on tumanlari hamda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumani dalalaridan keltirilgan tuproqlardan 100 gramm tortib olib, 1000 ml suvda aralashtirib suspenziya hosil qilindi va namunalarni 1 sutka, 15 sutka, 30 sutkaga suspenziyada xona temperaturasida qoldirildi. Suspenziyani vaqti-vaqti bilan tez-tez chayqatib aralashtirib turildi. Keyin namunalarni oqib turgan suvda yuvib quritishga xona temperaturasida qoldirildi, massasi o'lchanib, fizik-mexanik xossalari aniqlandi. Matolarning yuza zichligi 3811 Davlat standarti bo'yicha aniqlandi. "GX-400" maxsus tarozida 50x50 mm o'lchamdagi mato namunalari har biri 3 martadan o'lchab aniqlandi. Matolarning tarkibi "Kimyoviy texnologiya" kafedrasida laboratoriyasida aniqlandi [18]. Mato namunalari qalinligi matoni tolshinometr o'lchov asbobi oraliqiga joylash orqali o'lcham (mm) olindi. Havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi 29298-2005 Davlat standarti bo'yicha "AP-360 SM" – qurilmasida, 100x100 mm namunalar olinib, har bir namuna 3 martadan qurilma o'rnatgich qismiga mahkamlandi, havo bosimi jo'natib (sm³/sm²×sek) o'lchandi.

Namunalarning uzilishdagi cho'zilishi 3813-72 Davlat standarti va uzilish kuchi (N) ko'rsatkichi 3813 Davlat standarti bo'yicha AG-I qurilmasida, 300x50 mm o'lchamdagi mato namunalari 3 martadan o'lchab aniqlandi. Uzilishdagi cho'zilishini aniqlash uchun namunalar lenta shaklida kesildi, har biri tanda va arqoq uchun (%) aniqlandi. Uzilish kuchi (N) uskunang tishli tutgichlariga 50 mm li ikki tomoni o'rnatildi va uskuna maxsus tugmachasini bosish orqali tortilish kuchi ta'sirida necha Nyuton kuchda uzilishi aniqlandi. Ishqalanishga chidamliligi 12947-2014 Davlat standartlari bo'yicha M-235/3 qurilmasida MARTINDALE usuli yordamida aniqlandi. Namunalar 200x200 mm o'lchamda kesilib, diskda tekshirilayotgan matoning sinov doirasiga joylashtirildi. Namunaning chetlari halqalar bilan mahkamlanadi va unga yuk qo'yiladi, bu esa namunada taranglik keltirib chiqaradi. Disklarning eksentrik joylashuvi tufayli mato yuzasining barcha nuqtalari turli yo'nalishlarda ishqalanadi. Sinov namunasida teshiklar paydo bo'lishi bilan jarayon to'xtatildi va displeyda ko'rsatiladigan aylanish davrlari soni (sikl) yozildi.

Namunalarining har biri 3 martadan o'lachab aniqlandi. Qishloq xo'jaligi dalalarida mehnat qiluvchi xodimlarning kiyimlari asosan quyosh, quruq va nam tuproq ta'siriga uchragan sharoitda xizmat qiladi. Biroq shu ta'sirlarni hisobga olgan holda ishchi kiyimga qo'yiladigan talablarni aks ettiruvchi standartlar mavjud emas. Ma'lumki, tuproq hosil qiladigan agressiv muhit ko'p jihatdan hududning gidro-biologik va iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda biz respublikamizning turli uchta hududidan keltirilgan tuproq ishtirokida tajribalarni bajardik. Sirdaryodan keltirilgan tuproqning tarkibida turli tuzlar (xloridli, sulfatli, natriy tuzlari, soda) bo'ladi. Oqqo'rg'ondan keltirilgan tuproq ifloslangan tuproq bo'lib, uning tarkibida og'ir metallar bo'ladi. Qibraydan keltirilgan tuproq oddiy tuproq hisoblanadi. Tuproq muhitini matolarning fizik-mexanik xossalriga ta'siri 2-jadval ma'lumotlarida keltirilgan. Jadvaldagi 1-namuna birlamchi selluloza tolalaridan tayyorlangan gazlama, 2-namuna chiqindilardan tiklangan selluloza tolaridan tayyorlangan gazlama, 3-namuna ikkilamchi selluloza tolaridan tayyorlangan, gidrofob ishlov berilgan gazlama.

2-jadval

Tuproq suspenziyasini matoning fizik-mexanik ko'rsatkichlariga ta'siri

№	Region		Sirdaryo			Qibray			Oqqo'rg'on		
	Ko'rsatkichlar	Vahti	1-namuna	2-namuna	3-namuna	1-namuna	2-namuna	3-namuna	1-namuna	2-namuna	3-namuna
1	Yuza zichligi, g/m ²	ishlov berilmagan	277,9	259,6	284	277,9	259,6	284	277,9	259,6	284
		1	269,8	274,6	259,3	275,2	256,6	264,8	268,1	262,1	264,9
		15	281,4	272,4	282,6	270,2	297,5	260,0	296,3	296,3	268,5
		30	287,1	303,9	283,0	277,4	243,8	260,3	285,9	246,0	262,4
2	Ishqalanishga chidamlilik, sikl	ishlov berilmagan	12600	17800	18200	12600	17800	18200	12600	17800	18200
		1	2500	2800	7100	2600	2000	6200	2600	2000	7200
		15	1300	1500	5500	1300	1500	5500	1300	1400	4300
		30	1000	1300	2600	750	800	4100	1000	320	2750
3	Havo o'tkazuvchanlik, dm ³ /sm ² ×sek	ishlov berilmagan	46,7	31,4	27,1	46,7	31,4	27,1	46,7	31,4	27,1
		1	48,26	14,30	17,07	50,87	17,07	15,37	54,42	16,60	16,60
		15	57,50	21,50	11,98	41,12	11,98	11,98	48,30	20,14	11,96
		30	44,61	14,71	14,71	44,46	29,52	19,50	49,08	21,57	21,57
4	Uzilishdagi cho'zilish, mm (tanda)	ishlov berilmagan	57,8	51,0	52,0	57,8	51,0	52,0	57,8	51,0	52,0
		1	32,4	2,8	30,9	29,3	25,8	32,0	34,4	26,0	31,4
		15	22,5	20,8	31,5	31,0	21,8	30,0	32,0	26,0	31,4
		30	34,6	13,0	16,0	28,5	9,0	12,0	34,6	18,0	23,2
5	Uzilishdagi cho'zilish, mm (arqoq)	ishlov berilmagan	72,6	61,0	60,0	72,6	61,0	60,0	72,6	61,0	60,0
		1	24,9	26,3	27,6	18,1	24,6	32,6	17,2	26,7	30,2
		15	26,5	24,2	24,6	27,5	22,2	31,6	26,0	23,7	28,0
		30	16,8	19,5	18,0	15,0	16,5	20,5	37,0	20,5	24,1
6	Uzilish kuchi, N (tanda)	ishlov berilmagan	480,4	560,0	570	480,4	560,0	570	480,4	560,0	570
		1	484,0	508,0	425,5	432,5	456,5	490,0	454,0	476,0	488,0
		15	186,5	408,0	400,5	351,5	440,5	320,0	363,5	470,0	340,0
		30	153,5	119,5	155,0	250,5	320,5	234,5	208,5	279,0	231,0
7	Uzilish kuchi, N (arqoq)	ishlov berilmagan	407,9	420,0	431,0	407,9	420,0	431,0	407,9	420,0	431,0
		1	446,5	361,0	276,5	320,5	308,0	377,5	318,5	386,5	372,5
		15	338,0	361,0	250,5	236,5	305,0	233,5	240,0	260,5	224,5
		30	278,0	212,5	237,0	212,5	219,5	215,5	191,5	115,5	117,5

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra har uchchala hududdan keltirilgan tuproq suspenziyasining muhiti agressiv xarakterga ega, matoning fizik-mexanik xossalarini sezilarli kamaytirishiga sabab bo'ladi. Solishtirish va baho berishni yaqqol namoyon etish uchun asosiy ko'rsatkichlarning foizlarda ifodalangan qiymatlari 3-jadvalda keltirilgan.


3-jadval

Tuproq suspenziyasini matoning asosiy fizik-mexanik ko'rsatkichlarini o'zgarish darajasi (%)


№	Region		Sirdaryo		Qibray		Oqqo'rg'on	
	Ko'rsatkichlar	Vahti	1-namuna	2-namuna	1-namuna	2-namuna	1-namuna	2-namuna
2	Ishqalanishga chidamlilik, sikl	15 kun	-89,7	-91,6	-89,7	-35,4	-89,7	-92,1
		30 kun	-92,1	-92,7	-94,0	-4,49	-92,1	-98,2
3	Havo o'tkazuvchanlik, $\text{sm}^3/\text{sm}^2 \times \text{sek}$	15 kun	+23,1	-31,5	-11,95	-61,9	+3,4	-35,9
		30 kun	-4,48	-53,2	-4,8	-5,99	+5,1	-31,3
6	Uzilish kuchi, N (tanda)	15 kun	-61,2	-27,1	-26,8	-21,3	-24,3	-16,1
		30 kun	-68,0	-78,7	-47,9	-42,8	-56,6	-50,2
7	Uzilish kuchi, N (arqoq)	15 kun	-17,1	-14,0	-42,0	-27,4	-41,1	-37,9
		30 kun	-31,8	-49,4	-47,9	-47,7	-53,1	-72,5

Olingan natijalarga ko'ra, o'tkazilgan sinov tajribalaridan so'ng aniqlangan matolarning fizik-mexanik ko'rsatkichlari ichida eng ko'p darajada kamaygan ko'rsatkich – bu matolarning ishqalanishga chidamliligi bo'lib chiqdi. Hududlar bo'yicha tuproqlarni matoning fizik-mexanik ko'rsatkichlariga salbiy ta'siri quyidagi qatorda ortib boradi: Qibray < Sirdaryo < Oqqo'rg'on. Qo'llanilgan gidrofob ishlov beruvchi tarkibning matoga suvni shimdirmaslik va suv o'tkazmaslik xossasini bag'ishlashligi ma'lum edi [17]. Bizning holatimizda gidrofob ishlov berish mato xossalari o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmagan. Aksincha, gidrofoblik xususiyatini bag'ishlovchi moddalar tuproq suspenziyasi bilan uzoq vaqt ta'sirlashishi natijasida muhitning agressivlik xususiyatini kuchaytirgan bo'lishi kerak.


Keyingi tajribalar mato namunalari bevosita quyosh nurlari ta'sirini o'rganishga bag'ishlanadi. Bir necha soat davomida quyosh nurining bevosita ta'sirida bo'lgan gidrofob xossa berilgan matolarning fizik-mexanik xossalarini o'zgarishi 1-4 rasmlarda keltirilgan.




1-rasm. Matolarning yuza zichligiga quyosh nurining ta'siri




2-rasm. Matolarning ishqalanishga chidamlilik xususiyatlariga quyosh nurining ta'siri



3-rasm. Matolarning havo o'tkazuvchanlik xususiyatlariga quyosh nurining ta'siri



4-rasm. Matolarning uzilishdagi cho'zilish xususiyatlariga bilan quyosh nurining ta'siri



5-rasm. Matolarning uzilish kuchiga quyosh nurining ta'siri

Sellyuloza tolalariga quyosh nuri, ayniqsa uning ultrabinafsha spektri o'ta salbiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum. Bunda selluloza tolasi destruksiyaga uchrab, molekulyar massasi kamayib ketadi va mos ravishda fizik-mexanik xossalari kamayadi.

Ushbu holat olingan natijalarda ham o'z aksini topgan. Biroq biz kutganimizdan farqli ravishda quyosh nurlari tuproq suspenziyasiga nisbatan matoning xossalarini kamroq o'zgartirgan. Nur ta'sirida matolarning yuza zichligi o'zgarmagani holda, boshqa xossalari ta'sirning birinchi soatida sezilarli kamaygan, keyinchalik kamayish darajasi sekinlashib borgan. Aynan shu natijani ijobiy sifatida qabul qilish mumkin-ki, qishloq xo'jaligi xodimlarining ishchi kiyimlari uzoq vaqt quyosh nurlari ta'sirida bo'lishligi ma'lum.

Albatta sinov o'tkazilgan tajriba sharoiti ancha keskin: mato namunalari uzoq vaqt davomida uzluksiz agressiv muhit sharoitida bo'lgan. Amalda qishloq xo'jaligi xodimlarining mehnat faoliyatlarida ishchi kiyimga qisqa vaqt davomida, vaqti-vaqti bilan nam tuproq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun o'tkazilgan sinov tajribalaridan olingan ma'lumotlarni "tezlashtirilgan eskirish" natijalari deb qarash mumkin.

Birinchidan, bu natijalarni amaldagi real holatga ko'chirish uchun "to'g'rilash koeffitsienti"ni kiritish kerak. Ikkinchidan, olingan natijalar qishloq xo'jaligi xodimlarining ishchi kiyimlariga qo'yiladigan talablar va ularni sinash metodikasi aks ettirilgan texnik standart ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

Xulosa. Maxsus kiyimlar uchun qo'llanilayotgan matolarning xossalari ularning tarkibi, ularga ishlov berishning mavjudligi va sharoitlari bilan belgilanadi. To'qimachilik materiallarining xususiyatlarini o'rganishda ularga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tuproq, nam tuproq va ultrabinafsha nurlarining ta'sirini aniqlash maqsadida o'tkazilgan bir qator tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Boyovut va Qibray tumanlaridan keltirilgan tuproq suspenziyalari muhitida birlamchi sellulozali matoning o'rtacha uzilish kuchi mos ravishda 1 sutkadan keyin 0,7 %, 9,97% ga ortgan, 15 sutkadan keyin 61,2 %, 26,8% ga, 30 sutkadan keyin esa 68,0%, 47,9% ga kamaygan.

Xuddi shu tuproq muhitida ikkilamchi sellulozadan tayyorlangan matoning o'rtacha uzilish kuchi mos ravishda 1 sutkadan keyin 9,3%, 1,8% ga, 15 sutkadan keyin 27,1%, 21,3% ga, 30 sutkadan keyin esa 78,7%, 42,8% ga kamaygan. Aniqlangan fizik-mexanik ko'rsatkichlariga ko'ra, chiqindilardan tiklangan selluloza tolaridan tayyorlangan, tarkibi tanda ipi 100% paxta tolali, arqoq ipi esa 50% paxta va 50% viskoza tolasidan iborat bo'lgan mato Sirdaryo va Qibray tumanlaridagi qishloq xo'jaligi xodimlarining ishchi kiyimlari uchun tavsiya etiladi.

Reference

1. Amoozegar M.A., Mehrshad M., Akhoondi H. Application of extremophilic microorganisms in decolorization and biodegradation of textile wastewater. S.N. Singh (Ed.), Microbial Degradation of Synthetic Dyes in Wastewaters, Environmental Science and Engineering, 2015, https://doi.org/10.1007/978-3-319-10942-8_12
2. Sarkar S., Soren K., Chakraborty P., Bandopadhyay R. Application of enzymes in textile functional finishing. Advances in Functional Finishing of Textiles, Textile Science and Clothing Technology, Springer, Singapore, M. Shahid, R. Adivarekar eds., Singapore, 2020, P. 115-127 https://doi.org/10.1007/978-981-15-3669-4_5
3. Periyasamy A.P. , Rwahwire S., Zhao Y. Environmental Friendly Textile Processing. Handbook of Ecomaterials., Springer, 2019, P. 1521-1558 <https://doi.org/10.1007/978-3-319->
4. Hasanbeigi A., Price L.A technical review of emerging technologies for energy and water efficiency and pollution reduction in the textile industry. Journal of Cleaner Production., 2015, V.95, P. 30-44, <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2015.02.079>
5. Weldable and calligraphy programmable humidity-actuated regenerated cellulose film from waste cotton fabric. Weiqiang Fan , Yongzhen Wang , Rulin Liu, Jing Zou, Weiyi Cai, Jing Cheng, Xiang Yu, Yaming Liu, Chao Zhi, Jiaguang Meng / Journal of Cleaner Production. Volume 434, 1 january 2024, 140092, <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2023.140092>
6. Abdumajidov A.A. Sellyuloza tolali chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi, Toshkent, TTYeSI, 2022, 119 b.
7. Stegmaier T., Wunderlich W., Hager T., Planck H. Flame-retardant coating of single threads in sizing process // Melliand Textilberichte. 89, 2008, E135-E137+446-449.
8. Basak S., Laha A., Bar M., Roy R. Recent advances in protective textile materials // Advanced Textile Engineering Materials. 1, 2018, 55-86.
9. B.Baghaei Mechanical properties of all-cellulose composites from end-of-life textiles/ Journal of Polymer Research 11 avgust 2020 Yolume 27, №260 (2020)
10. Xuwen Sun, Canhui Lu, Wei Zhang, Dong Tian, Xinxing Zhang. Asetone-soluble cellulose acetate extracted from waste blended fabrics via ionic liquid catalyzed acetylation/ Carbohydr Polym. 2013 Oct. 15; 98 (1): 403-11. DOI: 10.1016/j.carbpol.2013.05.089.
11. Aslanyan A.A. Issledovanie i razrabotka metodik otsenki fiziko-mexanicheskix svoystv tekstilnix materialov dlya stroitelnix spetsialnostey. Diss. na soiskanie uchenoy stepeni kandidata texnicheskix nauk. Moskva, «Rossiyskiy gosudarstvenno`y universitet im. A.N. Koso`gina (Texnologii. Dizayn. Iskusstvo), 2018, 152 c.
12. Nabiev N., Md. Raju A., Quan H., Rafikov A. Extractions of collagen from cattle skin and synthesis of collagen based flame retardant composition and introduction into cellulose textile material by graft copolymerization // Asian Journal of chemistry. 2017, V. 29, №11. P. 2470-
13. Rafikov A.S., Khakimova M.Sh., Fayzullayeva D.A., Reyimov A.F. Microstructure, morphology and strength of cotton yarns sized by collagen solution // Cellulose DOI: 10.1007/s10570-020-03450-w, 2020
14. 2020 №4, <https://kostumologiya.ru/PDF/22TLKL420.pdf/>
15. Kotomenkova O.G., Vinogradova A.V. Dispersionniy analiz vliyaniya usloviy i srokov xraneniya na stepen biodestruktsii tekstilnix materialov//Upravlenie ekonomicheskimi sredstvami: elektronniy nauchniy jurnal. 2018. № 9 (115). C. 6.
16. Safronova, N.A. Spetsodejda i spetsobuv dlya rabotnikov ximicheskoy, neftepererabativayuey i nefteximicheskoy promishlennosti /N.A. Safronova.2-e izd., pererab. i dop. — M.: Ximiya,1984, 175 c.
17. Nabiev N.D., Abdusamatova D.O., Djalilov Sh.S., Rafikov A.S. Poluchenie i svoystva gidrofobnogo tekstilnogo materiala // Universum:Ximiya i biologiya, 2020, №6(72). URL: <http://7universum.com/ru/nature/archive/item/9510>

Mualliflar uchun qoidalar

Tahririyat mualliflardan quyidagi qoidalarga rioya qilishni soʻraydi:

1. Jurnalda faqat original materiallardan iborat ilmiy maqolalar chop etiladi. Mualliflar maqolaning avval nashr etilmaganligi, boshqa nashrda chop etish uchun topshirilmaganligi va keyinchalik boshqa jurnalda chop etmaslik toʻgʻrisidagi masʼuliyatlarni oʻz zimmasiga oladi.

2. Maqolaning hajmi odatda 6 betdan kam boʻlmasligi, matn 1 interval oraliqda MS yoki MS Word 7.0 Times New Roman 12 kegl shriftlarida terilgan boʻlishi kerak (oʻzbek, ingliz va rus tillarida yozilgan Annotatsiya, shakl, jadval va adabiyotlar royxati shu hajmga kiradi). Maqola quyidagi qismlardan iborat boʻlishi kerak: Annotatsiya, kalit soʻzlar (keywords ingliz tilida), kirish; nazariy tadqiqodlar; tajribaviy izlanishlar; natijalar tahlili; xulosa kabi qismlarga ajralgan boʻlishi shart.

3. Maqolaning matni, jadval va shakllari ikki nusxada chop etishga tayyor holda taqdim etilishi va barcha mualliflar tomonidan imzolangan boʻlishi zarur.

4. Formulalar va matematik belgilashlarning hammasi Microsoft Equation muharririda teriladi, formulalarning tartib raqamlari oddiy qavslar ichida matnning oʻng tomoniga joylashtiriladi.

5. Shakllar Word da bajarilgan boʻlishi va har bir shaklning oʻlchamlari 12x15 sm dan oshmasligi zarur.

6. Har bir jadvalga tegishli sarlavha qoʻyilgan va agarda ularning soni bittadan koʻp boʻlsa, tartib bilan raqamlangan boʻlishi zarur.

7. Adabiyotlar royxati umumiy qabul qilingan talablarga (qoida taqdim etiladi) muvofiq rasmiylashtiriladi hamda qoʻlyozma oxiridagi umumiy royxatda keltiriladi. Kamida 15 ta adabiyotlardan foydalanilgan boʻlishi shart. Foydalanilgan adabiyotlar eski boʻlmagan soʻnggi 5-10 yillik adabiyotlari tavsiya etiladi. Roʻyxat maqola matnida foydalanilgan tartibda yoziladi. Adabiyotlar tilidan qatʼi nazar lotin alifbosida yozilishi shart "Reference" deb yoziladi.

8. Qoʻlyozma matnida adabiyotlarga ishora kvadrat qavslarda beriladi (masalan [1,2] yoki [1-4]). Chop etilmagan ishlarga ishora qilish va ularni roʻyxatda keltirish mumkin emas.

9. Foydalanilgan adabiyotlarda **Scopus** yoki **Scimedirect** xalqaro ilmiy-texnik maʼlumotlar baʼzalaridan foydalanilgan boʻlishi shart.

10. Maqolaning asosiy maqsadi, olingan natija, xulosa va tavsiyalarni oʻz ichiga olgan uch tildagi (oʻzbekcha, inglizcha va ruscha) Annotatsiyalar boʻlishi va har birining hajmi 150-300 tagacha soʻzdan iborat boʻlishi kerak. Maqolaning nomi va oʻzbek tilidagi Annotatsiyasi lotin yozuvida ham keltiriladi.

11. Maqolaga quyidagilar ilova qilinadi;
bosmadan chiqarilgan ikki nusxa qoʻlyozma;
qoʻlyozmaning elektron varianti.

12. Maqolani chop etishga tavsiya etuvchi korxonaning ilmiy ekspert xulosasi va odatda mazkur jurnalda chop etish uchun kafedra tavsiyasi (yigʻilish bayonnomasidan koʻchirma) ilova etiladi.

13. Mualliflar haqidagi maʼlumotnomada mualliflarning ismi, sharifi, otasining ismi (toʻliq yoziladi); ilmiy darajasi; ilmiy unvoni; lavozimi va tadqiqotlar oʻtkazilgan muassasaning toʻliq nomi, manzili va telefon raqamlari ham da email keltiriladi.

14. Ushbu qoidalarga javob bermaydigan hamda zarur qoʻshimcha hujjatlar ilova qilinmagan maqolalar qabul qilinmaydi.

15. Tahririyat maqolaga mualliflarning roziligisiz tahririy oʻzgartirishlar kiritishi mumkin.

16. Maqolaning qoʻlyozmalari mualliflarga qaytarilmaydi.

17. El.pochta textilejournalofuzbekistan@bk.ru

18. Jurnal sayti: tju.uzsci.uz

Tahririyat.

Правила для авторов

Редакция просит авторов, направляющих статьи в журнал “Текстильный журнал Узбекистана”, руководствоваться следующими правилами:

1. Редакция принимает только научные статьи, содержащие оригинальный материал. Авторы принимают на себя ответственность в том, что данный материал не издавался ранее, не находится на рассмотрении для публикации в ином издании, и, в случае принятия материала, в дальнейшем не будет издан в другом журнале.

2. Объем статей, как правило, не менее 6 страниц, выполненных через один интервала в MS Word 6.0 или MS Word 7.0 шрифтом Times New Roman, размер кегля - 12 (включая аннотации на трех языках, рисунки, таблицы и список литературы). Статья должна состоят из следующих частей: введение; теоретические исследования, экспериментальные исследования; анализ результатов, выводы.

3. Текст и иллюстрированные материалы представляются в двух экземплярах, в окончательно отработанном для печати виде и должны быть подписаны всеми авторами.

4. Все формулы и буквенные обозначения, используемые в формулах величин набираются в редакторе формул Microsoft Equation 3.0 (номер формулы у правого края в скобках), описание используемых в формулах обозначений дается в строку подряд.

5. Размер рисунков, выполненных на компьютере, не более 12x15 см.

6. Каждая Таблица должна быть напечатана с соответствующим заглавием и пронумерована, если их несколько.

7. Список литературных источников оформляется в соответствии с общепринятыми правилами, требованиями и подаётся общим списком в конце рукописи. В списке должны быть использованы минимум 15 публикаций за последние 5-10 лет. Список дается в порядке перечисления в тексте. Список литературы должен быть написан на латинице “Reference” независимо от языка.

8. Ссылка на литературу в тексте рукописи дается в квадратных скобках (например, [1, 2] или [1-4]). Неопубликованные работы не могут быть упомянуты и перечислены.

9. В списке использованной литературы необходимо использовать литературу зарубежных изданий из базы данных Scopus или Scencedirect.

10. В аннотации сжато и точно должны быть изложены основная цель статьи, основные результаты и рекомендации на трех языках (узбекском, английском и русском). Каждая аннотация должна содержать не более 150-300 слов. Название статьи и аннотация на узбекском языке должны быть написаны на латинице.

11. К статье должны быть приложены:

-дубликат рукописи статьи;

-электронная версия статьи.

12. К статье должны быть приложены: экспертное заключение, рекомендация - рецензия от организации отправителя и рекомендации кафедры (выписка из протокола заседания) к публикации в данном журнале.

13. В справке об авторах должны быть изложены: фамилия, имя, отчество (полностью); научная степень; учёное звание; должность и полное название учреждения, где проводились исследования, номера телефонов, а также адрес электронной почты.

14. Статьи, которые не соответствуют этим правилам и не сопровождаются необходимыми подтверждающими документами, не принимаются.

15. Редакция может вносить редакционные изменения в статью без согласия авторов.

16. Рукописи статьи авторам не возвращаются.

17. Эл.почта textilejournalofuzbekistan@bk.ru

18. Сайт журнала tju.uzsci.uz

Редколлегия.

Muharrirlar guruhi: D.Gulyamova
B.Abrayqulov

Kompyuterda sahifalovchi-dizayner: M.Dusmuxamedova

Bosishga ruxsat etildi "___" _____ 202_ yil. Bichimi 60x84 1/8.
Shartli bosma taboqi 5,0. Nusxasi 100 dona. Buyurtma № _____

Ushbu ilmiy-texnik jurnal 2020 yil 24 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
02-0023 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tkazildi.



Certificate

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
bosmaxonasida tezkor bosma usulda bosildi.
100100, Toshkent, Shoxjahon ko'chasi, 5.